

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

*O'zbekiston Respublikasi
mustaqilligining 25 yilligiga
bag'ishlanadi*

U. E. FOZILOV

O'ZBEKİSTONDA FUQAROLIK
JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY
VA HUQUQIY ASOSLARI

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT – 2016

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

Taqrizchilar:

yuridik fanlar nomzodi, dotsent **M. K. Najimov**;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **I. E. Xo‘janazarov**

Fozilov U. E.

F-74 **O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy
va huquqiy asoslari:** O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston
Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 124 b.

Ushbu qo‘llanmada «fuqarolik jamiyati» tushunchasi, u to‘g‘risidagi asosiy siyosiy-huquqiy ta’limotlar, uning o‘ziga xos belgilari va xususiyatlari, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konstitutsiyaviy asoslari, huquqiy asoslarini takomillashtirish, ushbu sharoitda qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari, fuqarolik jamiyati institutlari tizimini hamda ular faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan masalalar atroflicha yoritilgan.

Qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar, tinglovchi va talabalariga hamda amaliyotchi mutaxassislarga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)Oya73

SO‘Z BOSHI

Mustaqil O‘zbekiston o‘z davlatchiligi tarixida tub burilish yasab, dunyoviy davlatchilikning yuksak darajasi bo‘lgan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishni qat’iy maqsad qilib qo‘ydi. Bunday jamiyatda inson huquqlari, erki, sha’ni va qadr-qimmati oliv ne’mat hisoblanadi, ularni amalda ta’minlash va himoya qilish Konstitutsiya hamda qonunlarning ustunligi asosida amalga oshiriladi.

Biz bugun mustaqil davlat va jamiyat qurish, xalqimiz uchun hech kimdan kam bo‘lmagan farovon hayot barpo etish yo‘lida tarixan qisqa davrda haqiqatan ham o‘n yillarga, balki asrlarga teng keladigan yo‘lni – masofani bosib o‘tdik, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘z vaqtida, bizning taqdirimiz hal bo‘layotgan o‘ta og‘ir va xatarli bir zamonda, turli xomxayollardan voz kechib, bizga ko‘rsatilgan tazyiq va zo‘ravonliklarga qaramasdan, bugungi kunda dunyoda taraqqiyotning «O‘zbek modeli» deb tan olingan, demokratik davlat, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko‘tarish bo‘yicha chuqur o‘ylangan rivojlanish yo‘limizni qat’iy belgilab olganimiz, hech shubhasiz, tom ma’noda tarixiy yutug‘imiz bo‘ldi¹.

Haqiqatan ham, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari izchil davom etmoqda².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida qisqa davr ichida milliy davlatchilik va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Эришган мэрралар билан чегараланмасдан, бошланган ислохотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Т.23. – Т., 2015. – Б.269.

² Qarang: *Каримов И.А.* Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.4.

manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtida boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi»¹.

Respublikamizda mustaqillik qo‘lga kiritilganidan keyingi rivojlanish davrida jamiyat va davlatni boshqarish hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratik islohotlarni amalga oshirishda fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash zarurligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Chunki, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy talabi ham hokimiyatni boshqarishda xalqning bevosita ishtirokini ta’minalashdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish, albatta, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, ayniqsa, uning siyosiy sohasida demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taqozo etadi. Shubhasiz, bu yo‘l demokratiya va erkinlikning umum e’tirof etilgan asosiy prinsiplariga tayanildi. Ayni paytda, mamlakatimizning tarixiy, milliy va diniy xususiyatlariga hamda xalqimizning dunyoqarashiga asoslaniladi². Bunda davlat tashqi siyosat, mudofaa, mamlakat va fuqarolar xavfsizligini ta’minalash, moliya va soliq tizimini takomillashtirish, qonunlar qabul qilish kabi umummiliy vazifalarni amalga oshirishni o‘z zimmasida saqlab qoladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, fuqarolarning erkin va qonun asosida faoliyat yuritishini ta’minalashga qaratilgan demokratik islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun erkinlashtirish, milliy qadriyatlar va an’analarni uyg‘unlashtirish asosida islohotlarni chuqurlashtirishning «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari» konseptual tamoyiliga asos solindi. Mamlakatdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida «davlatning rolini izchil ravishda kamaytirib borish va ayni paytda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.173.

² Qarang: Каримов И.А. Инсон, унинг ҳукуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.70.

organlari – mahallaning faoliyat ko‘lami hamda vakolatlarini kengaytirish, aholi turli qatlam va guruhlarining tub manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan siyosiy va ijtimoiy institutlar, nodavlat, nohukumat tuzilmalar rolini kuchaytirish»¹ yo‘li tanlandi.

Zero, Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek, « ... yuksak demokratik talablarni hayotimizga to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyatni barpo qilish, farovon hayotga erishish – bularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va uzlusiz davom etadigan jarayon bo‘lib, bunday darajaga ko‘tarilish hech qachon osonlikcha kechmasligini barchamiz yaxshi tushunamiz»².

Ushbu o‘quv qo‘llanmani yaratishdan asosiy maqsad O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari to‘g‘risida o‘quv-chilarga atroflicha ma’lumot berishdan iborat.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009. – Б.31–32.

² *Каримов И.А.* Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б.246.

I bob. FUQAROLIK JAMIYATINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

1.1. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va uning mohiyati

Fuqarolik jamiyati haqidagi ta’limotlarning rivojlanish tarixi juda uzoqlarga borib taqaladi, mohiyati esa murakkab va serqirradir. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va uning mohiyati haqidagi ta’limotlarni ko‘rib chiqishda e’tiborni, avvalo, ularning turlicha talqin etilganiga qaratamiz. Fuqarolik jamiyati mohiyati haqidagi ta’limotlarning bir-biridan farq qilishi, *birinchidan*, uni o‘rganishda turlicha metodologik yondashuvlar bo‘lganligi, *ikkinchidan*, bu ta’limot insoniyat rivojlanishining qaysi davrida amalga oshirilganligi, ya’ni fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyatini talqin qilish o‘sha vaqtda hukmron bo‘lgan g‘oyalarga asoslangan holda amalga oshirilganligi bilan bog‘liqdir.

«Jamiyat» va «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini aynan bir xil talqin qilmaslik lozim. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivoji insoniyat, davlat, huquq tarixining muayyan sivilizasiyalashgan davri bilan bevosita bog‘liq. Davlatdan farqli o‘laroq, jamiyat hamisha mavjud bo‘lgan. Lekin har doim ham u fuqarolik jamiyati maqomiga ega bo‘lmagan1.

Huquqiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, fuqarolar mustaqil shaxs, jamiyatning mustaqil a’zosi sifatida muayyan huquq va erkinliklarga ega bo‘lgan, o‘z xatti-harakati uchun mas’uliyatni his qila olganlaridagina fuqarolik jamiyati haqida so‘z yuritish mumkin. Fuqarolik jamiyati haqida yaratilgan adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, insoniyat, xususan G‘arb sivilizatsiyasining fuqarolik jamiyat sari rivojlanishi ma’lum ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jumladan inqiloblar orqali kechgan. Albatta, bu jarayon jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarida o‘zgarishlar yuz berishiga olib kelgan.

Fuqarolik jamiyatida xususiy mulkchilik g‘oyat katta ahamiyatga ega, chunki shaxs mulkdor bo‘lsagina davlat hokimiyatiga nisbatan o‘zini mustaqil sezadi, qonunda ko‘rsatilgan asoslarda o‘z manfaatlarini hisobga olib, xohlagan ishi bilan shug‘ullanishi, istalgan kasbni egallashi, o‘zi tanlagan joyda yashashi mumkin. Ma’lumki, fuqarolik jamiyatida davlat insonni munosib hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklar bilan ta’minlaydi. Fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi amalda

ta'minlanadi. Shu bois ham fuqarolik jamiyatida uning a'zolari – «inson», ularning huquq va erkinliklari esa «inson huquqlari» deb ataladi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini insonlarning huquq va erkinliklarini, jamiyatning tarkibiy qismi bo'lgan davlat esa fuqarolarning huquqlarini ta'minlaydi. Har ikki holda ham gap shaxsning huquq va erkinliklari to'g'risida boradi. Lekin *birinchi* holatda har bir shaxsning alohida inson sifatida yashash, erkinlik va daxlsizlik, baxtli hayot kechirish va boshqa tabiiy huquqlari haqida, *ikkinci* holatda esa shaxsning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etishini ta'minlovchi siyosiy huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga va uning doimo taraqqiy etib borishiga juda katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi insonning munosib hayot kechirishini, barcha hayotiy orzu-maqsadlari shu jamiyat-dagi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institut, guruh, oila va boshqa jamoat birlashmalari orqali amalga oshirilishini ta'minlashdir. Bu siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar va guruhi har bir insonga uning o'zi yashayotgan jamiyatda hokimiyatning manbai ekanligini, huquq va erkinliklari, qobiliyati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar¹.

Fuqarolik jamiyat davlatning fuqarolari, ularning ixtiyoriy ravishda birlashgan guruh, jamoa va tashkilotlari, ya'ni o'zaro huquq va majburiyatlari bilan bog'liq, yuksak siyosiy va huquqiy madaniyatga ega bo'lgan kishilardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyat nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning bevosita o'zları, ularning jamoaları orqali ongli ravishda boshqarib turiladigan va qat'iy tartib-intizom qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat boshqa jamiyatlardan o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi va boshqarib turishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Unda davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari keng jamoatchilik nazoratida bo'ladi, chunki davlat fuqarolar jamiyatining «yollanma xizmatkori»ga aylanadi.

Ma'lumki, davlat fuqarolardan, ular mehnat qiladigan tashkilot, korxona va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga yashaydi. Shu bois fuqarolik jamiyatida fuqarolar va ularning birlashmali nafaqat jamiyat-

¹ Сайдов А., Тожихонов У. Давлат ва хуқуқ назарияси. – Т., 2001. – Б.236–238.

ning siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy hayotini ham boshqarishda faol ishtirok etadi.

Binobarin, barcha kishilik jamiyatlarini ham fuqarolik jamiyati deb atab bo‘lmaydi. Fuqarolik jamiyati, avvalo, yuksak darajadagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan jamiyatdir¹. Fuqarolik jamiyati – insoniyat jamiyatining oliv ko‘rinishi, oliv shakli².

Huquqiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sobiq Ittifoq davlati, shu jumladan o‘sha vaqtida uning tarkibida bo‘lgan O‘zbekistonda ham XX asrning 70-yillaridan boshlab «fuqarolik jamiyati» tushunchasi haqida fikrlar keng tarqala boshladi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, inson-parvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidan borayotgan bugungi kunda fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyati, uni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar ko‘plab munozaralarga mavzu bo‘lmoqda.

Ayrim olimlar «fuqarolik jamiyati» tushunchasini, uning mazmuni va mohiyatini tushuntirishda fuqarolik jamiyati va siyosiy jamiyat o‘rtasidagi farqni ko‘rsatishga harakat qilsalar, boshqa olimlar keng ma’nodagi fuqarolik jamiyatini davlatga qarama-qarshi hodisa sifatida talqin qiladilar.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, «jamiyat» tushunchasi fuqarolar uyushmasi sifatida fuqaro haqidagi tasavvurlar paydo bo‘lgan davrlarda – Qadimgi Sharqda, xususan Bobilda «Hammurapi qonunlari», Turon zaminida «Avesto» kabi manbalarda, keyinchalik esa qadimgi Rimda – shakllana boshlaganiga guvoh bo‘lamiz.

Huquqiy va tarixiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadimda davlat bilan fuqarolik jamiyati bir ma’noni anglatgan, ular o‘rtasida farq bo‘lмаган. Buyuk yunon faylasufi Arastuning fikricha, davlat fuqarolarning, fuqarolar jamiyatining uyushmasidan boshqa narsa emas. U «davlat» bilan «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini bir ma’noda ishlatadi³. Bunday talqin XVIII asrgacha, ya’ni fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyatini to‘liq aks ettiruvchi bugungi tushuncha shakllangunicha davom etgan.

Fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlar Uyg‘onish davrida G. Grotsiy, T. Gobss, J. Lokk, SH. Monteskyo, J. J. Russo asrlarida ham rivojlantirilgan. Lekin «fuqarolik jamiyati» atamasi faqat XVII asrning oxirlariga kelib muntazam va keng qo‘llanila boshlandi.

¹ Ko‘rsatilgan manba. – B.50–51.

² Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.9.

³ Аристотель. Политика. Ч. III. – М., 1965. – С.5.

Fuqarolik jamiyatining nazariy asoslarini mukammal ilmiy ta’limot sifatida ilk bor Gegel o‘zining «Huquq falsafasi» nomli mashhur asarida yaratdi. Gegel fuqarolik jamiyati ikki asosiy prinsipga asoslanishini isbotlab beradi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyatida, *birinchidan*, individlar, ya’ni odamlar faqat va faqat o‘z xususiy manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadilar; *ikkinchidan*, jamiyat a’zolari hisoblangan odamlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar yuzaga keladi va ular tabiiy ravishda bir-birlariga muh-tojlik his etishadi.

Fuqarolik jamiyati haqidagi Gegel ta’limotiga asosan, inson, ya’ni fuqaro o‘z ijtimoiy mavqeい, shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlari bilan bunday jamiyatning asosini tashkil qiladi.

Akademik M. Sharifxo‘jayev ta’kidlaganidek, Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari «fuqarolik jamiyati» atamasi hamda bu so‘z birikmasining etimologiyasidan kelib chiqqan. Nemischa «*Burgerliche besellshaft*» (Burgerleske besellshaft) ikki ma’noga ega, ya’ni burger (burjua) – ham fuqaro, ham burjua demakdir¹.

Gegelning fikricha, «fuqarolik jamiyati – eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek oila, tabaqa, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta’lim-tarbiya, qonunlar va ulardan kelib chiqadigan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalardan iborat». Uning ta’biri bilan aytganda, tabiiy, «madaniyatsiz» holatdan odamlar fuqarolik jamiyatiga kirib kelishlari kerak, zero, ana shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqatga aylanadi¹.

Inson, uning jamiyatdagi roli, funksiyalari, maqomi Gegel ta’limotining asosiy unsuri sifatida maydonga chiqadi. Gegel qarashlariga muvofiq, alohida shaxs o‘zi uchun o‘zi maqsad bo‘lib, uning faoliyati eng avvalo o‘zining (tabiiy va ijtimoiy) ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Ayni paytda, u o‘z ehtiyojlarini faqat boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlarda bo‘lgan holatdagina qondira oladi. «Fuqarolar jamiyatida har kimning o‘z munosabati o‘zi uchun maqsad bo‘lib, qolganlar uning uchun hech narsa emas. Lekin inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lmasdan o‘z maqsadlariga to‘la erisha olmaydi»².

Fuqarolik jamiyati kishilik jamiyatining eng yuksak shakli hisoblanib, u o‘z ichiga a’zolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlash maqсадida ixtiyoriy ravishda birlashgan turli guruhlar, uyushmalar, birlashmalar

¹ Qarang: Гегель. Работы разных лет. – М., 1973. – С.50

² Qarang: Гегель. Философия права. – М., 1990. – С.228

kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Ular, o‘z mohiyatiga ko‘ra, jamiyatda insonparvarlik va adolatlilik prinsiplariga asoslangan hamjamiyatni ifoda etadi. Faqat shunday jamiyatgina har bir insonga o‘zi uchun oliv farovonlik topish imkonini yaratib beradi.

Inson huquq va erkinliklari yuqori darajada ta’minlangan rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati shaxsiy hokimiyat rejimiga, o‘zboshimchalik, sinfiy nafrat, totalitarizm, odamlar ustidan zo‘ravonlikka o‘rin bo‘lmagan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy, sivilizasiyalashgan jamiyatdir. Bu – aralash iqtisodiyotga ega bo‘lgan ko‘p ukladli raqobatli bozor jamiyati, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar munosabatlarining oqilona muvozanati ta’minlangan jamiyat.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, fuqarolik jamiyatida fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlari asosan amaldagi qonunlarga itoat qilish, qonunlarda belgilangan soliq va yig‘imlarni to‘lash hamda boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishdangina iborat bo‘ladi.

Albatta, hayotda muayyan vaziyat va munosabatlarda fuqarolarning o‘z ijtimoiy, mehnat, tadbirkorlik va boshqa turdagи faoliyatlari, shuningdek xizmat, harbiy, oilaviy burchlarini ado etishlari bilan bog‘liq boshqa majburiyatlari ham yuzaga keladi. Lekin bunday jamiyatda insonlar o‘rtasida pastdan yuqoriga (vertikal) emas, balki tengma-teng (gorizontal) aloqalar ko‘proq bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinliklaridan boshlanadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish ehtiyojlari, avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va ularning hayotda amal qilishini mukammal ravishda tashkil etish zaruratidan kelib chiqqan¹. «Fuqaro» so‘zining o‘zi shaxsning mustaqilligi, teng huquqliligi, sha’ni va o‘z-o‘zini hurmatlashining sinonimi sifatida yangraydi. Bunday jamiyat hamisha turli tabaqaviy bo‘linishlar, odamlarning tengsizligi, huquqlarining cheklanishiga qarshi qo‘yilgan. Fuqarolik jamiyatining assosi bo‘lgan insonning «fuqaro» maqomiga ega bo‘lishi unga shu jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan burch, mas’uliyat yuklaydi. Bu esa avvalo xalqqa, Vatanga xizmat qilish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun jamiyatni isloh qilish va yangilash bo‘yicha ko‘p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren

¹ Qarang: Қирғизбоеев М. Демократик кўппартиявийлик ва парламентаризм тамойилларини ривожлантириш масалалари // Ўзбекистон: фуқаролик жамияти сари. – Т., 2003. – Б.204.

O‘zbekiston fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni har bir fuqaro o‘z qobiliyati va iste’ dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy hayotdagi barcha o‘zgarishlar ayni mana shu oliv maqsadga – har bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma’naviy jihatdan boyroq qilishga bo‘ysundirilgan¹.

Huquqiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, fuqarolik jamiyatni uchun yana ikki prinsip – «aybsizlik prezumpsiyasi» va «qonunda taqiqlamagan hamma narsaga ijozat beriladi» degan qoidalar mavjud. Mazkur prinsiplarning *birinchisiga* muvofiq, odam belgilangan tartibda aybi isbotmanlagunicha, halol, aybsiz hisoblanadi. Boz ustiga, isbotlash mashaqqatlari ham ayblovchilar zimmasiga tushadi. *Ikkinci* prinsip erkin fuqaro qonun va axloqqa zid kelmaydigan har qanday harakatlarni qilishga haqli degan ma’noni bildiradi.

Fuqarolik jamiyatni siyosiyashuv va mafkuralashuvdan holi jamiyatdir. Biroq, bu mazkur jamiyat hech qanday siyosat yuritmaydi, aniq g‘oya yoki qarashlardan foydalanmaydi yoxud ulardan qaysi birlarinidir afzal ko‘radi yoki ko‘rmaydi, degan ma’noni aslo bildirmaydi. Fuqarolik jamiyatiga mafkuraviy yakkahokimlik begona ekanligi boshqa masala. Hech bir mafkura, agar u yagona va eng to‘g‘ri, nuqson siz va tanho yashashga haqli deb taqdim etilgan taqdirda ham, istisnolikka da’vo qilolmaydi².

Fuqarolik jamiyatining mohiyati to‘g‘risida bugungi kunda ham olimlar o‘rtasida bir-biridan farq qiluvchi turli fikr va mulohazalar mavjud. Akademik M. Sharifxo‘jayev fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi fikr va mulohazalarni quyidagi yo‘nalishlarga ajratadi: a) fuqarolik jamiyatining shakllanishi davlatga bog‘liq bo‘lмаган holda, demokratik taraqqiyotning ilk davri, bozor munosabatlarining birinchi bosqichi; b) demokratiya sharoitida davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar bartaraf etilgan bo‘lib, demokratik-huquqiy maqomga ega davlat – fuqarolik jamiyatining normal bir ko‘rinishiga aylangan siyosiy institut; d) fuqarolik jamiyatni, umuman, hozirgi taraqqiy etgan jamiyatning aynan o‘zi; e) jahon hamjamiyatining kelajakdagi tarkibiy asoslarini yaratish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir³.

Fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi mazkur fikr-mulohazalarda uning mohiyatini ochib berish uchun umumlashtirilgan yagona bir mezon yo‘q.

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.352–353.

² Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Масъул мухаррирлар Ҳ.Б. Бобоев, Ҳ.Т. Одилқориев. – Т., 2000. – Б.462–463.

³ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.10.

Bugungi kunda falsafiy, siyosiy, huquqiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyatiga ta’rif berish, uning mohiyatini tushuntirish va O‘zbekistonda bunday jamiyatni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishga faol harakat qilinmoqda.

Huquqshunos H. T. Odilqoriyev fuqarolik jamiyatiga ta’rif berish va uning mohiyatini yoritishda bunday jamiyatda davlat, inson hamda nodavlat tashkilotlar tizimining o‘rni, ularning o‘zaro munosabati va aloqalarini ilmiy asoslangan holda batafsil tushuntirib beradi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvidan, ma’muriy tazyiqlardan holi bo‘lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil munosabatlar va vositalar tizimi bo‘lib, u shaxs hamda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlarini sohasi sifatida ta’riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko‘pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro‘yobga chiqadi. Biroq, bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligi, begonalashganligini anglatmaydi. **Fuqarolik jamiyati** – shaxslarning oddiy yig‘indisi emas, balki ular o‘rtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlik ifodasi. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy-institutsiyaviy ko‘rinishga ega bo‘lib, unga turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalarning mavjudligi xos¹.

Rossiyalik olima L. A. Morozova fuqarolik jamiyatiga insonlarning turli-tuman manfaatlarini ifodalovchi, madaniy, milliy, diniy, hududiy va boshqa xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar, birlashmalar harakat qiladigan, davlatga qaram bo‘lmagan, nisbatan mustaqil jamiyat deb ta’rif beradi². Shuningdek, Rossiyada chop etilgan boshqa adabiyotlarda yozilishicha, fuqarolik jamiyati davlatga qarshi tura oladigan, uning faoliyatini nazorat qila oladigan, jamiyatdagi o‘rnini belgilab bera oladigan, boshqacha aytganda, o‘zining davlatini huquqiy davlat sifatida saqlay oladigan jamiyatdir³.

¹ Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.164–165; Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Масъул мухаррирлар Х.Б. Бобоев, Х.Т. Одилқориев. – Т., 2000. – Б.453–467.

² Qarang: Морозова Л.А. Основы государства и права. – М., 2004. – С.65.

³ Qarang: Общая теория государства и права: Учебник / А.Ф. Вишневский, Н.А. Горбаток, В.А. Кучинский. – М., 2004. – С.534.

Taniqli olim M. Qirg‘izboyev hozirgi zamon ilg‘or demokratik davlatlar hududida shakllangan fuqarolik jamiyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarga asoslangan holda fuqarolik jamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: *birinchidan*, jamiyat hayoti va ma’naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang‘ich nodavlat tizimlarini qamrab olgan insoniy birlik; *ikkinchidan*, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma’naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarishga oid, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasi; *uchinchidan*, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashuvlari yoki bir qolipga solishlidan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo‘lib, unda ular o‘zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo‘ladilar¹.

«Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’milanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat»².

To‘g‘ri, fuqarolik jamiyatiga ta’rif berish bilan uning mohiyatini to‘liq ochib berib bo‘lmaydi. Shu bois bunday jamiyatni barqaror rivojlanishi va a’zolarining erkin yashashi hamda faoliyat ko‘rsatishini, shu bilan birga, konstitutsiyaviy majburiyatlarining bajarilishini ta’minlaydigan asosiy prinsiplar va umumiylig‘i o‘yalarni aniqlash orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada akademik M. Sharifxo‘jayev fuqarolik jamiyati qayerda, qachon mavjud bo‘lishidan qat’i nazar, uning quyidagi umumiylig‘i o‘ya va prinsiplarga asoslanishini ta’kidlaydi: iqtisodiy erkinlik, turli mulk shakllari, bozor munosabatlari; inson va fuqarolarning tabiiy huquqlarini so‘zsiz tanolish hamda himoya qilish; hokimiyatning erkinligi va demokratik xususiyati; qonun va odil sudlov oldida hammaning tengligi, shaxsning zaruriy huquqiy himoyasi; hokimiyatning tarmoqlarga bo‘linishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqaga asoslangan huquqiy davlat; siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, ochiq muxolifatning mavjudligi; so‘z va matbuot erkinligi; davlatning fuqarolar hayotiga aralashmasligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat va majburiyatlar; ijtimoiy barqarorlik, tinchlik, hamkorlik va milliy totuvlik;

¹ Қирғизбоеев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б.12.

² Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.172.

odamlarga munosib hayot sharoiti yaratib berilishini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat¹.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'liga kiritgandan keyingi davrda respublikamizda yangi huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurish borasida yuqorida sanab o'tilgan umumiy g'oya va prinsiplarning nazariy asoslarini yaratish hamda hayotga tatbiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda o'tkazilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topayotgan iqtisodiy siyosat pirovard natijada demokratik islohotlar qilish, kuchli suveren huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam moddiy negiz yaratishga yo'naltirilgan. Maqsadimiz – demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish. Bu bizning ezgu orzuimiz, strategiyamizdir².

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining mohiyati, biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat bilan munosabati, biz orzu qilayotgan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy omillari, o'ziga xos jihatlari va u bilan bog'liq bo'lgan barcha nazariy hamda amaliy masalalar bo'yicha Prezidentimiz Islom Karimovning ilmiy asoslangan g'oyalari, fikr-mulohazalari va ko'rsatmalari ushbu mavzuni o'rganayotgan falsafa, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologik asos sifatida shakllandi, desak adashmaymiz. Biz buning tasdig'ini Islom Karimovning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog'liq ayrim masalalar bo'yicha aytgan quyidagi fikr-mulohazalarida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatni barpo etishdan iboratdir³. Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari umummilliy manfaatlarga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir⁴.

Biz jamiyatni qonunlar yordamida boshqarishni o'rganib olishimiz kerak. Qonun ijtimoiy hayotni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning

¹ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.19.

² Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т., 1995. – Б.246–247.

³ Qarang: Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.177.

⁴ Qarang: Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.12.

asosiy vositasi bo‘lib qolishi lozim. Buning uchun biz chuqur o‘ylab ishlangan, har tomonlama asoslangan, uzoq muddat amal qiladigan qonunlarga ega bo‘lishimiz darkor¹. Qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishni o‘rganishimiz, o‘z huquq va erkinliklarimizni qonun orqali himoyalashni, o‘z majburiyatlarimizni og‘ishmay bajarishni o‘rganib olishimiz zarur. Boshqa odamlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganib olish lozim. Qonun ustuvorligi tantana qilishiga, unga og‘ishmay rioya etish esa har bir kishining muqaddas burchi bo‘lib qolishiga erishishimiz kerak².

Biz islohotlarni chuqurlashtirish, demokratik tub o‘zgarishlar yo‘lidan olg‘a siljish, hayotimizda asl demokratik qadriyatlar qaror topayotgani to‘g‘risida gapirganda, avvalo, fuqarolik jamiyati asoslariga o‘tish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish muassasalarini butun choralar bilan ken-gaytirishni nazarda tutamiz. Bu barcha islohotlarimizning asosiy mohiyati va bosh mantig‘idir³.

Bugun erishilgan marralardan turib, o‘z oldimizga demokratik siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifasini qo‘yar ekanmiz, pirovard maqsadga erishish – fuqarolik jamiyati qurish zaruratidan kelib chiqib ish tutmog‘imiz darkor. Ya’ni, shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, unda kuchli markaziy hokimiyat o‘z sa’y-harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, valutamoliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalarga qaratmog‘i zarur. Boshqa masalalarni hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyatি organlaridan jamoat birlashmalarini va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazilishi lozim⁴.

1.2. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi asosiy siyosiy-huquqiy ta’limotlar

Fuqarolik jamiyati muammosi insoniyatning oqil kishilarini asrlar davomida qiziqtirib kelgan muhim ilmiy muammolar qatoriga kiradi.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т., 1995. – Б.32.

² *Каримов И.А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.202.

³ *Каримов И.А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т., 1996. – Б.183.

⁴ *Каримов И.А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – Б.129–130.

Insoniyat taraqqiyoti shuni ko'rsatadaki, kishilik jamiyatni paydo bo'l-ganidan shu bugungacha ma'lum bir tarixiy davrlarda jamiyat barqaror rivojlangan va taraqqiy etgan, muayyan bir davrlarda esa tanazzulga yuz tutgan. Bugungi kunda jamiyatning to'la-to'kis rivojlanishi, uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa barcha sohalaridagi munosabatlar-ni tartibga, jarayonlarni esa to'g'ri yo'lga solish uchun davlatning Konsti-tutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan, kelajakka yo'naltirilgan asosiy yo'nalishlarni belgilab olish zarur bo'ladi. Ana shunday yo'nalish-lardan biri demokratik fuqarolik jamiyatni yaratish yoki, boshqacha aytgan-da, – «**Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari**» degan prinsipni hayotga joriy etish demakdir¹.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bunda biz, albatta, fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi ilg'or ta'limotlarga tayanishimiz va ularni yanada boyitgan, mukammallashtirgan holda hayotga tatbiq etishimiz kerak. Fuqarolik jamiyatni haqidagi g'oyalar xilma-xil bo'lib, ularning shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Fuqarolik jamiyatni haqidagi siyosiy-huquqiy ta'limotlarning shakllani-shi va rivojlanishi odatda davrlarga bo'lib tadqiq etiladi².

Fuqarolik jamiyatni haqidagi siyosiy-huquqiy ta'limotlar shartli ravishda ikki yo'nalishga taqsimlanadi. *Birinchisi*, G'arb mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni va u bilan bog'liq masalalar haqidagi ta'limotlari, *ikkinchisi* Sharq mutafakkirlarining «adolatli jamiyat» va u bilan bog'liq masalalar haqidagi ta'limotlaridir. Siyosiy-huquqiy ta'limotlarni o'rganishga bunday yondashuv, *birinchidan*, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, *ikkinchidan*, rivojlangan G'arb demokratik jamiyatlarining shakllanishi haqidagi ta'limotlar xalqimizning axloqi, urf-odatlari, qadriyatlari, mentaliteti, tafakkuriga qanchalik mos kelishini aniqlash imkonini beradi, *uchinchidan*, turli sabablarga ko'ra hozirgi kungacha ham ko'pchilikka noma'lum bo'lgan Sharq mutafakkirlarining adolatli jamiyat haqidagi ta'limotlarini jahon ilmiy jamoatchiligiga taqdim etish va undan O'zbekistonda demo-kratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida bevosita foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.27.

² Qarang: *Худайбердиева А.Н. Эволюция политico-правовых идей о граж-данском обществе: вопросы теории и практики: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2007. – С.12–16.*

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasini ilmiy va siyosiy-huquqiy muomalaiga Arastu kiritgan. U fuqarolik jamiyatini siyosiy tuzumning ma'lum shakli orqali o'zaro bog'langan erkin va teng huquqli fuqarolar uyushmasi sifatida ta'riflagan¹.

Buyuk faylasuf fuqarolik jamiyatini falsafiy nuqtai nazardan o'rgangan. U davlatga ta'rif berish jarayonida, avvalo, «fuqaro» tushunchasini izohlab o'tadi. Uning nazarida davlat fuqarolar majmui, ularning jamoasiadir². Jamiyat bilan davlatni bir ma'noda tushunib, bunday ta'riflashning nazariy-g'oyaviy manbai qadimgi falsafiy fikrlarga borib taqaladi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ta'limotlar XVII–XIX asrlarda yashab ijod qilgan G. Grotsiy, T. Gobbs, B. Spinoza, J. Lokk, Sh. Monteskyo, J. J. Russo, I. Kant, F. V. Gegel kabi olimlarning asarlarida har tomonlama yoritib berilgan.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi faqat XVIII asrning oxirlarida fanda barqarorlashdi. Yevropa ijtimoiy fikri taraqqiyotida fuqarolik jamiyati mutlaq hukmron davlat tizimiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aynan o'sha paytlarda fuqarolarning shaxsiy xususiy ehtiyojlari, manfaatlarining hal qiluvchi mohiyatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Bora-bora ijtimoiy manfaatlaru tartiblarga qarama-qarshi o'laroq, individualizm fuqarolik jamiyatining tub mohiyatiga aylana bordi³.

T. Gobbsning fikricha, barcha kishilar, tabiatdagi mavjudotlar kabi, bir xil jismoniy va aqliy imkoniyatga ega bo'lib, o'zaro teng huquqqa ega-dirlar. Ular tug'ilganda erkin bo'lib, o'zlarining harakatlarida shaxsiy manfaatlarga asoslanib harakat qiladilar. ularning turmushlaridagi harakatlan-tiruvchi kuch hayotiy farovonlikka erishishlariga xizmat qiladi. B. Spinoza ning fikricha, inson tabiatning tirik mavjudoti bo'lib, o'zini saqlash qonunlariga bo'ysunadi. Bu tabiiy qoida insonning yashash, erkin fikrlash va harakat qilish huquqi bilan mos keladi. Faylasuf «davlat» va «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini bir xil ma'noda tushunadi, chunki kishilarning o'zaro harakatining tabiiy holati ularning o'rtasida va davlat bilan «ijtimoiy shartnoma» asosida bo'ladigan o'zaro hamkorlikning o'rnini bosadi, barcha kishilar yagona hamjamiyatning fuqarosi hisoblanadi⁴.

¹ Қирғизбоеев М. Фуқаролик жамияти: Сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б.12.

² Qarang: Аристотель. Политика. Ч. III. – М., 1965. – С.5

³ Шариғхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклла-ниши. – Т., 2003. – Б.16.

⁴ Спиноза Б. Избр. соч. Т.2. – М., 1957.

J. Lokk insonning o‘z hayoti, vijdoni, erki va mulkini himoya qilish kabi tabiiy huquqlaridan kelib chiqqan holda insoniyat hamjamiyatini tabiiy va siyosiy (fuqarolik) jamiyatlarga ajratadi. Uning fikricha, tabiiy hamjamiyat xonodon boshqaruvini amalga oshiradigan oilalar yig‘indisidan iborat. Bunda oila boshlig‘i cheklanmagan hokimiyatga egadir. Tabiiy hamjamiyatda kishilar hayotiy ehtiyojini ta’minalashga qodir bo‘lgan mulkka egalik qiladilar. Mulkka bo‘lgan ehtiyojning barqarorligi, boshqa bir insonning mulkiga tajovuz qilish imkoniyatining mavjudligi, kishilarda o‘zaro «ijtimoiy shartnomma» tuzish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu shartnomma kishilarning birgalikda yashashlari, mulkdan bemalol foydalanishlari uchun zarur. Shunday qilib, hamjamiyat fuqarolik jamiyatiga aylanib, «ko‘pchilik kishilar yagona jamiyatga birlashadilar, tabiat qonunlariga asosan o‘zlarining ijro etuvchi hokimiyatidan voz kechib, ularni siyosiy yoki fuqarolik jamiyatiga beradilar»¹. J. Lokk shunday yozadi: «...Mutlaq hokimiyat, u kimning qo‘lida bo‘lmasin, fuqarolik jamiyatiga to‘g‘ri kelmaydi, qullik xususiy mulk bilan chiqishmaganidek, fuqarolik jamiyati ham mutlaq hokimiyat bilan chiqishmaydi»².

T. Gobbs va J. Lokk «fuqarolik jamiyatini davlat tomonidan tashkil qilinadigan va boshqariladigan jamiyat» sifatida idrok etishgan. Ular fuqarolik jamiyatini ijtimoiy voqelikning ma’lum bir bo‘lagi hisoblab, uni amalda davlat bilan birga bo‘ladigan, lekin davlatga o‘xshamagan narsa deb hisoblashgan. Masalan, T. Gobbs quyidagicha yozadi: «Davlat Injilda ko‘rsatilgan Leviafan mahluqi singari fuqarolik jamiyatini yutib yuborishga intiladi. Ijtimoiy shartnomma nazariyasi tarafdarlarining fikriga ko‘ra, ideal davlat fuqarolik jamiyatining rasmiy vakili sifatida inson huquqlari va erkinliklarining amalga oshishi, jumladan xususiy mulkka egalik qilishi uchun shart-sharoit yaratish zarur. Fuqarolik jamiyati ijobiy rivojlanish sharoitida mavjud siyosiy tuzumning barqarorligini kafolatlaydi»³.

Sh. Monteskyo nafaqat tabiatda, balki jamiyatda ham tabiiy qonunlar amal qilishini uqtiradi. Ijtimoiy sohada jamiyatning bu qonunlari amal qilishi insonning erkin faoliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun bu qonunlar tabiatdagi qonunlarga nisbatan ancha murakkabdir. Sh. Monteskyo fuqarolik jamiyatining vujudga kelishini ijtimoiy shartnomaning natijasi hisoblaydi. U kishilar umumiyl xohish-iroda asosida birdamlikka erishadilar va

¹ Локк Дж. Ибр. произ. В 3-х. т. Т.3. – М., 1988. – С.312–365.

² Локк Дж. Указ. соч. – С.365.

³ Формирование гражданского общества в современной России // Социологические исследования 1994–1995 гг. – М., 1996. – С.136.

bu birdamlik fuqarolik jamiyatni deb nomlanadi, degan xulosaga keladi. Fuqarolik jamiyatni yoki davlatning shakllanishini u zaruriy tarixiy jarayon deb biladi. Kishilar tug‘ilganlarida teng huquqqa ega bo‘ladilar, ammo bu tenglik huquqini saqlab qola olmaydilar. Chunki jamiyat ulardan bu huquqni tortib oladi, ular qonunlar yaratilishi bilan qaytadan tenglik huquqiga erishadilar. Sh. Monteskyo jamiyatning rivojlanishida qonunlarning o‘rnini qayd qilar ekan, qonunlar kishilar, xalqlar va hukmdorlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, «qonun nimaga ruxsat bersa, o‘sha narsa erkinlikdir». Shu sababli u boshqaruvning uch shaklini ajratib ko‘rsatadi: respublika, monarxiya, despotiya. Despotiya bir shaxsning o‘zboshimchalik qilishi sababli hokimiyatning suiiste’mol bo‘lishiga olib keladi. O‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymaslikning kafolati sifatida fuqarolar o‘rtasidagi, shuningdek fuqaro va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq bo‘lishi zarur¹.

Faylasuflar T. Gobbs, B. Spinoza, J. Lokk hamda SH. Monteskyo fuqarolik jamiyatini tushunish va uning mohiyatini ochib berishga turlicha yondashishlariga qaramasdan, ularning ta’limotlarida o‘xshash jihatlar bor: *birinchidan*, ular fuqarolik jamiyatni va davlatni bir-biriga o‘xshatadilar; *ikkinchidan*, kishilik jamiyatining rivojlanishi va unda tartib o‘rnatish maqsadida o‘zaro «ijtimoiy shartnoma» tuzish zarurligini tan oladilar. Ko‘pchilik faylasuflar bu mezonlarni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlari deb hisoblaydilar.

J. J. Russo xususiy mulkning mavjudligi fuqarolik jamiyatida muhim rol o‘ynashiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, xususiy mulk davlat va fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini tashkil qiladi. U, o‘z davrining ko‘pchilik olimlari singari, «ijtimoiy shartnoma» asosida siyosiy hokimiyatni yaratish tarafdori bo‘lib, quyidagicha yozadi: «Har kim o‘z mulki va qudratini umum xohish-irodasining oliy rahbarligiga topshirsa, biz ularning har birini bir butunning muayyan bo‘lagi sifatida qabul etamiz»². J. J. Russo qonunni umumiyligi xohish-iordaning yuridik ifodasi sifatida ta’riflab, barcha fuqarolardan unga og‘ishmay rioya qilishlarini talab qilib-gina qolmay, qonun kuchli davlat mavjud bo‘lishi uchun asos bo‘lishini ham his etadi³.

XVII–XVIII asrda yashab o‘tgan yevropalik mutafakkirlarning fuqarolik jamiyatni haqidagi ijtimoiy-siyosiy fikrlarini o‘rganish quyidagi xulo-

¹ Qarang: Ko‘rsatilgan manba. – B.289.

² Pycco Ж.Ж. Об общественном договоре. – М., 1938. – С.13.

³ Qarang: Pycco Ж.Ж. Трактаты. – М., 1969. – С.161–162.

salarga olib keladi: *birinchidan*, fuqarolik jamiyatining asosini umum-insoniy qadriyatlar, fuqarolarning tabiiy huquqlari, xususan, yashash huquqi, erkinlik, xususiy mulk huquqi va boshqalar tashkil etadi; *ikkinchidan*, fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni feodalizm bag‘rida boshlangan; *uchinchidan*, fuqarolik jamiyati insonlarning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish jarayonining obyektiv natijasidir; *to‘rtinchidan*, fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyat institutlari, ya’ni dav-latsiz mavjud bo‘la olmaydi; *beshinchidan*, fuqarolik jamiyatida uning a’zolari o‘rtasidagi va ular bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar huquq bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik jamiyati va uning shakllanishi haqidagi ta’limotlar tarixida Gegelning qarashlari yangi bir yo‘nalishni vujudga keltirdi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati oila bilan davlat o‘rtasida tashkil topadi. Kishilar tabiiy ravishda «madaniyatsiz» holatda bo‘lganliklari uchun ular fuqarolik jamiyatiga a’zo bo‘lishlari kerak. Fuqarolik jamiyatida huquqiy munosa-batlar haqiqiy voqelikka aylanadi¹. Gegel fuqarolik jamiyati bilan davlat o‘rtasidagi farqni falsafiy jihatdan anglashga harakat qildi. Uning fikriga ko‘ra, davlat faoliyati doirasi – umumiyl manfaatlar, fuqarolik jamiyati esa xususiy manfaatlar sohasidir.

Bizningcha, Gegel fuqarolik jamiyati haqida fikr yuritganida hayot-ning turli jabhalarida yuksak farovonlikka erishgan burjua jamiyati doirasi-dagi yetuk ijtimoiy munosabatlarni nazarda tutgan. Olim ta’limotining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan, qoloq va taraqqiy topmagan jamiyatda «axloq», «huquq», «qonun», «burch» kabi tushunchalar hech qanday ahamiyatga ega emas. Shu bois bunday jamiyatni fuqarolik jamiyati deb bo‘lmaydi. Chunki fuqarolik jamiyatida «axloq», «huquq» kabi tushunchalar unda yashovchi insonlarga xizmat qiladi, iqtisodiyot esa ko‘p ukladli xususiyat kasb etadi. Gegel ta’limotining bugungi kunda ham eng dolzarb bo‘lgan yana bir jihat shundan iboratki, u fuqarolik jamiyatiga uning tarixiy rivojlanish jarayonida din, axloq, oila va boshqa omillar ta’sirida uzoq vaqt davomida shakllangan yuksak daraja-dagi umumiyl va huquqiy madaniyat xosligini ko‘rsatadi.

Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi Gegel ta’limoti asosida inson, uning o‘rni, vazifasi va ijtimoiy holati yotadi. Uning fikricha, har bir shaxs faoliyati birinchi galda o‘z tabiiy va ijtimoiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday paytda inson xudbin shaxs yoki maxluq sifatida gavdalanadi. Ammo shaxs hayot kechirishi jarayonida o‘z ehtiyojini qondirish

¹ Qarang: Гегель. Философия права. – М., 1990. – С.228.

uchun boshqalar bilan munosabatga kirishmog‘i zarur bo‘ladi. Gegelning ta’limotidan shunday xulosa kelib chiqadiki, fuqarolik jamiyatida har bir shaxs o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va o‘sha maqsadga intiladi, ammo u jamiyatning boshqa a‘zolari bilan munosabatda bo‘lmay turib, ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasining etimologik ma’nosini tahlil qiladigan bo‘lsak, u nemis tilidagi «*Bürgerliche gesellschaft*» iborasining tarjimasi bo‘lib, undagi «*burger*» so‘zi ikki ma’noni, ya’ni «fuqaro» hamda «burjua» ma’nolari anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, «fuqarolik jamiyati» tushunchasi o‘sha vaqtida tabiiy ravishda shakllanib taraqqiy etgan «burjua jamiyati»ning mohiyatiga mos kelgan. Buni biz Gegelning quyidagi fikridan ham anglashimiz mumkin: «Fuqarolik jamiyati xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini tashkil etadi, unga raqobat va ma’muriy hokimiyat tomonidan boshqarilmaydigan jarayonlar orqali erishiladi»¹.

Shuning uchun ham «jamiyat» va «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini bir xil ma’noda tushunish, ularning mohiyatini tenglashtirish mumkin emas. Fuqarolik jamiyati shaxsning ijtimoiy munosabatlarda ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama faol ko‘rinishlarini qamrab oladi, uning erkinligi juda katta mehnatni talab etadi. «Fuqarolik jamiyati» «kishilik jamiyati»ga qaraganda: *birinchidan*, anchagina tor tushuncha; *ikkinchidan*, ko‘p yuz yillar «yoshroq»; *uchinchidan*, insoniyat tarixining taraqqiy etgan ma’lum bir bosqichida shakllana boshlagan; *to‘rtinchidan*, yuksak darajada taraqqiy etgan va mukammaldir.

Gegel sxemasi bo‘yicha, fuqarolik jamiyati bosqichiga o‘tish davrida hali to‘liq erkinlikka erishilgan bo‘lmaydi, chunki bu paytda xususiy manfaatlar to‘qnashuvi umumiyligi hokimiyat tomonidan ongli ravishda emas, balki tashqi omillar asosida tasodifan cheklanadi. Shu bois bunday jamiyatda qarama-qarshi manfaatlar to‘qnashadi, barchaning barchaga qarshi kurashi mavjud bo‘ladi. Gegelning fikricha, fuqarolik jamiyatining asosini ehtiyojlar tizimi, odil sudlov, politsiya va korporatsiya tashkil etadi. Shu bilan birga, u fuqarolik jamiyati tuzilishida uchta tabaqani ajratib ko‘rsatadi: 1) substansiya oid shaxslar (yer egalari – dvoryanlar va dehqonlar); 2) sanoatga oid shaxslar (fabrikantlar, savdogarlar, hunarmandlar); 3) umumiyligi shaxslar (amaldorlar).

Gegel fuqarolik jamiyatini ijtimoiy aloqalarning yuksak namunasi sifatida talqin etarkan, uni anarxiya va despotizmga qarshi qo‘yadi, – deb

¹ Qarang: Гегель. Философия права. – М., 1990. – С.228

yozadi akademik M. Sharifxo‘jayev. Gegelning fikricha, fuqarolik jamiyatining ikki muhim prinsipi mavjud: *birinchisi*, individlar o‘z xususiy manfaatlari bilan yashaydilar; *ikkinchisi*, ular o‘rtasida ijtimoiy munosabatlar qaror topadi, natijada odamlarning hayoti bir-biriga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shunday qilib, «fuqarolik jamiyatining asosini xususiy mulk bilan bog‘liq iqtisodiy tarkib va bozor munosabatlari tashkil etadi»¹, – deydi Gegel.

Gegel ta’limotining ustunlik tomoni shundaki, u, *birinchidan*, fuqarolik jamiyatini oddiy jamiyatdan ajratib ko‘rsatdi; *ikkinchidan*, fuqarolik jamiyatining davlat bilan aynan bir xil narsa emasligini ko‘rsatdi; *uchinchidan*, oila, davlat, jamiyat odamlarni uch darajada, ya’ni individual, maxsus hamda umumiy manfaat va ehtiyojlar asosida birlashtirishini asoslab berdi; *to‘rtinchidan*, fuqarolik jamiyatini shaxslar majmuasi va ular o‘rtasidagi munosabat, kishilar uyushmasi, birlashmasi va tashkilotlarining faoliyat sohasi sifatida ko‘rib chiqdi. Gegel xususiy mulk va shaxsiy erkinlik bilan bir qatorda, oshkoraliq, umumiy boxabarlik, huquqiy davlat ham fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari ekanligini ko‘rsatadi.

Gegel ta’limoti bo‘yicha, fuqarolik jamiyati davlatning siyosiy hokimiyatiga qaram bo‘lmagan xususiy shaxs, guruh va ijtimoiy institutlarning bir butun tizimidir. Ularning o‘zaro aloqasi esa huquq bilan tartibga solinib turadi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati, hatto davlatdan ajralib chiqqan taqdirda ham, uning uzviy qismi bo‘lib qolaveradi. Gegel fuqarolik jamiyatining turli elementlari uning boshqa bir qismiga zarar keltirmasligi uchun davlatning nazoratiga ehtiyoj sezadi deb, o‘zining yuqoridagi fikrini asoslab beradi. Shu ma’noda Gegelning ta’limoti tabiiy huquq konsepsiyasи tarafдорлари J. Lokk va J. J. Russoning fikrlariga qarshi chiqadi, chunki ularning qarashlariga muvofiq, davlat «amalga oshirilgan erkinliklar podsholigining tizimidir»¹.

Fuqarolik jamiyati g‘oyalari mashhur faylasuf I. Kant asarlarida ham o‘z aksini topgan. Uning yozishicha, «butun insoniyat oldida turgan buyuk muammo ... umumiy huquqiy fuqarolik jamiyatiga erishishdir». I. Kant jamiyatning hamma a’zolariga buyuk erkinliklar berilgan taqdirdagina tabiat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi mumkin deb hisoblaydi, ya’ni «inson o‘zidagi bor imkoniyatlarni ishga solishi mumkin, bunda tabiatdagi barcha maqsadlar o‘z-o‘zidan amalga oshmog‘i kerak. Shuning

¹ Qarang: Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.17.

¹ Гегель. Философия права. – М., 1990. – С.228.

uchun to‘liq erkinlikka erishilgan jamiyatda tashqi qonunlar bilan birga, majburlov choralari ham uyg‘unlashib ketadi, ya’ni mukammal adolatli fuqarolik tuzumi insoniyat uchun tabiatning oliy maqsadi bo‘lishi kerak, chunki tabiat bu maqsad va vazifani bajara borib, odamzodga qo‘yilgan boshqa maqsad va vazifalarni uddalay oladi. Odamlar bir-birlari bilan chiqisha olmasligining sababi esa ularning erkinlikka o‘zboshimchalik bilan munosabatda bo‘lishlari, ya’ni tabiat va jamiyat qonuniyatlariga amal qilmasliklaridir. Ammo, I. Kantning fikricha, ma’lum bir cheklangan makonda, ya’ni fuqarolik jamiyatida odamlar daraxtlar kabi o‘zaro bemalol chiqishib yashay oladilar. Masalan, o‘rmonda daraxtlar bir-biridan havo va quyosh nurini qizg‘anib, yanada yuqori ko‘tariladi va chiroyli hamda to‘g‘ri bo‘lib o‘sadilar, erkinlikda o‘sgan daraxtlar esa o‘z shoxlarni xohlaganday chiqaradi, shuning uchun tarvaqaylab va egri-bugri bo‘lib o‘sadi. Insoniyatni bezab turgan madaniyat va san’at eng yaxshi ijtimoiy tuzilmalar –odamiylik mevalari bo‘lib, ular o‘z tabiatiga ko‘ra insonni o‘zini o‘zi intizomli qilishga olib keladi va shu sababli majburlash san’ati orqali tabiat bergen zehnni to‘liq rivojlantiradi»¹.

I. Kantning fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi fikrlarini o‘rganar ekanmiz, shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, u erkinlik to‘g‘risida so‘z yuritganda asosiy e’tiborni huquqqa qaratadi. Uning fikricha, huquqsiz jamiyat mavjud bo‘la olmaydi va to‘liq rivojlanma olmaydi. Xuddi shunday davlat ham o‘z ichki ijtimoiy munosabatlarini huquq bilan tartibga soladi.

XVIII asrga kelib «fuqarolik jamiyati» tushunchasi falsafa, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik va huquq sohalarida alohida atama sifatida ishlatila boshlandi. Ungacha esa «davlat» va «jamiyat» tushunchalari bir xil ma’nda tushunilib, bir butun voqelik deb hisoblab kelingan. Ammo keyinchalik ham ushbu tushunchalar o‘rtasidagi farq prinsipial jihatdan to‘liq ajratib ko‘rsatilmadi. Ularni bir-biridan ajratib o‘rganish juda ham murakkabdir, chunki davlat jamiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bundan ijtimoiy va davlat hokimiyyati tuzilmalari, mexanizmlari to‘liq bir-biriga o‘xshash degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Davlat va jamiyatni bir-biridan ajratib turgan chegarani aniq belgilash va uning biri ikkinchisiga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, uning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi haqida zarur ilmiy nazariyalarni yaratish uchun

¹ Кант. И. Соч. В 6-х. т. Т.6. – М., 1963-1966. – С.5; Кант. И. Идея всеобщей истории во всемирно-гражданском плане // Философия истории: Антология. – М., 1995. – С.61–62.

uzoq muddat kerak bo‘ldi. Fuqarolik jamiyati deganda, avvalo, uning eng muhim sohalaridagi ijtimoiy munosabatlar, ya’ni davlatdan ma’lum bir darajada mustaqil bo‘lgan mulkchilik, bozor, oila va axloq munosabatlari tushunilgan. Bunday ma’noda fuqarolik jamiyati uning tarkibiy qismi bo‘lgan davlatning rasmiy institutlardan tashqarida bo‘lgan, ular nazoratida bo‘lmagan hayot sohalarini, ya’ni alohida shaxslar, ularning birlashmalari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, xususan, tovar ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlar majmuidan iborat bo‘lgan. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati deganda, shaxsning «fuqaroviylariga», insonlarning shaxsiy hayotiga, ijtimoiy muhitdagi erkin tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka davlat hokimiyati aralashmaydigan ijtimoiy tizim tushuniladi. Bu yerda davlat faqat tungi qorovullik (mirshablik), hakamlik, nazoratchilik vazifasini bajarishi kerak. Bunda fuqarolik jamiyati bozor munosabatlari va faoliyatning boshqa shakllariga xos munosabatlarning sinonimi sifatida tasavvur etiladi, ya’ni rasmiy hokimiyat bu yerda ishtirok etmasligi kerak¹.

Davlat va fuqarolik jamiyatining munosabati hozirgi zamonda ham eng dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Huquqiy adabiyotlarda bugungi kunda ochiq davlat konsepsiysi ilgari surilmoqda. Unga asosan, fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining bir vaqtda shakllanib borishida namoyon bo‘ladi. Bunday mazmundagi davlatning ochiqligi jamiyat va uning rivojlanishiga yordam ko‘rsatishdir. Chunki fuqarolik jamiyatini tuzib yoki o‘rnatib bo‘lmaydi, lekin uning shakllanishi va rivojlanishini (jumladan qonunchilik asosida) rag‘batlantirib borish zarur².

G‘arb mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati, uning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi ta’limotlariga tayangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, bunday jamiyatda u yerda yashayotgan barcha insonlarning hayot tarzi yetarli darajada yuksak bo‘ladi, doimo taraqqiyot, barqarorlik va farovonlik hukm suradi. Aksincha, kambag‘al, qashshoq, qoloq jamiyat hech qachon fuqaroviylar maqomini ololmaydi, chunki bunday mamlakatda insonlarning tinch va osoyishta hayot kechirishi, jamiyatning o‘zi esa gullab yashnashi, taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan sharoit va imkoniyatlar mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan hamma

¹ Матузов Н.И. Гражданское общество: сущность и основные принципы // Правоведение. –1995. – №3. – С.84–85.

² Qarang: Открытое государство: политico-правовое видения // Государства и права. – 2003. – №10. – С.61.

jamiyat ham fuqarolik jamiyatini bo‘la olmaydi. Fuqarolik jamiyatida hech qachon davlat va davlat organlarining barcha narsadan ustuvor bo‘lishiga, ijtimoiy boshqaruvda boshboshdoqlig (xaos, anarxiya) va huquqiy nigliizmga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bugun O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy masalalarini tadqiq etish birinchi navbatda o‘zbek xalqining turli ijtimoiy fanlar sohasida o‘z asarlari bilan butun jahonga mashhur bo‘lgan ajdodlari merosini, xususan adolatli jamiyat haqidagi ta’limotlarini o‘rganishni talab qiladi. «Bizning yurtimizda o‘tmishi ulug‘ bo‘lgan buyuk xalq yashaydi, bizning ajdodlarimiz dunyodagi qadimiylari va boy sivilizatsiyani yaratgan»¹. Sharqning ulug‘ allomalari asrlar davomida fuqarolik jamiyatini bilan bog‘liq muammolar xususida hamisha bosh qotirganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib va boshqa qomusiy aql egalarining siyosiy-falsafiy ta’limotlarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bog‘liq qator siyosiy-huquqiy g‘oyalar ifodasini topgan². Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, buyuk ajdodlarimiz ta’limotlarida insonning erki, huquqi, axloqi, jamiyatda adolatni qaror toptirish, hukmdorning odil inson bo‘lishi, odil hukm chiqarishi, odil hukmdorga xos fazilatlar, xalq itoati va adolatli davlat fuqarolik jamiyatiga daxldor masalalarning o‘ziga xos sharqona uslubda yoritilganligi va ular bugungi kunda ham nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

«Buyuk ajdodlarimizning keng qomusiy bilim, g‘oya va fikrlarini o‘zida mujassam etgan, bugungi kunda ham ilmiy va insoniy qadr-qimmatini yo‘qotmagan boy va bebaho merosning hozirgi o‘ta murakkab va tahlikali zamon oldimizga qo‘yayotgan ko‘pgina o‘tkir, og‘ir masala va muammolarning yechimini topish, dinimizning asl ma’no-mohiyatini xolisona talqin va targ‘ib qilish, katta umid bilan hayotga kirib kelayotgan yosh avlodga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyos, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi»³.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida adolatli jamiyat qurishning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatlari o‘ziga xos sharqona tarzda

¹ Каримов И.А. Инсон унинг ҳукуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.69.

² Qarang: Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.4.

³ Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б.277–278.

yoritib berilgan. U davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, shuningdek xalqning rasmu odatlarini, axloqini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnama – qomusdir¹. Ushbu asarda davlatchilik va adolatli jamiyat yaratishning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy va huquqiy konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Xususan, asarda davlatni boshqaruvchi shoh (bek), vazir, sarkardalar, sipohsolorlar, hojiblar (davlat maslahatchilari), shoh gvardiyasi – qo‘riqchilar, elchilar, kotiblar, xazinachi va boshqa saroy xizmatchilari qanday sifatlarga ega bo‘lmog‘i, xalq bilan qanday munosabatlarda bo‘lishi zarurligi batafsil bayon etilgan. Yusuf Xos Hojibning fikricha, shoh oqil, zakovatli, ma’rifatli, yoshlarga tayanuvchi, adolatparvar, xalqiga sadoqatli, zo‘r irodali, yuksak farosatli, ezgu ishlarga moyil, davlatni, xalqni boshqarishda mohir bo‘lishi lozim. Saroy ahli, xizmatchisi, avvalo, oddiy fuqaro bilan munosabatga kirisha olishi kerak, fuqarolar bilan munosabatda bo‘lganida juda xushmuomala bo‘lishi shart. Fuqaroning moddiy manfaati qondirilsagina, u intizomga bo‘ysunadi. Donishmandlar esa adolatli davlat va haqiqat tayanchidirlar. Haqiqatni istagan shoh ulardan yo‘l-yo‘riq, maslahat so‘rashi, yoniga tortishi kerak. Ular davlat va jamiyatni saodatga eltadilar. Hunarmandlar davlat va xalqning hojatini chiqaradilar. Davlatning xalq bilan munosabatiga qarab u to‘g‘rida yaxshi yoki yomon deb xulosa chiqaradilar².

Yusuf Xos Hojib ilgari surgan ma’rifatli, ezgulikka asoslangan, saodatni ko‘zlovchi adolatli davlat va jamiyat qurish g‘oyasining negizida esa ilm, ma’rifat, xalq bilan birga bo‘lish, uning saodati yo‘lida xizmat qilish g‘oyalari yotadi³. «Ilumiz o‘zim, – deydi Yusuf Xos Hojib Kuntug‘di (o‘zi orzu qilgan hukmdor) tilidan, – bu qamug‘ el ishini. Mengar er kerak bir bilur ish bashin, kerak bir mengar emdi o‘drum kishi. Uqushlug‘, bilinglik kishilar bashi» (Yolg‘iz o‘zim el ishini qila olmayman. Menga ish ko‘zini biladigan kishilar kerak. Endi menga sara bir kishi lozim. Zakovatli, bilimli, kishilar boshi bo‘lsin)⁴. Ushbu fikrlarda «sharqcha jamoatchilikka (hozirgi istilohda demokratlikka) intilish bor. So‘ng maslahatchilikka da’vogar kishilar zakovatli, ilmli va rahbarlik san’atini egallagan sifatlari bo‘lishligi uqtiriladi. Sharqona tafakkurga xos bo‘lgan bu uch kategoriya «Qutadg‘u bilig»da qayta-qayta takrorlanadi. Buning siri shuki, boshqaruv ilmida Sharq ko‘proq intellektual kuchga tayanadi. Shu sababli

¹ Qarang: *Каримов К.* Илк бадиий достон. – Т., 1976. – Б.7.

² *Юсуф ХосХожиб.* Кутадғу билиг. – Т., 1971. – Б.330–665.

³ *Ёқубов А.* «Кутадғу билиг»да давлатчилик концепцияси. – Т., 1997. – Б.11.

⁴ *Юсуф ХосХожиб.* Кутадғу билиг. – Т., 1971. – Б.661–662.

Sharq ijtimoiy hayotida «inqilobiy sakrashlar» kuzatilmaydi. Natijada Sharq mintaqasida ijtimoiy hayot tadrijiy rivojlanib keldi¹.

Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat qurish haqidagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O‘z zamonasida «Muallim assoniy» («Ilkinchi muallim») unvoniga sazovor bo‘lgan Abu Nasr Forobiy (873–950) falsafadan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy masalalarga oid «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Siyosat al-madaniya» («Shaharlar ustidan siyosat yuritish»), «Baxt-saodatga erishuv haqida» kabi asarlar yozgan.

Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi siyosiy-huquqiy ta’limotlari negizida shunday jamiyatni boshqarish mas’uliyati zimmasiga yuklatiladigan davlatning eng yuqori martabali rahbarlari va amaldorlarida, shuningdek ularning atrofidagi mas’ul shaxslarda mujassamlanishi zarur bo‘lgan hamda davlat va jamiyatning adolatli boshqarilishini ta’minlaydigan har tomonlama mukammal insoniy fazilatlar yotadi. Uning fikricha, shahar raisi (malik) chuqur idrok etish, mustaqil fikrlash, boshqarish, iste’dod va malakasiga qarab har bir kishiga munosib vazifa berish, ulardan samarali foydalanish, kerakli qarorlar qabul qila olish, xalqni baxtli qila olish yo‘llarini bilish kabi quvvatlarga ega bo‘lishi zarur. Olimning fikricha, adolatli davlat va jamiyat hikmat bilan boshqariladi. Umuman, Abu Nasr Forobiy adolatli davlat va jamiyatni boshqarishda shoh o‘n ikki quvvat, fazilatga (Yusuf Xos Hojib ham shuncha xislatni ko‘rsatgan) ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Shahar aholisi ixtiyor o‘zida bo‘lgan insonlar guruhi bo‘lsa, shahar ularning ixtiyorini namoyish qiladigan va faoliyatları shukuhini ko‘rsatadigan markazdir. Shahar aholisi boshqaruvga ixtiyoriy bo‘ysunadi, chunki bunday boshqaruv aholini o‘zi qabul qilgan qonunlar vositasida ma’qul yo‘lga, baxt-saodatga boshlaydi. Rais esa odamlarga ikki majburiyat yuklaydi: birinchisi – barcha uchun teng bo‘lgan umumiy majburiyat, ikkinchisi – mansabdar bilan aholi, hunarmandlar o‘rtasidagi majburiyat. Ushbu majburiatlarning to‘liq bajarilishi baxt-saodatga eltadi².

Abu Nasr Forobiyning jamiyatni boshqarish uchun mas’ul bo‘lgan amaldorlar, *birinchidan*, har bir jamiyat a’zosi bilan teng bo‘lgan umumiy majburiatlarga egaligi; *ikkinchidan*, boshqaruvni amalga oshirish jarayonida ular bilan aholi o‘zaro majburiatlarga egaligi; *uchinchidan*,

¹ Ёқубов А. «Қутадғу билиг»да давлатчилик концепцияси. – Т., 1997. – Б.61.

² Форобий Абу Наср. Фазилат, баҳт-саодат ва камолат ҳакида. – Т., 2002. – Б.22–29.

yuqoridagi majburiyatlarning to‘liq bajarilishi jamiyatni baxt-saodatga olib kelishi haqidagi fikrlari hozir biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan asosiy prinsip – «davlatning fuqarolar va fuqarolarning davlat oldidagi javobgarligi» prinsipini ta’milashga to‘liq mos keladi, desak adashmaymiz.

Abu Nasr Forobiyning adolatli davlatni boshqarishga bog‘liq g‘oyalarda boshqaruvni amalga oshiruvchi amaldorlar turli suiiste’molliklarga yo‘l qo‘ymasliklarining asosiy omillari haqidagi fikrlarni ham uchratamiz. Xususan, uning fikricha, shahar idorasida ikki qoidaga: 1) shahar raisiga yaqin yoki uning yonida xizmat qilayotgan kishilarda yuqorida aytib o‘tilgan o‘n ikki fazilatning mavjud bo‘lishi; 2) shahar a’zolari bajaradigan faoliyat turlari ularning har birida mavjud fazilatlarni inobatga olingan holda belgilanishiga amal qilish kerak¹.

Bundan tashqari, Abu Nasr Forobiy shaharni boshqarishda amalga oshiriladigan ishlarning, *birinchidan*, afzalligi yoki ahamiyatiga; *ikkinchidan*, foydalilik darajasi va unga bo‘lgan ehtiyojga; *uchinchidan*, uning murakkabligi yoki osonlik xususiyatiga asosiy e’tibor qaratilishi kerakligini ko‘rsatadi². Fozil shaharni boshqarish haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy bunday shahar raisi uchun zarur bo‘lgan 12 ta xislat hech qachon bir kishida mujassam bo‘lishi mumkin emasligini biladi. Shuning uchun ham u fozil shaharda boshqaruvni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lgan ikki yoki undan ham ko‘p kishilar nomzodlarini shahar hokimligiga qo‘yishni taklif etadi³. Abu Nasr Forobiyning bu fikrlari bevosita jamiyatni huquqiy demokratik tarzda boshqarishga oid talablarga mos keladi.

O‘rtalarda yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlar Nizomulmulk, Kaykovus va Zaxiriylarning siyosiy-huquqiy qarashlarida adolatli davlat va farovon jamiyat, bunday davlat va jamiyatni boshqaruvchi insonparvar, odil va xalqparvar shoh haqidagi fikrlar mavjudligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ushbu mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini olim R. Sh. Sotivoldiyev batafsil o‘rgangan⁴. Yuqorida nomlari zikr etilgan mutafakkirlarning asarlarida ham adolatli davlat qurish, farovon jamiyat

¹ Qarang: *Форобий Абӯ Наср*. Фазилат, бахт-саодат ва камолат хақида. – Т., 2002. – Б.30.

² Qarang: Ko‘rsatilgan manba. – В.31.

³ Qarang: *Форобий Абӯ Наср*. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993. – Б.160–161.

⁴ Qarang: *Сативалдиев Р.Ш.* Политическая и правая мысль раннесредневекового мусульманского Востока. – Душанбе, 1999.

barpo etish, eng avvalo, davlat tepasiga adolatparvar, xalqparvar, ma'rifatparvar, davlatni boshqarishda bilimli va boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan mutafakkirlarning fikr-mulohazalari va maslahatlariga tayanib ish ko'radigan shaxsning kelishi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Sharq ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ta'limotlarida adolatparvar hukmdor g'oyasi markaziy o'rin tutadi¹.

Sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlarida xalqning ahvolini yaxshilash, davlat va jamiyatni boshqarish, jinoyat va jazo, deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy masalalarning hal etilishi ideal shoh bilan bog'lab qaraladi. Ayni paytda, mutafakkirlar shoh bilan raiyat (xalq) o'rtasidagi aloqalarni ham unutmaganlar².

Mutafakkir Nizomulmulkning fikricha, podshohning davlatni boshqarishda barcha ishlarni maslahat bilan amalga oshirishi uning ma'rifatli, mustahkam irodali, oqil va keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs ekanligini bildiradi. Har bir kishi ma'lum bir narsa haqida ko'proq yo kamroq biladi. Agar podshoh biror ishni amalga oshirmoqchi yoki qandaydir zaratni hal etmoqchi bo'lsa, u albatta dono qariyalar va ulug'lar bilan mashvarat hamda kengash qilmog'i lozim. Har birlari o'z fikrlarini bildirib, podshoh ra'yi bilan solishtirib, bir-birlarining fikrlarini eshitib va har tomonlama o'yab, keyin o'rtada ma'qullangan fikrni tanlaydilar. Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak³.

Sharqona huquqiy demokratik davlatning o'ziga xos jihatlari va bu boradagi qarashlar Amir Temur (1336–1405) hayoti va faoliyatida, uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarida yana ham mukammalroq aks etgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, u «turkiy davlatchiligidan tarixida islam mafkurasiga asoslangan teokratik davlatning o'ziga xos demokratik shaklini yaratdi va unga amal qildi. Temurning markazlashgan mutlaq hokimlikka asoslangan prinsiplari huquqiy davlatchilik unsurlari – kengash, mashvarat, qurultoy kabilalar bilan uyg'unlashgan edi»⁴. Sohibqiron o'zining mashhur «Tuzuk»larida shunday deb yozadi: « ... Har ishni kengashgan holda qildim. Har vaqt kengashchilar yig'ilib, majlis ochilar ekan, yaxshi-yomondan, foyda-ziyondan, oldimizdagи ishlarni qilish-qilmaslikdan so'z ochib, ulardan fikr so'rар edim. ... Davlat ishlaringning to'qqiz

¹ Qarang: История политических и правовых учений. – М., 1999. – С.140.

² Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б.45.

³ Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сиёр ул-мулк. – Т., 1997. – Б.36–37.

⁴ Бобоев X, Норматов К. Куч-кудрат – адолатдадир (Амир Темурнинг сиёсий-ҳуқуқий қарашлари ва ҳозирги давр). – Т., 2001. – Б.4–5.

ulushi kengash, tadbir va mashvarat (maslahat), qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim»¹. Amir Temurning siyosiy-huquqiy ta’limotida bugun ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgan g‘oyalardan biri – davlatni boshqarishda ijtimoiy fikrga tayanish. Uning o‘zi davlatni boshqarish ishlarini amalga oshirishda fozilu ulamolarni, din ahlini, shoiru donishmandlar hamda hunarmandlarni maslahatga chaqirib, u yoki bu amallarda suhbat qurgan, ularga maslahat solgan. Shu bilan birga, u bajariladigan ish uchun amaldorlarning, shu jumladan o‘zining javobgarligini alohida qayd etgan. Ayniqsa, u islom dinini targ‘ib qilish va himoya etish, davlatni mustahkamlash, xalq farovonligini ta’minalashga, eng avvalo, davlat boshlig‘i mas’ul ekanligini aytgan. Amir Temur o‘z «Tuzuk»larida yana shunday yozadi: «Men o‘n ikki narsani o‘zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o‘n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabit etib, saltanatni boshqardim va saltanat taxtiga zebu ziynat berdim. Ana shu o‘n ikki narsadan ikkinchisi davlat ustunlarini tashkil etib turgan tabaqalar va toifalar bilan davlatni boshqarish siyosati bo‘ldi»².

XVI asarda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlar ma’lum darajada Mavlono Muhammad Qozining (1499–1551) «Hukmdorga o‘gitlar» asarida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Alloma ushbu asarida podshoh uchun zarur bo‘lgan o‘n xislatni sanab o‘tadi. Ularda podshoh o‘ziga mamlakatning bir a’zosi sifatida qarashi, mo‘minlar hol-ahvoldidan xabardor bo‘lib, ularga saxiylik, muruvvat ko‘rsatishi, din ulamolarini maslahatga chorlashi, zarur bo‘lsa yurtni qilich bilan himoya etishi kerakligi uqtiriladi. Nasihat tarzida yozilgan ushbu asarda burchni bajarish vojibdir, deyiladi. Hukmdor orif odamlarga yaqinlashishi, johil va fosiqlardan uzoqroq bo‘lmog‘i zarur³.

Adolatli davlat va uni boshqarishga aqlu idrok va ilmu tafakkur nuqtai nazaridan yondashish Ahmad Donishning qarashlarida ham aks ettirilgan. Ahmad Donish (1827–1897) «agar adolatli davlat aql, ong prinsiplariga muvofiq tarzda tashkil etilmasa va boshqarilmasa, unday davlatdan yaxshilik kutish mumkin emas»⁴, – deb ta’kidlagan. U Sharq allomalari va mutafakkirlari ilgari surgan va oqil hukmdorlar amal qilgan adolatli davlatni ilm-ma’rifat ahliga tayanib boshqarish g‘oyasini davom ettirdi⁵.

¹ Темур тузуклари. – Т., 1996. – Б.25.

² Ko‘rsatilgan manba. – В.68–69.

³ Qarang: *Мавлоно Муҳаммад Қози. Ҳукмдорга ўгитлар*. – Т., 1999. – Б.27–28.

⁴ Дониш А. Наводир ул-вақоे. – Т., 1964. – С.125.

⁵ Qarang: *Дониш А. Путешествие из Бухары в Петербург*. – Душанбе, 1976. – С.193–194.

Ahmad Donishning fikricha, davlat rahbari, amir 10 ta xislatga ega bo‘lishi, jumladan xalqning holidan xabar olib turishi, maslahatlashib davlatni boshqarishi, saroy a’yonlarini, ayniqsa, boshqarish ishiga noqobilarni davlat ishlaridan chetlatishi, hammaning mehnat qilib kun ko‘rishini ta’minlashi zarur. U hatto amir bilan birga xalq ichidagi oqil odamlardan maxsus Kengash tuzib, davlatni adolatli idora etish prinsipini yoqlab chiqdi, xalq zo‘ravonlikka asoslangan davlatga qarshi chiqishi, uni taxtdan ag‘darish ham mumkinligini e’tirof etdi¹.

Sharq mutafakkirlari «adolatli jamiyat» deb e’tirof etgan «fuqarolik jamiyat» va u bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy ta’limotlarda jamiyatda adolat, tenglik, tinchlik, farovonlik, ilmu-ma’rifat qaror topishiga umid qildilar². Alisher Navoiy, Jomiy, Umar Hayom, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd, Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Furqat, Avaz O’tar, Anbar Otin kabi buyuk Sharq mutafakkir va ijodkorlari ham o‘z asarlarida u yoki bu darajada adolatli jamiyat, xalqparvar davlat va uning hukmdori, ularga xos bo‘lgan xususiyatlar hamda fazilatlar, jamiyat va davlatni boshqarishning inson-parvar usullari haqidagi g‘oyalarni ilgari surishgan.

Qadimda yashab o‘tgan Sharq mutafakkirlari va allomalarining ta’limotlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatining maqsad va vazifalari aholining hamma ijtimoiy qatlamlari farovonligini ta’minalash, fuqarolarning turmush (ijtimoiy-iqtisodiy) darajasini oshirishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiy munosabatlarning turli sohlaridagi ehtiyojlarini qondirish va shu orqali shaxsning ijodiy imkoniyatlarini oolib berib, uni tatbiq etishiga ko‘maklashishdan iborat. Shuning uchun ham «bizga hamisha ma’naviy kuch-quvvat beradigan milliy qadriyatlarimiz, boy tarix va madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimizning qoldirgan bebahो merozi, dinu diyonatimizni ko‘z qorachig‘iday asrab avaylab, e’zozlab, ertangi kunga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini o‘z amaliy ishlarimiz bilan yanada mustahkamlashimiz lozim»³.

¹ Qarang: Рзаев К. Туси, Тошкулов Д. Дошиш. – М., 1990. – С.99–117.

² Qarang: Ҳайруллаев М.М. Культурное наследие и история философской мысли. – Т., 1985; Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳукуқи тарихи. – Самарқанд, 1998; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2000.

³ Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б.249.

1.3. Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos belgilar va xususiyatlari

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi paydo bo‘lganidan to hozirgi kungacha bunday jamiyatning mohiyati va mazmunini to‘liq ochib berish uchun uning belgilariga murojaat qilishadi. Darhaqiqat, fanda har qanday tadqiqot obyektini o‘rganishda albatta unga xos bo‘lgan belgilar aniqlanadi va shu belgilar asosida unga tavsif beriladi.

Bundan tashqari, tadqiqot obyekting belgilarini unga o‘xhash boshqa obyektlarning belgilarini bilan qiyoslash ularning bir-biridan farqi hamda o‘zaro o‘xhash va bog‘liq tomonlarini batafsил yoritishga imkon beradi.

Fuqarolik jamiyatining belgilarini o‘rganish bizga, *birinchidan*, uning mazmun va mohiyatini to‘liq ochib berishga, *ikkinchidan*, uning davlat, xususan huquqiy davlat bilan munosabatini aniqlashga, *uchinchidan*, O‘zbekistonda rivojlantirilayotgan fuqarolik jamiyatining nazariy asoslarini yaratishga, *to‘rtinchidan*, bunday fuqarolik jamiyatiga ilmiy tavsif berishga yordam beradi.

Huquqiy va boshqa adabiyotlarni o‘rganish fuqarolik jamiyati belgilarini tushuntirishda olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘qligini ko‘rsatdi. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgilarini ko‘rsatish bilan chegaralanishgan¹, ikkinchi guruh olimlar huquqshunoslikning klassik nazariyasi, ya’ni Gegel ta’limotiga asoslangan holda jamiyat hayotining asosiy sohalari bo‘yicha fuqarolik jamiyatining belgilarini alohida guruh-larga ajratib o‘rganishgan², uchinchchi bir guruh olimlar esa fuqarolik jamiyatining asosiy belgilarini ko‘rsatish bilan birga, bunday jamiyatga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni ham batafsil tadqiq etishgan³.

¹ Qarang: Қаюмов Р.К., Тультеев И.Т. Ўзбекистон Республикаси конституциявий хуқуқи. – Т., 2001. – Б.40; Schmitter C. «Society», in National Research Council, The Transition to Democracy: Proceeding of a Workshop (Washington, D. C.: National Academz Press, 1991). –Р. 16–25, 20.

² Qarang: Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б.12–13; Гражданское общества и правовое государство: предпосылки формирования. / Под. ред. Г.Н. Манова. – М., 1991. – С.7–8; Исламов З. Общество. Государство. Право. – Т., 2001. – С.42–49; Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.10.

³ Qarang: Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Б. Бобоев, Ҳ.Т. Одилқориев. – Т., 2000. – Б.462; Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.171.

Huquqshunos olimlar R. Q. Qayumov va I. T. Tulteyevlar fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi – inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, orzularini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir, deb yozishadi. Ular quyida-gilarni fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari deb ko‘rsatishadi: 1) ko‘ppar-tiyaviylik; 2) siyosiy hayat va siyosiy institutlar; 3) mafkura va fikrlar xilma-xilligi; 4) o‘zini o‘zi boshqarish organlari mavqeining balandligi; d) jamiyatni boshqarishda qonun ustunligi; j) ommaviy axborot vositalarining mavqeい. Bunday jamiyatdagi ma’naviy hayat umumbashariy qadriyatlar asosida amalga oshirilishi, bir qancha vazifalar davlatdan mahalliy hokimiyat organ-lariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organ-lariga topshirilganligi, insonning muqaddasligi, erkinligi, qonun oldida tengligi, ijtimoiy adolatning to‘liq qaror topganligi bilan xarakterlidir¹.

Huquqshunos olim H. T. Odilqoriyev ham xuddi shu belgilarni fuqa-rolik jamiyatining asosiy belgilari deb ko‘rsatib o‘tsa-da, lekin u siyosiy hayat va siyosiy institutlarni, mafkura va fikrlar xilma-xilligini alohida-alohida belgilar sifatida ajratmaydi².

Fuqarolik jamiyati mavzusida tadqiqotlar olib borgan amerikalik olim S. Shmitter: 1) shaxsning aholi guruhlari va davlatdan mustaqilligi; 2) tash-kiliy yaxlitlik, bir butunlik; 3) davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqlarga asoslangan «korporativlik»; 4) liberallashish bilan bog‘liq jara-yon yoki hodisa; d) demokratik natijalar ta’sirida avtokratiyaning despotik kuch sifatida zaiflashuvini uning alohida belgilar sifatida ko‘rsatadi³.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ayrim huquqiy adabiyotlarda fuqa-rolik jamiyati belgilarini asosiy hayat sohalari bo‘yicha guruhlarga ajratib tushuntirishga harakat qilinadi. Rossiyalik huquqshunos olim G. N. Manov tahriri ostida chop etilgan manbada fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalar bo‘yicha ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu manba mualliflarining fikricha, fuqarolik jamiyati xususiy mulk asosida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Bu esa fuqarolik jamiyati tizimlarining davlat va xalq hokimiyatchiligidagi nisbatan mustaqil shakllanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishiga olib kelgan.

¹ Qarang: Қаюмов Р.Қ., Тультееев И.Т. Ўзбекистон Республикаси конститу-циявий хукуқи. – Т., 2001. – Б.40.

² Qarang: Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.172–173.

³ Qarang: Schmitter C. «Society», in National Research Council, The Transition to Democracy: Proceeding of a Workshop (Washington, D. C.: National Academz Press, 1991). P.16–25, 20.

Huquqiy davlat o‘z faoliyatida uchta funksiyani amalga oshiradi: 1) qonunchilik; 2) ijro etish; 3) sudlov. Bular fuqarolik jamiyatini uchta mustaqil, ayni vaqtida o‘zaro bog‘liq hokimiyatga ajratadi. Fuqarolik jamiyatining ma’naviy sohasida umumiyligini qadriyatlarning ustunligi ajralib turadi. Chunki insonlarning qonun oldida tengligi – ularning ijtimoiy kelib chiqishi, mansabi, millati, dinidan qat’i nazar – fuqarolik jamiyatida barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar ochib beradi¹.

Huquqshunos olim Z. M. Islomov ham fuqarolik jamiyatiga xos belgilarni iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalar bo‘yicha ajratib tushuntiradi. Uning fikricha, xususiy mulk fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi².

Ko‘pgina olimlar bugunga kelib jamiyatda fuqarolik jamiyatiga xos belgilar shakllanganligini qayd etadilar. M. Qirg‘izboyev fuqarolik jamiyatiga xos belgilar shakllanganligini dalillar bilan asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, *iqtisodiy sohasida* – nodavlat tashkilotlar, kooperativ-shirkatlar, ijara jamoalari, aksiyadorlik jamiyatlari, uyushmalar, korporatsiyalarning faoliyat ko‘rsatayotganligi; *ijtimoiy sohasida* – oila, siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlari va harakatlar, ish va yashash joylaridagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartiblari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligi; *ma’naviy sohada* – so‘z, vijdon va fikrlar erkinligi, o‘z fikrini ochiq bildirishning real imkoniyatlari, ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatdan ta’minlanganligi hozirgi davrda O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan borayotganligini isbotlamoqda³.

Huquqshunoslikning klassik nazariyasi (Gegel ta’limoti)da ham fuqarolik jamiyatining uchta asosiy belgisi, ya’ni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy belgilari qayd etiladi. Bu asosiy belgilar qayd etilgan davrda hech bir davlatda hozirgi ma’nodagi Konstitutsiya va huquqiy manbalar bo‘lmagan. Insoniyat o‘z demokratik tamaddun rivojida hayotini aniq konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarda belgilashdek qadriyatni ixtiro etdi. Hozirgi demokratik dunyoni mazkur qadriyatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ushbu demokratik omil fuqarolik jamiyatining to‘rtinchi asosiy belgisini keltirib chiqardi.

¹ Qarang: Гражданское общества и правовое государство: предпосылки формирования / Под ред. Г.Н. Манова. – М., 1991. – С.7–8.

² Qarang: Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т., 2001. – С.42–49.

³ Qarang: Қирғизбоеев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б.12–13.

Akademik M. Sharifxo‘jayev bugungi kunda fuqarolik jamiyatiga to‘rtta asosiy belgi xosligini ta’kidlab, ularni quyidagicha izohlaydi. Fuqarolik jamiyatining *birinchi*, ya’ni bosh asos-belgisi – xususiy mulkka asoslangan iqtisodiyot. Xususiy mulk faqat ochiq, botinan rivojlanishga qodir, siyosiylashmagan, har qanday mafkura monopolizmidan holi jamiyatdagi shakllanadi, mavjud bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati mustaqil ishlab chiqaruvchi, mustaqil xaridor hamda mustaqil va ozod fuqarolar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyatining *ikkinci*, ya’ni siyosiy asos-belgisini ko‘ppartiya-viylik, nodavlat va jamoat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tadbirkorlar, mustaqil jamoat uyushmalari ta’minlaydigan plyuralizm – siyosiy-g‘oyaviy qarashlarning xilma-xilligi tashkil etadi. Ommaviy axborot vositalari esa fuqarolik jamiyati siyosiy asos-belgisi tizimida alohida siyosiy-ijtimoiy, g‘oyaviy-tashviqiy maqom kasb etadi. Fuqarolik jamiyatining *uchinchi*, ya’ni ma’naviy asos-belgisi erkinlik, qonunlar olidida barchaning tengligi, ijtimoiy adolat kabi umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, akademik M. Sharifxo‘jayev nazariyaga konstitutsiyaviy-huquqiy asos-belgi atamasini birinchi bo‘lib fuqarolik jamiyatining *to‘rtinchi* belgisi sifatida kiritdi¹.

Respublikamizning yetuk huquqshunos olimlari jamoasi tomonidan chop etilgan «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan asosiy belgi va xususiyatlар yana ham kengroq berilgan. Unda: iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlari; inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so‘zsiz e’tirof etish va muhofaza qilish; hokimiyatning qonuniyligi va demokratik tabiat; qonun va odil sudlov oldida barchaning tengligi, shaxsning ishonchli huquqiy himoyalanganligi; hokimiyatlarning bo‘linishi va o‘zaro hamkorlikda ishlashiga asoslangan huquqiy davlat, siyosiy va mafkuraviy fikrlar xilma-xilligi, oshkora muxolifatning mavjudligi; so‘z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi; davlatning fuqarolar xususiy hayotiga aralashmasligi, ularning o‘zaro majburiyat va mas’uliyati; sinflararo totuvlik, sherikchilik va milliy ahillik; odamlarning munosib hayot darajasini ta’milovchi ta’sirchan ijtimoiy siyosatning mavjudligi fuqarolik jamiyatining belgilari sifatida ko‘rsatilgan².

Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining nazariy asoslarini yaratishda o‘zining munosib hissasini qo‘sib kelayotgan

¹ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т., 2003. – Б.10–14.

² Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Масъул мухаррирлар: Ҳ.Б. Бобоев., Ҳ.Т. Одилқориев. – Т., 2000. – Б.462.

huquqshunos olim H. T. Odilqoriyev bunday jamiyatning asosiy belgilarini sanab o'tish bilan birga, unga xos bo'lgan xususiyatlarni yana ham to'liqroq va kengroq tushuntirib berishga harakat qiladi. Fikrimizcha, olim tomonidan taqdim etilgan fuqarolik jamiyatining belgilari uning mazmuni va mohiyatini to'liqroq yoritishga imkon beradi. Muallifning «Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati» monografiyasida fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy belgi va xususiyatlarni ko'rsatib o'tilgan:

- jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo'lishi. Mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi;
- jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi;
- xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida o'rinni tutishi;
- fuqarolarning huquqiy jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi. Jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi;
- shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi. Huquqiy davlatchilikning mavjud bo'lishi;
- shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;
- davlat, davlat idoralari va fuqarolar huquqning teng subyekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ularning sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqa olishi. Fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta'minlash mexanizmlarining yaratilganligi;
- fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi;
- jamiyatning yuksak ma'naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi insonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e'zozlash asosiga qurilganligi.

Huquqshunos olim H. T. Odilqoriyev fuqarolik jamiyati haqidagi ilmiy tavslif har tomonlama to'liq va mukammal bo'lishi uchun fuqarolik jamiyatining bugungi tashkiliy tuzilmalari va institutlarini uch guruhga: iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar; ijtimoiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi tuzilmalar; siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institut va tuzilmalarga bo'lib tahlil qiladi¹.

¹ Qarang: *Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти.* – Т., 2002. – Б.171–175.

Siyosatshunoslar ham fuqarolik jamiyati belgilarini yetarli darajada o‘rganganlar. Jumladan, L. Smorgunov va V. Semenovning fikricha, jamiyatning siyosiy hayotida demokratik tuzilmaning manbai siyosat qobig‘ida emas, balki uning tashqarisida, ya’ni inson o‘zining mantig‘i va mazmuni bilan tasavvur qilib, o‘z xohishlari va qobiliyatlari erkin barpo etilishini aks ettiradi. Bu soha fuqarolik jamiyati deb ataladi. Fuqarolik jamiyati demokratiyaning asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlansa, jamiyatning siyosiy tizimi ham shunchalik demokratlashadi. Fuqarolik jamiyatida inson o‘zining yashash, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, mulkdor bo‘lish kabi ajralmas huquqlariga ega. Oila, maktab, mehnat jamoalari, milliy va ijtimoiy guruhlar fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos belgilari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati insonning shunday holati bilan tavsiflanadiki, unda jamiyat har bir a’zosining erkinligi va teng huquqliligi, fuqaro sifatida mustaqilligi aks etishi kerak.

Qayerda fuqarolik jamiyati rivojlanmagan bo‘lsa, o‘sha yerda insonning hayoti, haq-huquqi, tengligi va mustaqilligiga xavf-xatar mavjud bo‘ladi.

Umuman olganda, kishilik jamiyati fuqarolik jamiyatiga to‘liq aloqador emas, ammo fuqarolik jamiyati uning asosiy bazasi hisoblanadi. Jamiyatda davlat inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan, tenglikni va adolatni kafolatlaydigan umumiyy siyosiy tashkilot sifatida ishtirok etadi. Bu yerda davlat jamiyatning hokimiyat va mustaqillik belgilarini o‘zida ifodalaydigan yagona siyosiy shakli sifatida maydonga chiqadi¹.

Fuqarolik jamiyati – komil fuqarolardan, ya’ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatiga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat².

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, uning maqsadlari, hayotiy orzulari, niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini, uning layoqati va harakati, obro’si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar³.

¹ Qarang: Сморгунов Л.В, Семенов В.А. Политология. – Санкт-Петербург, 1996. – С.80–81.

² Qarang: Сайдов А.Х, Таджиханов У.Т, Одилқориев Х.Т. Давлат ва хукуқ асослари: Дарслик. – Т., 2002. – Б.8.

³ Qarang: Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.172.

«Fuqarolik jamiyat» tushunchasiga davlat doirasidan tashqaridagi barcha ijtimoiy munosabatlar yig‘indisini kiritish uning ma’nosini yanada to‘liqroq ochish imkonini beradi.

Rivojlangan fuqarolik jamiyati alohida individlarning faoliyati emas, balki guruh, birlashma, muassasa, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tuzilmalarining hamkorligidir¹.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati muammosi jamiyatda shaxs faol-liginning rivojlanishini ta’minalash, jamiyatning demokratlashuvini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, ayni paytda davlat vazifalarini cheklash, uning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatish va uni kuchaytirish nuqtai nazardan ko‘rib chiqilishi kerak. Bizningcha, «fuqarolik jamiyati» tushunchasining mazmuni jamiyatdagi nosiyosiy munosabatlarning butun yig‘indisini, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy, shu jumladan siyosiy tuzumni, davlatning hayotiy asosini tashkil etuvchi milliy, ma’naviy-ruhiy, diniy va boshqa munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonunning ustuvorligi, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi uning mavjud bo‘lishi va yanada rivojlanishi uchun asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, bir-birini obyektiv taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Fuqarolik jamiyati davlat bilan birgalikda rivojlanadi. Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlani-shining natijasi va uni yanada takomillashtirishning sharoiti deb hisoblash mumkin².

Huquqshunos va siyosatshunos olimlarning fuqarolik jamiyatining belgilari, xususiyatlari, tarkibiy tuzilmalari haqidagi mazkur ta’limotlari o‘rtasida hech qanday ziddiyat yo‘q. Aksincha, bu ta’limotlar bir-birini boyitadi va fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini yanada to‘liq ochib berish hamda unga mukammal ilmiy tavsif berish imkoniyatini yaratadi.

G‘arb mutafakkirlarining demokratik jamiyat haqidagi ta’limotlarini o‘rganish ularning xalqimiz axloqi, urf-odatlari, qadriyatlari, mentaliteti, tafakkuriga qanchalik mos kelishini aniqlash, Sharq mutafakkirlarining «adolatli jamiyat» haqidagi ta’limotlarini o‘rganish esa ulardan O‘zbekistonda

¹ Qarang: *Исломов З.М. Гражданское общество: вчера, сегодня, завтра // Узбекистон: фуқаролик жамияти сари.* – Т., 2003. – Б.58.

² Qarang: *Вишиневский А.Ф., Горбаток Н.А., Кучинский В.А. Общая теория государства и права.* – М., 2004. – С.542.

erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda bevosita foydalanish imkoniyatlarini olib beradi.

Sharqning buyuk allomalari va mutafakkir olimlarining «adolatli jamiyat», «fozil davlat», «oqil va xalqparvar hukmdor» to‘g‘risidagi ta’limotlari bugunga kelib O‘zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati davlatdan tashqarida va davlatgacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘la olmaydi, bunday jamiyatdagi davlatda insonning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatida davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning farovonligini ta’minalash hamda qonuniy huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari uchun ularga barcha shart-sharoitni yaratib berish hisoblanadi. Jamiyat esa davlatdan o‘z a’zolarining hayoti, daxlsizligi, sog‘lig‘i va xavfsizligini himoya qilishni talab etishga haqlidir. Davlat aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi moddiy tafovutlar va ziddiyatlarni yumshatish uchun ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga majbur hisoblanib, davlatning tashqi siyosiy va mudofaa qudrati bilan ana shunday jamiyatning mavjud bo‘lishi, boshqa jamiyat bilan moddiy va ma’naviy yaqinlashuvi ta’milanishi kerak.

Fuqarolik jamiyati – insonning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan, uning manfaatlari ustuvorligi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat va itoatkorlik muhiti shakllangan, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash, har bir insonning huquq va erkinliklari so‘zsiz amalga oshishi kafolatlangan, jamoatchilik nazoratida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan demokratik huquqiy davlat mavjud bo‘lgan, yuksak ma’naviy-madaniy qadriyat-larga asoslangan insoniy munosabatlar hukmronlik qiluvchi adolatli, erkin ijtimoiy makon.

II bob. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNI HUQUQIY TA'MINLASH

2.1. O'zbekiston Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy poydevori

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonda davlat mustaqilligi va hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning huquqiy poydevori bo'lgan Asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish bosh vazifa qilib qo'yildi¹. O'zbekiston xalqi inson huquqlariga sadoqatini e'lon qilib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqligini namoyon qilib, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlari ni ta'minlashga intilib, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qildi².

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mustaqillikning mevasi, mahsuli sifatida vujudga keldi va bugungi kunda adolatli, insonparvar, demokratik huquqiy fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. «O'zbekiston o'zi uchun demokratik rivojlanish va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini aniq va ravshan belgilab olgan va bu maqsad Konstitusiyamizda muhrlab qo'yilgan»³.

Akademik M. Sharifxo'jayev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, *birinchidan*, jahon hamjamiatining inson huquqlari borasidagi demokratik yutuqlariga tayanadi; *ikkinchidan*, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy fikrlar xilma-xilligini, ko'ppartiyaviylikni mustahkamlaydi; *uchinchidan*, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga jiddiy huquqiy ta'sir ko'rsatadi; *to'rtinchidan*, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari vakolatlarning bo'linishini aniq belgilab beradi; *beshinchidan*, O'zbekistonning Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan shartnomali munosabatini mustahkamlaydi; *oltinchidan*, o'zbek davlatchiligining milliy xususiyatlarini keng va asosli yo'sinda aks ettiradi; *yettinchidan*, huquqiy normalari ta'riflarining lo'ndaligi, tahliliy-konseptual ma'nodorligi va ifodalarining aniqligi bilan ajralib turadi⁴.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Ватан саждаоҳ каби муқаддасдир. Т.3.–Т., 1996.–Б.185.

² Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015. – Б.8.

³ *Каримов И.А.* Инсон унинг хукуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.70.

⁴ *Шарифхўжаев М.* Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шакллаши. – Т., 2003. – Б.248–250.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlarga ega ekanligining o‘zi uning bugungi kunda o‘zbek xalqi o‘z oldiga qo‘ygan eng ezgu oliv maqsad – adolatli demokratik fuqarolik jamiyatni qurishning asosiy poydevori ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. «Mustaqil O‘zbekistonning ilk Konstitusiysi – davlat va jamiyat hayotining Asosiy qonuni qabul qilinganligi birinchi bosqichdagi qonun chiqarish faoliyatining gultojisi bo‘ldi. Konstitutsiya yosh davlatimiz chinakam mustaqilligining, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar dunyoga kelishining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda»¹.

Oliy huquqiy kuchga ega bo‘lgan Konstitutsiya bevosita harakat qiluvchi universal huquqiy hujjat sifatida davlat hududida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilariga zaruriy huquqiy mezon va kerakli xulq-atvor namunasi, shuningdek subyektiv huquq va majburiyatlarning asosiy manbai hisoblanadi². O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining barcha normalari, hatto bugunga kelib belgilangan tartibda o‘zgartirilgan normalari ham jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida asosiy maqsadimiz bo‘lgan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaysi bir jihatdan xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Amaldagi Konstitutsiyaning O‘zbekistonda adolatli demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotgan ayrim normalarini ko‘rib chiqamiz.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgi va xususiyatlariga asoslangan holda konstitutsiyaviy normalarni shartli ravishda sakkiz guruhga, ya’ni: 1) davlat, shaxs va jamiyatning o‘zaro munosabatini belgilovchi; 2) inson huquq va erkinliklarini belgilab, jamiyatda ularni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilishi, insonlarning mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlari tizimining qaror topishini hamda adolat, haqiqiy insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligini ta’minlovchi; 3) jamiyatda barcha millat va elatlarning tinch-totuv hayot kechirishi hamda qonun oldida tengligini ta’minlovchi; 4) fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini ta’minlovchi; 5) jamiyatda ko‘ppartiyaviylik, ijtimoiy hayotning, ayniqsa siyosiy hayot va siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xillagini ta’minlovchi; 6) jamiyatning iqtisodiy asosini belgilab beruvchi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.201.

² Qarang: Конституционное право России / Отв. ред. А.Н. Кокотов, М.И. Кукишин. – М., 2003. – С.23.

jihatdan bab-baravar himoya etilishini ta'minlovchi; 7) jamiyatda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarini belgilab beruvchi; 8) sud hokimiyatining hamda odil sudlovni amalga oshirishda sudyalarining mustaqilligini ta'minlovchi normalarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

1. Demokratik fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri jamiyat-dagi xususiy munosabatlarning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyqlardan holi bo'lishidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya-sida mustahkamlanganidek, bunday jamiyatda: davlat xalqning irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi; davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-modda); davlat hoki-miyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi (7-modda); davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshiradi (14-modda); davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda); O'zbekiston Respublikasining fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'l-gan huquqlari va burchlari bilan bog'liqdir (19-modda); davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi (58-modda); diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi (61-modda).

Ushbu konstitutsiyaviy normalar, *birinchidan*, davlat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilab beradi; *ikkinchidan*, ularning bir-birining faoliyatiga aralashmasligini mustahkamlaydi; *uchinchidan*, ularning bir-biriga bog'liqlik tomonlarini ham aniq ko'rsatib beradi; *to'rtinchidan*, demokratik fuqarolik jamiyatida davlat ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishini belgilaydi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgarligining Konstitutsiya normasida mustahkamlab qo'yilganligi davlat va uning organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va uni amalga oshirish tizimini hamda mexanizmini rivojlantirishning bevosita huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

2. Fuqarolik jamiyatining asosiy shartlaridan yana biri jamiyatda inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun barcha shart-sharoit-larning yaratilishi, mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi hamda adolat, haqiqat, insonparvarlik g'oyalari ustuvorligining ta'minlanishidir. Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi hamma fuqa-

rolarning ijodiy salohiyati va iste'dodi bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratadi. Fuqarolik jamiyati huquq va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Huquq jamiyatning o'ziga xos «gumanistik imperativi» (inson-parvarlik talabi), ya'ni insoniy-axloqiy qoidasi, ma'naviy mayog'i hisoblanadi¹. Asosiy qonunimizda shaxs manfaati davlat manfaatidan ustunligi belgilanib, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliv qadriyat sifatida muhrlab qo'yilgan. Aynan ana shu qat'iy talabni nafaqat qonunlarimiz va huquqiy me'yorlarimizda belgilab qo'yish, balki ushbu ustuvor prinsipni hayotimizga tatbiq etish o'ta muhim ahamiyatga egadir².

O'zbekiston xalqi shunchaki demokratik jamiyat emas, balki adolatli demokratik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «adolatga intilish – xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak»³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi inson huquq va erkinliklari masalasiga bag'ishlangan bo'lib, o'z hajmi bo'yicha eng katta qismlaridan biridir. Chunki inson huquqlari va erkinliklari – bashariyat madaniyatining umumiy yutug'i. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, insonning huquq va erkinliklari bizning jamiyatda faqat qonunlar bilangina emas, balki o'zbek xalqining o'zligini anglashi, odob-axloqi, qilgan ezgu ishlari va mehmondo'stligi bilan ham mustahkamlanadi. O'zbekistonda eng muhim insoniy qadriyatlardan biri hamisha oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi⁴.

Huquqiy adabiyotlarda inson huquq va erkinliklari kafolatlarini ta'minlovchi konstitutsiyaviy normalarni ayrim olimlar: inson va fuqaro huquq va erkinliklarining umumiy kafolatlari; huquq va erkinliklarni himoya qilish davlat majburiyatları; huquq va erkinliklarni o'zi himoya qilish; sud himoyasi; xalqaro himoya; zararni qoplash; odil sudlovning konstitutsiyaviy kafolatlariga ajratib tasniflashsa⁵, boshqalari esa ularni asosiy konstitusiyaviy

¹ Qarang: *Одилқориев Ҳ.Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.170.

² Qarang: *Каримов И.А.* Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.62–63.

³ *Каримов И.А.* Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998. – Б.399.

⁴ Qarang: *Саидов А.Х.* Қиёсий конституцияшунослик. – Т., 1993. – Б.41.

⁵ Qarang: *Баглай М.В.* Конституционного право Российской Федерации: Учебник. – М., 1999. – С.252–264.

kafolat-normalarga; umumiy konstitutsiyaviy kafolat-normalarga; konstitutsiyaviy-protsessual kafolat-normalarga ajratgan holda o‘rganishgan¹.

Konstitutsiyaning quyidagi normalari inson huquq va erkinliklarini bevosita belgilovchi normalar sifatida alohida guruhlarga ajratiladi: 1) O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi (13-modda); 2) davlat o‘z faoliyatini ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi (14-modda); 3) O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo‘yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart (18-modda); 4) fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir (19-modda); 5) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asosda ega bo‘lganligidan qat’i nazar, hamma uchun tengdir (21-modda); 6) O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi (22-modda); 7) O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minkanadi (23-modda); 8) O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarga: yashash (24-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik (25-modda), aybsizlik prezumpsiyasidan foydalanish (26-modda), himoyalanish va turar joy daxlsizligi (27-modda), bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurish, O‘zbekistonga kelish va undan chiqib ketish (28-modda), fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, axborotni izlash, olish va tarqatish (29-modda) huquqlariga egadirlar; 9) O‘zbekistonda har bir shaxs: mulkdor bo‘lish, bankka qo‘yilgan omonatlarning sir tutilishi va meros huquqiga (36-modda), mehnat qilish, erkin kasb tanlash,adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalanish (37-modda), dam olish (38-modda), qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minot olish (39-modda), malakali tibbiy xizmatdan foydalanish (40-modda), bilim olish (41-modda), ilmiy va texnikaviy ijom erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish (42-modda) huquqlariga ega; 10) davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini

¹ Qarang: *Калашников В.С. Система конституционных гарантий обеспечения прав и свобод граждан в условиях формирования в России гражданского общества // Государства и права. – М., 2002. – №10. – С.19–20.*

ta'minlaydi (43-modda); voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir (45-modda); xotinqizlar va erkaklar teng huquqlidirlar (46-modda); 11) oila jamiyatning asosiy bug'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega (69-modda); onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi (65-modda); 12) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir; amnostiya to'g'risidagi hujjatlar ni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Malisining Senatiga taqdimnomalar kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi (93-modda). Konstitutsiyamizda qayd etilgan ushbu normalar O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlash, erkin, adolatli demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

3. Jamiyatda yashovchi barcha millat va elatlarning tinch-totuv, farovon hayot kechirishlari fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi qoidalari jamiyatda barcha davlat organlari va uning mansabdor shaxslariga o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarining doimiy hurmat qilinishlarini, ularning rivojlanishini ta'minlaydigan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish javobgarligini yuklaydi: a) O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi; b) O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir (18-modda); d) Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda). Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sohalarida barcha millat va elatlar tillari, urf-odatlari va an'analarining teng asosda va adolatli hurmat qilinishi, rivojlanishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish, albatta, jamiyatda tinchlik, turli millatlar va elatlar o'rtasida totuvlik saqlanishiga xizmat qiladi.

4. Fuqaroning bevosita o‘zi yoki fuqarolik jamiyatni institutlari orqali davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi ta’minlanganligi ham bunday jamiyatning o‘ziga xos jihatni hisoblanadi. Konstitutsiyaning quyidagi normalari fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini ta’minlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda: 1) xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai (7-modda); 2) jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyoq ovozga (referendumga) qo‘yiladi (9-modda); 3) fuqarolar jamiyat va davlat ishlarni boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendum o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi (32-modda); 4) siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘ygan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar (60-modda); 5) saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a’zosi bo‘lishi mumkin (77-modda); 6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin (90-modda); 7) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar (117-modda).

5. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri ko‘ppartiyaviylik, ijtimoiy hayot, ayniqsa siyosiy hayotning va siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligidir. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omillaridan biri – siyosiy maydon kengliklarida demokratik mamlakatlarga xos bo‘lgan ko‘ppartiyaviylik tizimini qaror toptirish. Faqat ko‘ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasigina fuqarolik jamiyatini qurish uchun shart-sharoitlar yaratadi¹. Fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan bunday xususiyatlar, eng avvalo, jamiyatda demokratiyaning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Siyosiy partiyalar ayni vaqtning o‘zida davlat va fuqaroviy jamiyatni bir-biriga

¹ Qarang: Қарғизбоеев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б.15–16.

bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning siyosiy huquqlariga, qonuniylik va barqarorlikka, davlat va jamiyatda demokratizmga kafolatlar berishga qaratilgan ko‘ppartiyaviylikning konstitutsiyaviy roli aniqlab berilgan¹.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi qoidalari O‘zbekistonda qonuniylikka asoslangan ko‘ppartiyaviylik, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm), haqiqiy sog‘lom demokratiyaning shakllanishiga huquqiy poydevor va asos bo‘lib xizmat qilmoqda: O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas (12-modda); fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasining qonunlari ga muvofiq mitinglar, yig‘ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar (33-modda); O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga uyu shish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kansitishi mumkin emas (34-modda); har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega (35-modda); O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatları, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi (56-modda); davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi (58-modda); O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat (77-modda).

6. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asos-belgisini xususiy mulk va erkin iqtisodiy faoliyatga asoslangan bozor munosabatlari tashkil etadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishini xususiy mulkning qat’iy mavqega ega bo‘lishi bilan bog‘laydi. Jamiyatda barcha

¹ Qarang: *Сайдов А.Х. Киёсий конституцияшунослик.* – Т., 1993. – Б.49.

mulk shakllari o‘rtasida teng raqobat bo‘lishi va bir xil himoya qilinishini, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishni ta’minlash Konstitutsianing quyidagi normalarida mustahkamlangan: a) har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli (36-modda); b) bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’-molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin (53-modda); d) mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi (54-modda).

7. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillari to‘liq ta’minlangan huquqiy davlatgina adolatli demokratik fuqarolik jamiyatiga xosdir. «Qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta’minlash huquqiy demokratik davlat qurishning va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim bo‘g‘inidir»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi normalarida: O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiysi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiysi vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi (7-modda); davlat o‘z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi (14-modda); O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalar, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar (15-modda); O‘zbekiston Respublikasining birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlari zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalari zid kelishi mumkin emas (16-modda); fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – Б.273.

yetkazmasliklari shart (20-modda); hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (25-modda); hech kim qiyonoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagи tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (26-modda); hech kim qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas (27-modda); fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin (29-modda); diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi (31-modda); arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart (35-modda); barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarni bajaradilar (47-modda); fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar (48-modda); fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga (49-modda), atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga (50-modda), qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga (51-modda), qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir (52-modda); mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat huquqining hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart (54-modda); maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi (57-modda); Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas (71-modda), O‘zbekiston Respublikasining qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham majburiydir (72-modda); O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etili-shining kafilidir; Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz bergenida yoxud ular bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz bergenida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati

tarqatib yuborilishi mumkin (95-modda); O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar (118-modda); O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy, kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqanadi (121-modda).

Qonun ustuvorligini ta’minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy mada-niyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo‘ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi¹.

8. Demokratik fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar dan biri – sud hokimiyati mustaqilligining ta’minlanganligi. Bugungi kunda «...Sud – insoniyat ahlining butun sivilizasiya tarixi davomida erishgan eng buyuk yutug‘idir. Sud – qonuniylik va huquqiy-tartibotni ta’minlashning o‘ta nozik sayqal topgan eng takomilga yetgan vositasi (mexanizmi)dir»².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «bugungi kunda bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta’sirchan faoliyatini so‘zda emas, amalda ta’minlash bo‘lmog‘i zarur. Sudlar tom ma’noda mustaqil bo‘lgan holdagina qonunlarning qat’iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so‘zsiz ta’minlanadi. Qayerda sud mustaqil bo‘lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»³.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi qoidalari jamiyatda odil sudlovni amalga oshirishda sudsarning mustaqilligini ta’minlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda: O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiiga asoslanadi (11-modda); fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмок керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.28.

² Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.79–80.

³ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.30–31.

erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas (19-modda); jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi (26-modda); jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi (62-modda); Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati birqalikda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilaydi (78-modda); Oliy Majlis Senati Prezidentning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, Oliy sudini, Oliy xo'jalik sudini saylaydi (80-modda, 93-modda); O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi raislari Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senat majlislarida ishtirok etishi mumkin (81-modda); O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega (83-modda); O'zbekiston Respublikasining Prezidenti viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (93-modda); O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi (106-modda); sndlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqu-lodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi (107-modda); O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zo bo'lishlari hamda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizlik huquqididan foydalananadilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar (108-modda); Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi (109-modda); O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir (110-modda); mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashki-

lotlar, shuningdek tadbirkorlar o‘rtasida iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish Oliy xo‘jalik sudi va xo‘jalik sudlar tomonidan ularning vakolat doirasida amalga oshiriladi (111-modda); sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish, borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarning deputati bo‘lishi, siyosiy partiyalarning a’zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas (112-modda); hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi (113-modda); sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir (114-modda); O‘zbekistonda sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagи ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi ta’milanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi (116-modda).

Xulosa tariqasida shuni aytish joizki, «bugun bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy va xolisona baholar ekanmiz, yurtimizda milliy davlatchilik, erkin va obod jamiyat qurish inson huquq va manfaatlarini ta’minalash, Vatanimizning salohiyati va qudratini, xalqimizning hayoti darajasini yuksaltrish, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib o‘rin egallash yo‘lida qanday ulkan marralarni qo‘lga kiritgan bo‘lsak, bularning barchasiga Konstitutsiyamiz belgilab bergen yo‘l-yo‘riqlarni og‘ishmay amalga oshirish natijasida erishayotganimizni mammuniyat bilan ta’kidlash lozim»¹.

Konstitutsiyaviy qoidalar jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish darajasiga muvofiq kelishi zarur, aks holda u bajarilmaydi². O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish darajasiga to‘liq

¹ Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б.143–144.

² Qarang: Мазуров А.В. Конституция и общественная практика. – М., 2004. – С.49.

muvofig bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyati bilan xalq irodasini ifodalovchi, insonning huquq va erkinliklari, manfaatlarini hamda davlat va jamiyat boshqaruvining demokratik prinsiplarini belgilovchi va mustahkamlovchi asosiy qonundir.

2.2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish

Mustaqillik yillaridagi taraqqiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan huquqiy islohotlar haqida gap ketganda amaldagi huquq tizimining mazmun-mohiyati, uni isloh qilish hamda takomillashtirish nuqtai nazaridan ikki o‘zaro bog‘liq ibora – «huquqiy islohotni ta’minlash» va «islohotlarni huquqiy ta’minlash» iboralarining ma’nosini aniqlashtirish talab etiladi. Jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarini, ya’ni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ma’naviy jabhalarni tubdan isloh qilish uchun qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayoni – «islohotlarni huquqiy ta’minlash», ushbu maqsadda qonun va boshqa qonunosti me’yoriy-huquqiy hujjatlarini qabul qilish jarayoni amaldagi huquqiy tizimni isloh qilishning bir yo‘nalishidir. Demak, «huquqiy islohotni ta’minlash» iborasi «islohotlarni huquqiy ta’minlash» iborasidan keng bo‘lib, birinchisi ikkinchisini o‘z ichiga oladi.

Demokratik jamiyat, bozor iqtisodiyoti sari boshlangan harakatning ortga qaytmasligi va barqarorligi uning huquqiy asoslarini rivojlantirishga bevosita bog‘liqidir. Mustahkam huquqiy asos bo‘lgandagina, o‘z umrini yashab bo‘lgan tuzumni to‘la ishonch bilan qayta qurish, rivojlangan yuqori samarali bozor iqtisodiyotiga ega yangi jamiyatni barpo etish mumkin bo‘ladi¹.

Yuqoridagi mulohazalar islohotlarni huquqiy ta’minlashning zarurligi va ahamiyatini to‘la tasdiqlaydi. Huquqiy adabiyotlarda O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar va qonunosti me’yoriy-huquqiy hujjatlari jamiyatning qaysi sohasida islohotlarni amalga oshirish va munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi asosida uch guruhga

¹ Qarang: Ислом Каримов Конституция тўғрисида / Тузувчилик А. Сайдов, У. Таджиханов. – Т., 2001. – Б.116–117.

ajratib tahlil qilinadi: a) siyosiy islohotlarni, ya’ni davlat qurilishiga oid faoliyatni huquqiy ta’minlashga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar; b) iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta’minlashga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar; d) sud islohotlarini, shuningdek huquqni muhofaza etish idoralari faoliyatini isloh qilishni huquqiy ta’minlashga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar¹.

Islohotlarni huquqiy ta’minlash: *birinchidan*, huquqiy demokratik davlat qurish; *ikkinchidan*, tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish; *uchinchidan*, inson huquqlari va erkinliklarini to‘liq ro‘yobga chiqarish; *to‘rtinchidan*, jamiyatda mustaqil sud hokimiyatini qaror toptirish; *beshinchidan*, davlatning jamiyatni boshqarish funksiyalarini astasekin fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tishi mexanizmini huquqiy rasmiylashtirishdir.

Huquqiy islohotlarni ta’minlash deganda, jamiyatning huquqiy tizimi ni tubdan isloh etish, ya’ni uni ma’rifiy dunyo qadriyatları va umum e’tirof etgan tamoyillar asosida demokratik tarzda yangidan barpo etish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy bo‘g‘inlarini inobatga olgan holda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha: 1) huquqiy tizimni liberallashtirish (erkinlashtirish); 2) qonun chiqarish jarayonini, butun huquq ijodkorligini demokratlashtirish; 3) ijtimoiy hayotning hamma sohalarida qonunning ustuvorligini ta’minlash; 4) bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda hamda yuridik texnika qoidalariga rioya etgan tarzda qonunchilikni sistemalash-tirish, ayniqla kodekslashtirish; 5) huquqni muhofaza etish idoralari faoliyatini ham demokratik islohotlar qamroviga olishni kengaytirish; 6) shaxsning huquqiy muhofazalanishi kafolatlarini kuchaytirish; 7) huquqiy islohotni bilimdon va malakali kadrlar bilan ta’minlashning mukammal tizimini tashkil qilish; 8) aholining keng qatlamlari ichida huquqiy umumta’limni joriy etish; 9) sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash, odil sudlovni demokratlashtirish, sud-huquq islohotlari amalga oshirish².

Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardanoq O‘zbekiston oldida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, birinchi navbatda, uning huquqiy zaminini yaratish vazifasi turardi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan hu-

¹ Qarang: *Одилқориев Ҳ.Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.119.

² *Одилқориев Ҳ.Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.119–137.

qiy islohotlar mustaqillikning dastlabki yillardan boshlangan desak aslo xato qilmaymiz.

O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdeg'i islohot va o'zgarishlar amalga oshirilgan 1991–2000-yillarni o'z ichiga olgan *dastlabki bosqichni*¹, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy islohotlar jarayonini, uni amalga oshirishning har bir *bosqichidagi* ustuvor yo'naliш va vazifalarni hisobga olib, shartli ravishda *davrlarga* ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan to 1993-yilgacha bo'lган birinchi davrning o'ziga xosligi, birinchidan, 1991-yil 31-avgustda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning, ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ushbu davrdagi huquqiy islohotlarning o'ziga xos xususiyati yana shundaki, bunda asosiy e'tibor jamiyatni ma'muriy-buyruqbozlikka, faqatgina davlat mulkiga asoslangan iqtisoddan erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlovchi qonunlar va qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlarini qabul qilishga qaratildi. 1991-yilning avgust-dekabr oylarida 13 ta, 1992-yilda 52 ta qonun qabul qilindi².

Ushbu davrda qabul qilingan qonunlarni, mazmun-mohiyati va asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: a) davlat mustaqilligini e'lon qilish va mustahkamlashga qaratilgan qonunlar; b) davlat hokimiyat organlari haqidagi va demokratiyani shakllantirishga qaratilgan qonunlar; d) inson huquq va erkinliklarini ta'milash, ayniqsa, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonunlar; e) iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan qonunlar; f) jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratilgan qonunlar.

Mazkur davrda qabul qilingan qonunlarning 22 foizi suveren demokratik O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qilish va qonuniy mustahkamlashga; 18 foizi uning davlat hokimiyat organlari haqida va jamiyatda demokratiyani shakllantirishga; 18 foizi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ayniqsa, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lган qismi-

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида*. Т.16. – Т., 2008. – Б.5.

² Qarang: *Одилқориев X.T. Конституция ва фуқаролик жамияти*. – Т., 2002. – Б.119–137.

ni himoya qilishga; 30 foizi jamiyatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishga; 12 foizi esa jamiyatda qonuniylikni, xavfsizlikni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratilgan.

Ikkinchchi davr o‘z ichiga 1993–1996-yillarni oladi. Ushbu davr 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish maqsadida ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni huquqiy ta’minlash davri bo‘ldi.

Ushbu qisqa davrda amaldagi 51 ta qonunga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida qonunlar, shuningdek 107 ta yangi qonun va 7 ta kodeks qabul qilindi. Mazkur davrda, *birinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipini qaror toptirishga; *ikkinchidan*, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning xizmatlarini munosib taqdirlash asoslarini yaratishni ta’minlashga; *uchinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish, iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish va rivojlangan bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi.

Bu davrda qabul qilingan qonunlarning 12,1 foizi O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish prinsipini qaror toptirishni; 29,9 foizi inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning xizmatlarini munosib taqdirlash asoslarini yaratishni; 33,6 foizi davlat mulkini xususiylashtirish, iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish va rivojlangan bozor munosabatlarini shakllantirishni; 6,5 foizi tabiiy muhitni himoya qilish hamda undan foydalanishni tartibga solishni; 12,3 foizi qonuniylik, xavfsizlik va huquq-tartibotni; 5,6 foizi esa jamiyatda demokratiyani chuqurlashtirish va mustahkamlashni ta’minlashga qaratilganligi ushbu davrdagi huquqiy islohotlarning o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi.

Uchinchi davr 1997–2000-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda huquqiy islohotlarning asosiy mazmuni jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi demokratik islohotlarni izchil davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni huquqiy ta’minlashdan iborat bo‘ldi.

Huquqiy islohotlarning ushbu davrida 71 ta qonun, 8 ta kodeks va 7 ta amaldagi qonunga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida, shundan 3

tasi bo‘yicha yangi tahrirda qonunlar qabul qilindi. Bu davrda qabul qilin-gan qonun va kodekslarning 10,8 foizi insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirish, qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexa-nizmini yaratishga; 6 foizi jamiyatning ma’naviy sohasi, ayniqsa ta’lim sohasini tubdan isloh qilishni; 45,8 foizi iqtisodga investitsiya, shu jumla-dan chet el investisiyasini jalg etishni, iqtisodiy subyektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi va iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi faoliyatlarni huqu-qiy tartibga solishni; 26,6 foizi jamiyatda qonuniylik, xavfsizlik va huquq-tartibotni, 10,8 foizi esa jamiyatda demokratiyani yanada chuqurlashtirish, ayniqsa ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirishni ta’minalashga qaratilganligi ushbu bosqichdagi huquqiy islohotlarning mazmun-mohiya-tini tashkil etdi.

O‘zbekiston taraqqiyotining 1991–2000-yillarni o‘z ichiga olgan dast-labki bosqichida sovet davridagi eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga bar-ham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlarining faoliyati yo‘lga qo‘yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o‘tkazish jarayoni amalga oshirildi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, 2001–2007-yillarni o‘z ichiga olgan *ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri* – iqtisodiyoti-mizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta’minalashda g‘oyat muhim rol o‘ynagan davr bo‘ldi².

Jamiyat rivojlanishining ushbu ikkinchi bosqichi shartli ravishda 2001–2002-yillar, 2003–2004-yillar, 2005–2007-yillarni o‘z ichiga olgan uch davrga ajratib tahlil qilindi.

Huquqiy islohotlarning 2001–2002-yillarni o‘z ichiga olgan birinchi davrida jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarini erkinlashtirishni ta’minalashga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Huquqiy islohotlarning bu davriga xos xususiyatlar, avvalambor, ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi ses-siyasida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy sohalarini

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиёти-мизни барқарор ривожлантириш йўлида*. Т.16. – Т., 2008. – Б.35.

² Qarang: Ko‘rsatilgan manba. – B.5.

erkinlashtirishga doir strategik dasturning qabul qilinishi bilan bog‘liq. Ushbu dastur qabul qilinganidan keyingi davrda amalga oshirilgan ishlar haqida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: «*birinchidan*, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash, davlat tuzilishini demokratlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkni, tadbirkorlik, kichik va o‘rtalbiznes manfaatlarini himoyalash borasida zarur kafolatlarni yaratib berish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda; *ikkinchidan*, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning bu muhim sohalarida munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator yangi qonunlar qabul qilindi va ko‘pgina qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Jinoyat, Jinoyat-protsessual va boshqa kodekslar qaytadan ko‘rib chiqildi; *uchinchidan*, prokuratura tizimi ustidan ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, uning ayrim huquqlarini chegaralash va qisqartirish, bu huquqlarning ko‘pini sud idoralariga berish masalalariga aniqlik kiritildi; *to‘rtinchidan*, inson huquqlariga rioya etilishi bo‘yicha milliy monitoring tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda; *beshinchidan*, nafaqat qonunchilik sohasida, balki qonunlarni amaliyatga qo‘llash, jazo tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi; *oltinchidan*, sudlar to‘g‘risidagi, prokuratura to‘g‘risidagi, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida, sudlarni jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha ixtisoslashtirish munosabati bilan qator kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi»¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bu fikr-mulohazalari ushbu davrdagi islohotlarning, jumladan huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyati va xususiyatlarini har tomonlama yoritib beradi.

Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan huquqiy islohotlarni amalga oshirish, ayniqsa, islohotlarni huquqiy ta’minalashga qaratilgan 42 ta hamda amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida 6 ta qonun qabul qilindi. Qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati va asosiy maqsadlaridan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, ularning 20,8 foizi inson huquq va erkinliklarini ta’minalash, himoya qilish mexanizmini vujudga keltirish, jamiyatning ma’naviy tizimini yanada takomillashtirishga; 52,1 foizi iqtisodiy sohada olib borilayotgan tub islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, tadbirkorlik va erkin iqtisodiy

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.12–13.

faoliyat kafolatlarini yaratishga; 16,7 foizi jamoat tartibi va xavfsizligini, qonuniylikni ta'minlashga, mudofaa sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga; 10,4 foizi esa jamiyat siyosiy tizimini demokratlashtirish, ayniqsa, davlat oliy hokimiyat organlari tizimidagi islohotlarni amalga oshirishni yanada chuqurlashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yo'lining 2003–2004-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi davrida jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish huquqiy ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» deb nomlangan ma'rzasida belgilab berilgan jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va vazifalari jamiyatda huquqiy islohotlarni amalga oshirish uchun dasturilamal bo'ldi.

Mazkur bosqichda huquqiy islohotlar, *birinchidan*, xalqimizning tengsiz oliy ne'mati – mustaqillikni asrash-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga, *ikkinchidan*, xavfsizlik va barqarorlikni, davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga, *uchinchidan*, jamiyatning siyosiy tizimini yanada demokratlashtirish, ikki palatali parlamentni shakllantirishga, *to'rtinchidan*, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lган erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga, *beshinchidan*, inson huquq va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek oshkoraliqni, demokratik tamoyillarni amaliy hayotda joriy qilishga, *oltinchidan*, jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishga, *yettinchidan*, sudhuquq sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish va yanada chuqurlashtirishga, *sakkizinchidan*, jamiyatning demografik va barcha milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishni ta'minlashga qaratildi¹.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatilgan ustuvor vazifalarni bajarish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. 2003–2004-yillarni o'z ichiga olgan bu davrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 21 ta yangi qonun, 14 ta amaldagi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.11–19.

kiritish haqida, shundan 8 tasi bo‘yicha esa yangi tahrirdagi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarning 33,3 foizi jamiyat siyosiy tizimini yana-da erkinlashtirish, jumladan davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida islohotlarni amalga oshirishga; 22,2 foizi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga; 19,4 foizi jamiyat ma’naviy sohasining, ayniqsa fan va texnikaning rivojlanishini huquqiy ta’minalashga; 13,9 jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash, jinoyatchilikka qarshi kurash hamda mudofaa sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga; 11,2 foizi inson huquq va erkinliklarini ta’minalashga qaratildi.

2005–2007-yillarni o‘z ichiga olgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning uchinchi davrida: *birinchidan*, qonun chiqaruvchi oliy organ – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentga aylantirilishi va faoliyat ko‘rsatishiga; *ikkinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat rahbari sifatida hokimiyat organlarining o‘zaro uyg‘un va hamjihat faoliyat yuritishini ta’minalashga; *uchinchidan*, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar vakolatini kengaytirish va rolini kuchaytirishga; *to‘rtinchidan*, markaziy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazishga; *beshinchidan*, sudlarni ixtisoslashtirish va ularni sud qarorlarini ijro etish kabi o‘zlariga xos bo‘lmagan vazifalardan ozod qilishga; *oltinchidan*, jinoyat protsessida yarashuv institutlari faoliyatini kengaytirishga; 2008-yil 1-yanvardan mamlakatda o‘lim jazosini bekor qilish, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudga berishni ta’minalashga; *yettinchidan*, fuqarolik jamiyati institutlarini erkin rivojlan-tirish, ularning fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirishga; *sakkizinchidan*, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining erkinligini va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, iqtisodiyotda davlatning nazorat va bosh-qaruv vakolatini keskin kamaytirish, uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini cheklashga; *to‘qqizinchidan*, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga; *o‘ninchidan*, iqtisodiyot tarmoqlarida faol investitsiya siyosatini yuritishga; *o‘n birinchidan*, soliq yukini kamaytirish borasida izchil siyosat olib borishga; *o‘n ikkinchidan*, qishloq xo‘jali-gida xususiy fermer xo‘jaliklarni tashkil etishga; *o‘n uchinchidan*, aholi turmush sharoitini yaxshilash, oilalar farovonligini yanada oshirish, inson-

lar salomatligini yaxshilash va aholi nochor qismining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratildi¹.

Yuqorida ko'rsatilgan ustuvor vazifalarning bajarilishini huquqiy ta'minlash maqsadida yangi ikki palatali parlament tomonidan 140 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Qabul qilingan qonunlarning yarmiga yaqini bevosita amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, siyosiy tizimni demokratlashtirish, sud-huquq tizimi va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishni huquqiy ta'minlashga qaratildi. 2005–2007-yillarda qabul qilingan qonunlarning 30,2 foizi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga; 23 foizi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarga qarshi kurashni kuchaytirishga; 21,5 foizi xalqaro munosabatlarni takomillashtirishga, 11,5 foizi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga; 10,1 foizi jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish, davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga; 3,7 foizi esa boshqa sohalardagi islohotlarni amalga oshirishni huquqiy ta'minlashga qaratildi.

Respublikamiz taraqqiyotining ***uchinchchi bosqichi*** shartli ravishda 2008–2009-yillar, 2010–2016-yillarni o'z ichiga olgan ikki davrga ajratib tahlil qilindi.

2008–2009-yillarni o'z ichiga olgan mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yangilashni izchil davom ettirish davrida: *birinchidan*, makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashga; *ikkinchidan*, islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot, soliq-budget siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirishga; *uchinchidan*, aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga²; *to'rtinchidan*, mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga; *beshinchidan*, boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида*. Т.16. – Т., 2008. – Б.37–50.

² Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида*. Т.16. – Т., 2008. – Б.213–224.

ettirishga; *oltinchidan*, qishloq turmush darajasini yuksaltirish, qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas keng ko‘lamlı chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga; *yettinchidan*, xizmat ko‘rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta’minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirishga; *sakkizinchidan*, mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga; *to‘qqizinchidan*, bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag‘batlantirish ishlariga qaratildi¹.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2008–2009-yillarni o‘z ichiga olgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 34 ta yangi qonun, 66 ta amaldagi qonunlarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida, shundan 2 tasi bo‘yicha yangi tahrirda qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarning 8 foizi davlat hokimiyat organlari haqidagi va jamiyatda demokratiyani shakllantirishga; 11 foizi inson huquq va erkinliklarini, ayniqsa aholining ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan qismini ijtimoiy himoya qilishga; 8 foizi inson huquqlariga rioya etilishi bo‘yicha milliy monitoring tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga; 2 foizi sud-huquq sohasini isloh qilishni izchil davom ettirish va yanada chuqurlashtirishga; 4 foizi qonuniylik, qonunlarni amaliyatga qo‘llash, jazo tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish sohasida ham jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga; 2 foizi jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishga; 17 foizi xalqimizning tengsiz oliy ne’mati – mustaqillikni asrash-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga; 5 foizi xavfsizlik va barqarorlikni, davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashga; 5 foizi tabiiy muhitni himoya qilish hamda undan foydalanishni tartibga solishga; 25 foizi ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlarni tartibga solish va amalga oshirishni huquqiy ta’minlashga; 2 foizi qishloq turmush darajasini yuksaltirish, qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas keng ko‘lamlı chora-tadbirlar-

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17.–Т., 2009.–Б.166–195.

ni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga; 9 foizi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish, bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilish ishlariga qaratildi.

2010–2016-yillarni o‘z ichiga olgan davrda Vatanimiz mustaqilligining shonli yigirma yilligini nishonlash arafasida xalqimiz demokratik hayot qurish borasida bosib o‘tgan yo‘lni sarhisob qilish va istiqbol uchun yangi vazifalarni belgilash ehtiyoji tug‘ildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida bayon etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» ana shu ijtimoiy ehtiyojga javob beruvchi strategik va dasturiy ahamiyatga molik hujjat bo‘lib, adolatli va farovon jamiyat sari odimlab borishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. Unda davlatimiz rahbari jamiyatimizning istiqbolli taraqqiyotini ta‘minlovchi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash barobarida, bu boradagi muhim vazifalarni hal etishda ellikdan ziyod qonunchilik tashabbusi tarzidagi takliflarni bayon etdi. Xususan, *birinchidan*, davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirish yo‘nalishida Konstitutsiya va boshqa qonunlarga 7 ta qo‘srimcha va o‘zgartirish; *ikkinchidan*, sud-huquq tizimini isloh etish sohasida 3 ta yangi qonun, 2 ta yangi tahrirdagi qonun, 1 ta dastur va amaldagi qonunlarga 5 ta qo‘srimcha va o‘zgartirish; *uchinchidan*, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash xususida 4 ta yangi qonun va amaldagi qonunlarga 3 ta qo‘srimcha va o‘zgartirish; *to‘rtinchidan*, O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta‘minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha amaldagi qonunlarga 5 ta qo‘srimcha va o‘zgartirish; *beshinchidan*, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida 3 ta yangi qonun, 1 ta dastur qabul qilish hamda 2 ta qonunga qo‘srimcha va o‘zgartirish; *oltinchidan*, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish yo‘nalishida 12 ta yangi qonun, 3 ta yangi tahrirdagi qonun va amaldagi qonunlarga 3 ta qo‘srimcha va o‘zgartirish kiritish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bu fikrmulohazalari ushbu davrdagi islohotlarning, jumladan huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyati va xususiyatlarini har tomonlama yoritib berdi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari taqdim etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» Oliy Majlis palatalari qonun ijodkorlik faoliyatining strategik dasturilamali sifatida mazkur faoliyatga yangicha ruh, ma'-no-mazmun, jo'shqinlik, izchillik va tizimlilik baxsh etdi. Eng muhimi, barcha qonunlarimizni demokratik fuqarolik jamiyati qurish ehtiyojlari va talablariga javob beradigan sifat hamda saviyaga ega bo'lishiga ko'mak berdi.

Konsepsiada davlatimiz rahbari katta miqdorda yangi qonunlarni qabul qilish, ko'plab amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish borasida qonunchilik tashabbusini ilgari surdi. Eng muhimi, Prezidentimizning qonunchilik tashabbuslari ilmiy va amaliy jihatdan chuqur asoslantirilgan bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish ehtiyojlariga xizmat qiluvchi qonunlar qabul qilinishiga taalluqlidir. Konsepsiada belgilangan ustuvor vazifalarni sobitqadamlik bilan bajarilishi aholining siyosiy-ijtimoiy faolligi kuchayishiga, ko'ppartiyaviylik tizimi rivojlanishiga, jamiyatimizni yanada erkinlashtirishga, fuqarolik jamiyati institutlarining mavqeい va ta'siri oshishiga olib keladi. Eng muhimi, xalq va davlat hokimiyat o'rtasida doimiy muloqot, o'zaro hamkorlik kuchayishida muhim omil bo'ladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010–2016-yillarni o'z ichiga olgan davrda 53 ta qonun, 2 ta kodeks va 100 ta amaldagi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida, shundan 15 tasi bo'yicha yangi tahrirda qonunlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi 2010-yil 1-iyun, «Aholi o'rtasida mikronutriyent yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida»gi 2010-yil 7-iyun, «Arxiv ishi to'g'risida»gi 2010-yil 15-iyun, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqburzaliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi 2010-yil 29-sentabr, «Axborot kutubxona faoliyat to'g'risida»gi 2011-yil 13-aprel, «Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida»gi 2011-yil 29-sentabr, «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi 2011-yil 4-oktabr, «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi 2011-yil 5-oktabr, «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi 2011-yil 12-oktabr, «Rieltorlik faoliyati to'g'risida»gi 2010-yil 22-dekabr, «Dafn etish va dafn ishi to'g'risida»gi 2010-yil 27-dekabr, «Raqobat to'g'risida»gi 2012-yil 6-yanvar, «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risi-

¹ Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва баркамол жамият орзуси. – Т., 2012. – Б.177–178.

da»gi 2012-yil 26-aprel, «Mardlik» ordenini ta'sis etish to‘g‘risida»gi 2012-yil 11-sentabr, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 24-sentabr, «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 17-dekabr, «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida»gi 2012-yil 20-dekabr, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi 2012-yil 25-dekabr, «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi 2013-yil 23-sentabr, «Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida»gi 2013-yil 4-oktabr, «Garov reyestri to‘g‘risida»gi 2013-yil 23-oktabr, «O‘zbekiston Respublikasining budjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2013-yil 26-dekabr, «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi 2013-yil 27-dekabr, «Vasiylik va homiylik to‘g‘risida»gi 2014-yil 2-yanvar, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi 2014-yil 5-may, «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-may, «Tijorat siri to‘g‘risida»gi 2014-yil 11-sentabr, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi 2014-yil 25-sentabr, «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi 2014-yil 3-dekabr, «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi 2014-yil 26-may, «Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida»gi 2015-yil 25-avgust, «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida»gi 2015-yil 26-avgust, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi 2015-yil 9-dekabr, «O‘zbekiston Respublikasining bojxona kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2016-yil 20-yanvar, «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi 2016-yil 11-aprel qonunlari qabul qilindi¹.

O‘zbekistonda 2010–2016-yillarda qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati va asosiy maqsadlaridan kelib chiqib ajratadigan bo‘lsak, ularning 22,5 foizi davlat hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi va jamiyatda demokratiyani shakllantirish, saylov erkinligi yanada ta’milanishi hamda saylov qonunchiligi rivojlantirishga; 10,9 foizi inson va fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning xizmatlarini munosib taqdirlash asoslarini yaratishni ta’milashga; 6,4 foizi iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish xususiy mulkka yo‘l ochib berish mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo‘lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga; 7 foizi tabiiy muhitni himoya qilish va

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

undan foydalanishni tartibga soluvchi; 5,1 foizi jamiyatda qonuniylikni, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash, huquq tartibotni mustahkamlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashni kuchaytirishga; 13,5 foizi ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlarni tartibga va amalga oshirishni huquqiy ta'minlashga; 3,2 foizi sud-huquq sohasini isloh qilishni izchil davom ettirish va yanada chuqurlashtirishga; 9 foizi mustaqillikni asrash-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash hamda xalqaro munosabatlarni takomillashtirishga; 3,2 foizi qonuniylik, qonunlarni amaliyatga qo'llash, jazo tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga; 7 foizi islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot, soliq-budget siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirishga; 4,5 foizi aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni raqobatlashtirishga; 7,7 foizi bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag'batlan-tirish ishlariga qaratildi.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan va qabul qilinayotgan qonunlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar, umuman, bugun amaliy hayotimizda qilayotgan barcha-barcha ishlarimiz mamlakatimizni rivojlanti-rish va modernizatsiya qilish sur'atlarini qay darajada jadal ta'minlab bera-yotgani, bizni o'z oldimizga qo'ygan bosh maqsadimizga, ya'ni O'zbekiston-ning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishidek buyuk maqsadga qanchalik yaqinlashtirayotganini anglash va baholash biz uchun ayniqlashtirish ishlariga qaratildi¹.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan yillarda to'plangan oz bo'lsa-da, lekin g'oyat mazmunli tajribamiz bir haqiqatni takror va takror tasdiqlab bermoqda. Ya'ni, faqat demokratik o'zgarishlarning hayotda o'zini oqlagan modellari negizida chuqur asos-langan siyosiy yo'l va islohotlarni izchil amalga oshirish, bugungi dunyo-dagi tarixiy va real voqelikni e'tiborga olish hisobidangina bu islohotlarning muvaffaqiyati va samaradorligini, davlat va jamiyatning, aholi tur-mush darajasining yuksak va barqaror o'sish sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash mumkin.

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатимизни янада обод этиш ва модернизация қилишни қатъият билан давом эттириш йўлида. Т.21. – Т., 2013. – Б.92–93.*

2.3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari

Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlar ustunligi prinsipining ta’minlanishidir. Bu prinsip barcha joriy qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo‘lishini talab etadi. Sohibqiron Amir Temur aytganidek, «qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi»¹.

Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatining muqadas prinsiplaridan biri bo‘lgan qonun ustunligi va uni amalda ta’minlash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Qonun ustuvorligi prinsipining mohiyati va uni ta’minlash muammolari huquq sohasida ko‘pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rossiyalik huquqshunos olim YU. A. Tixomirov qonun ustunligi huquqiy demokratik davlatning asosiy prinsiplaridan biri ekanligini uqtiradi. U qonunning ustunligi prinsipi unga xos bo‘lgan barcha xususiyatlar, ya’ni: a) davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari qonun orqali hal etilishining me’yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlanganligi; b) davlat organlari va jamoat tashkilotlarida qo‘llaniladigan barcha huquqiy hujjatlar ichida qonunning ustunligi; d) Konstitutsiyada barchaning qonuniylik prinsipiga rioya qilishi mustahkamlanganligi; e) huquqiy kuchi jihatdan qonunning boshqa barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqoriligi; f) konstitutsiyaviy nazoratning amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi².

Akademik M. Sharifxo‘jayev va professor N. Shodiyevning fikricha, Konstitutsiya va qonun ustunligining mohiyati, *birinchidan*, jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunning qat’iy hukmronligini bildirib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxs va fuqarolarning qonunga so‘zsiz bo‘ysunishi, unga rioya etishini ta’minlasa, *ikkinchidan*, jamiyat hayotini tartibga soluvchi huquqiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, *uchinchidan*, huquqiy munosabat ishtirokchilarini huquqqa xilof xatti-harakatlari, shuningdek huquq normalarini buzganliklari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos vazifasini bajaradi³.

Professor H. T. Odilqoriyev ham Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi prinsipining mohiyati: 1) jamiyat hayotining barcha jabhalarida

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.125.

² Qarang: Тихомиров Ю.А. Теория закона. – М., 1982. – С.89–90

³ Qarang: Шарифхўжаев М., Шодиев Н. Ўзбекистон – конституциявий давлат. – Т., 2003. – Б.68.

qonunlarning qat'iy hukmronligi, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning Konstitutsiya va qon unlarga so'zsiz itoat etishi-da; 2) ijtimoiy munosabatlarning jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlariga mos tarzda tartibga solinganligi, mamlakat miqyosida barqarorlik, batartib-lik va qonuniy tartibot muhiti o'rnatilganligida; 3) huquq buzilishi hollari-ning oldini olish, shuningdek huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda ularni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos vazifasini bajarishida namoyon bo'lishini yozgan¹.

Huquqshunos olim O'. X. Muhammedov qonunning ustunligi prinsipiga ta'rif berar ekan, uning quyidagi jihatlarini alohida ko'rsatib o'tadi: *birinchidan*, mamlakatda Konstitutsiya va qonunlar huquqiy hukmron bo'lib, ularni faqat davlatning oliv vakillik organi qabul qila olishi va davlat rahbari tasdiqlashi, ular o'zida xalqning xohish-irodasini ifoda etishi; *ikkinchidan*, Konstitutsiya me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichida eng oliv o'rin egallashi va uning tantanasini hech qanday huquq yoki axloqiy qoida bilan cheklab bo'lmasligi; *uchinchidan*, qonunlar faqat respublika hayotining muhim masala-lari yuzasidangina qabul qilinishi; *to'rtinchidan*, qonunlar o'zida inson manfaatlarining, xalqaro huquq normalarining ustuvorligini aks ettirishi; *beshinchidan*, Konstitutsiya va qabul qilinajak har qanday qonunning mazmun va mohiyatida ijtimoiy adolat g'oyalari yotmog'i zarurligi; *oltinchidan*, qonunlar to'g'ridan-to'g'ri, bevosita amalga oshiriladigan hujjat bo'lishi².

Bugungi kunda «mamlakatimizda Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta'minlashning huquqiy tizimi yaratildi»³. Lekin ushbu prinsipni amalda ta'minlash eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi. Bu tamoyillar Konstitutsiyada aniq belgilab qo'yilgan, ammo yashirishning hojati yo'q, ular amalda hozircha o'zining to'liq ijrosini topmoqda, deya olmaymiz. Buning muhim sabablaridan biri sud hokimiyati-ning yetarli darajada samarali faoliyat yurita olmayotgani bilan bog'liq»⁴.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va pirovardiga yetkazish bora-sida yangi qonunlar qabul qilishimiz, amaldagi qonunlarni esa tanqidiy

¹ Qarang: *Одилқориев Х.Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.262.

² Qarang: *Муҳамедов Ў.Х.* Конституция ва қонун устунлиги. – Т., 2003. – Б.15.

³ *Одилқориев Х.Т.* Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.266.

⁴ *Каримов И.А.* Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.31.

ko‘z bilan baholab, ularga zamon talab qilayotgan o‘zgarishlarni kiritish maqsadida hali juda katta ishlarni amalga oshirishimiz lozim¹. Lekin, ming afsuski, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarimizni joylarga yetkazish, keng tushuntirish ishlari, targ‘ibotlar o‘tkazish va kechiktirmasdan hayotimizga joriy etish, buning uchun kerakli chora-tadbirlarni ko‘rish – bugungi kunda faoliyatimizning oqsoq bir tomoniga aylanib qolmoqda².

Hozirga kelib Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash borasida jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo‘lgan Konstitutsiya va qonunning ustuvorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

1. Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari o‘z faoliyatida hokimiyyatlarni taqsimlash prinsipiga amal qilib, islohotlarni amalga oshirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi³. Jamiyatda davlat hokimiyyati tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipini hayotda to‘liq ta’minlash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Bugun bu sohadagi asosiy vazifalardan biri qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyyatini amalga oshiruvchi idoralar faoliyat olib borayotgan sohalarning o‘zaro muvozanati va mutanosibligini, shuningdek bu idoralarning mustaqilligini ta’minlash, har qaysisining o‘z vazifa va burchini bajarishini ta’minlaydigan amaliy mexanizmlarni hayotga joriy etishdir. «Bu masalalarning mohiyati haqida gapirar ekanmiz, – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov – shuni chuqur anglab olishimiz kerakki, agar qaysi bir mamlakatda hokimiyyat tarmoqlari o‘rtasida Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan demokratik balans, ya’ni muvozanat amalda ta’minlanmasa va har qaysi hokimiyyat tarmog‘i, bu qonunchilik, ijro etuvchi yoki sud hokimiyyati bo‘ladimi, o‘ziga yuklatilgan vakolat va vazifalarni to‘liq va xolisona bajarmasa, bu holat, hech shubhasiz, shu mamlakatda avtoritar boshqaruv usuli yuzaga kelishiga va shu ruhdagi qarorlar qabul qilinishiga olib keladi»⁴.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.322.

² Qarang: *Каримов И.А.* Инсон, унинг ҳуқук ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.152.

³ Qarang: *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б.228.

⁴ *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.323.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning qiyofasi, uning ijtimoiy, iqtisodiy ravnaqi, siyosiy tuzumi, boshqaruving demokratik prinsiplari, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlari, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligi hamda ma’naviy qadriyatlаримиз асосларини mustahkamlab berdi. Davlat mustaqilligiga erishish tufayli O‘zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrdagi o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqeа edi. Shuningdek, 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi qonuniga muvofiq, Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo‘srimchalar, 2007-yil 11-aprel qonuni bilan 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga, tuzatishlar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabr qonuni bilan Konstitutsianing 77-moddasi birinchi qismiga o‘zgartirish, 2011-yil 18-aprel qonuni bilan 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabr qonuni bilan Konstitutsianing 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish, 2014-yil 16-aprel qonuni bilan 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. O‘tgan davr mobaynida Konstitutsiyamizga yetti marotaba qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Natijada Konstitutsianing jami 31 ta moddasidagi normalar davlat va jamiyat hayoti bilan hamohang tarzda amalga oshirilgan islohotlarga mos ravishda rivojlantirildi. Shu o‘rinda, uning 20 ta moddasiga bir marotaba, 7 ta moddasiga ikki marotaba, 3 ta moddasiga uch marotaba, 1 ta moddasiga to‘rt marotaba o‘zgartish va qo‘srimchalar hamda tuzatishlar kiritilganligini ta’kidlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan ushbu o‘zgartirish va qo‘srimchalar bevosita jamiyatda asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biri bo‘lgan Konstitutsiya va qonunning ustunligini ta’minlashga qaratilgandir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan konstitusiyaviy qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartishlar, *birinchidan*, davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o‘rtasidagi vakolatlarning demokratik asoslarda yanada mukammal qayta taqsimlanishi, ular faoliyatining mutanosiblikda va muvozanatda amalga oshirilishini ta’minlamoqda; *ikkinchidan*, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hoki-

miyatlarini amalga oshiruvchi idoralarga o‘z faoliyatlarini Konstitutsiyada belgilab berilgan o‘z huquq va majburiyatlariga to‘liq rioya qilgan holda mustaqil ravishda olib borish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratdi; *uchinchidan*, doimiy va professional asosda faoliyat olib boruvchi Qonunchilik palatasi qonunlar tayyorlash ustida ishlash jaryonining barcha bosqichlarini demokratik asoslarda takomillashtirish, huquq tizimini yanada erkinlashtirish hamda sifatli, ya’ni demokratik, adolatli, insonparvar qonunlarning qabul qilinishini ta’minlashga qaratildi; *to’rtinchidan*, hududiy subyektlarning mahalliy kengash deputatlari vakillarini teng miqdorda birlashtiruvchi parlamentning yuqori palatasi hisoblangan Senatning tuzilishi mamlakatning barcha hududlaridagi hayot, amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni haqida aniq va to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish, shuningdek qabul qilinayotgan har bir qonunda barcha hududlardagi fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini Konstitutsiya va qonunlar, adolat, insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda himoya qilish imkonini beradi; *beshinchidan*, saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan ko‘ppartiyaviylik asosida siyosiy partiyalarning qonun chiqaruvchi organ quyi palatasidagi vakilligi kengaytirildi hamda deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti kiritildi; *oltinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarining qayta taqsimlanishi natijasida davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarni, chet ellar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash masalalari parlamentning yuqori palatasi hisoblangan Senatga o‘tkazildi; *yettinchidan*, Bosh vazir nomzodini taklif etish va tasdiqlash, uning hisobotini tinglash hamda muhokama qilish, unga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish tartibi qat’iy belgilab qo‘yildi. Bu jamiyatda parlament rolini yanada kuchaytirishga hamda davlat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish xizmat qilishi aniq. Shuning uchun ham «barchamiz jamiyatda mavjud bo‘lgan turli kuchlar o‘rtasida, birinchi galda, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash tizimini o‘rganishimiz va amalda hayotga joriy etishimizga to‘g‘ri keladi. Busiz demokratik davlat faoliyatini tasavvur etib bo‘lmaydi»¹.

2. Bugungi kunda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham jamiyatda bevosita Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan. «Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idolarining mustaqilligi va

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.223.

ta'sirchan faoliyatini so'zda emas, amalda ta'minlash bo'lmos'i zarur. Sudlar tom ma'noda mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qayerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»¹.

Mustaqilligimiz qo'lga kiritilgandan to hozirga qadar sud-huquq tizimidagi islohotlar mantiqiy izchillik va sobitqadamlik bilan bosqichmabosqich amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Bu borada O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilgan (2014-yil 20-yanvarda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan) «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi, 2000-yil 14-dekabrda yangi tahrirda qabul qilgan (2014-yil 20-yanvarda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan) «Sudlar to'g'risida»gi, 2001-yil 7-dekabrda qabul qilgan (2014-yil 22-aprelda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan) «Sudyalarining malaka hay'atlari to'g'risida»gi, 2006-yil 16-oktabrda qabul qilgan (2014-yil 14-mayda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan) «Hakamlik sndlari to'g'-risida»gi, 2012-yil 18-sentabrda qabul qilgan «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida»gi, 2010-yil 1-iyunda qabul qilgan «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sndlari tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 2010-yil 26-aprel, «Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2012-yil 2-avgust, «Umumiy yurisdiksiya sndlарining tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi 2013-yil 24-iyun farmonlari, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 2012-yil 29-dekabr farmoyishi va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi².

Bu sohada bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar, *birinchidan*, barcha turdag'i va darajadagi sud idoralarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini mustaqil amalga oshirishini hayotda ta'minlashga, *ikkinchidan*, umumiy yurisdiksiya sndlарini ixtisoslashtirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga, *uchinchidan*, sudyalarни tanlash va lavozimga saylash (tayinlash) jarayonini yanada demokratlashtirishga qaratilgandir.

¹ Ko'rsatilgan manba. – B.30–31.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

3. Jamiyatda advokatura tizimining rolini kuchaytirish ham Konstitutsiya va qonunning ustuvorligini ta'minlovchi yo'nalishlardan biridir. «Biz advokatura tizimini kuchaytirish va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning vakolatlari va maqomini prokuratura maqomiga tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham, amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rmoqdamiz»¹. Bu borada 1996-yil 27-dekabrda «Advokatura to'g'risida»gi va 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi hamda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi dastlabki qadamlardir. Advokatura tizimi faoliyatining huquqiy asoslari va kafolatlarini yaratish, jamiyatda advokatlarning mavqeい va ahamiyatini ko'tarish, *birinchidan*, sudlov amaliyotida barcha ishtirokchilarning Konstitusiya va qonunlarga qat'iy rioya qilishini, *ikkinchidan*, odil sudlovda adolatning qaror topishini, *uchinchidan*, advokatlarning himoyasidan foydalanayotgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini to'liq himoya qilishni amalga oshirish orqali fuqarolik jamiyatining asosiy shartlaridan biri bo'lgan Konstitutsiya va qonunning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish idoralari, shu jumladan prokuratura, ichki ishlar idoralari tizimlarida olib borilayotgan islohotlar ham huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy sharti bo'lgan Konstitutsiya va qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Sud tizimi bilan bir qatorda jamiyatda qonuniylikni va huquqtartibotni ta'minlovchi Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida ham chuqur islohotlar ro'y bermoqda... Shubhaisiz, hayotimizdagi barcha tarmoq va jarayonlarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar qatorida huquqni muhofaza qilish sohasida ham joriy qilinayotgan islohotlar o'zining samarasi va natijasini bera boshladi. Eng muhimi, bu islohotlar ijtimoiy hayot va davlat qurilishining demokratik o'zgarishlar yo'lida bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minladi»².

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999. – Б.390.

² Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.32.

5. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda «qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish»¹ jamiyatda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy yo'naliшlaridan biridir.

Huquqiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan davlat xizmati sohasida nazoratni amalga oshirishning uchta yo'naliшi ko'rsatilgan: *birinchisi*, fuqarolik institutlari vakillarini davlat devonlarida tuziladigan turli kollegial tuzilmalarga (tanlov, shahodatlash, malakaviy va boshqa komissiyalarga) kiritish; *ikkinchisi*, fuqarolik jamiyatni institutlarini huquqiy hujjatlarni tayyorlash bosqichida va davlat xizmati sohasida tashkiliy tadbirlarni o'tkazishga, davlat xizmatiga oid masalalarni ochiq va keng muhokama qilishni amalga oshirishda yakuniy qarorni ishlab chiqish bosqichida jalg etish; *uchinchisi*, davlat xizmati tizimida kadrlar masalalari bo'yicha qaror qabul qilishda fuqarolik jamiyatni institutlari bilan kelishish. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda bugun birinchi va ikkinchi yo'naliшlar bo'yicha bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: 1) fuqarolarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarini davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini; 2) davlat idoralari mansabdor shaxslari zo'ravonligi va korrupsiyaning oldini olishni; 3) fuqarolarda davlatga, uning idoralariga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishini; 4) jamiyatda barchaning Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishini, qonuniylikni ta'minlashda, mavjud illatlar, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqarolarning davlat organlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yanada kengaytirishni ta'minlaydi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha omillar, albatta, jamiyatda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

6. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipini ta'minlashning eng ustuvor, dolzarb va muammolarga boy bo'lgan yo'naliшi – jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish. Har qanday jamiyatdaadolatning qaror topishi, tinchlik-totuvlik, osoyishtalikning barqaror bo'lishiga fuqarolar, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylik asos bo'ladi. Inson, davlat va jamiyat munosabatlarida uyg'unlikka, ular manfaatlari-

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.28.

ning o‘zaro mosligiga erishilsagina, o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishimiz mumkin. Ularning bir-birining huquqlarini yaxshi bilishlari va hurmat qilishlari, o‘z majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari osoyishtalik va farovonlikning zarur sharti va omildir. Bunday muhitni yaratish esa har bir fuqarodan, jamiyatning har bir tarkibiy qismidan, ayniqsa, davlat idoralari va uning xodimlaridan yuqori darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi. Ta’kidlab o‘tish kerakki, «ijtimoiy taraqqiyot odimlari, jamiyatimizda ro‘y berayotgan, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar sud-huquq tizimiga joriy qilinayotgan islohotlarni tanqidiy baholab, ularni yana churqurlashtirishni va qat’iyatlik bilan olib borishni talab etmoqda»¹.

O‘zbekistonda xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagи qarori bilan tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»²ning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida»³gi 2001-yil 4-yanvar farmoyishi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan asosiy tadbirlardandir. «Fuqarolarning huquqiy xabardorligi, ayniqsa huquqiy savodxonligi darajasini oshirish, huquqqa nisbatan hurmat hissini tarbiyalash siyosiy ongi takomillashtirishga, siyosiy bilim doirasining kengayishiga ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy xabardorlik har bir fuqaroga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va bilimdonlik bilan ishtirok etish, o‘z xulqatvori va faoliyatini tegishli tarzda bo‘lishini chinakam huquqiy davlatning va adolatli fuqarolik jamiyatining ajralmas qismidir»⁴. Jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, *birinchidan*, har bir fuqaroning Konstitutsiya va amaldagi qonunlarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunish va ularga itoat etishini; *ikkinchidan*, bugungi kunda qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida faol ishtirok etish va ulardan to‘liq xabardor bo‘lishni; *uchinchidan*, jamiyatning rivojlanishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to‘liq amalga oshirishga to‘sinqilik qilayotgan me’yoriy-huquqiy hujatlarni aniq-

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмок керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.32–33.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №9. – 227-м.

³ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

⁴ Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда хукуқий онгнинг ўрни. – Т., 1997. – Б.26.

lashda yordam berilishini; *to 'rtinchidan*, o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqalarning, davlat va jamiyatning manfaatlariga zarar yetkazmaslikni; *beshinchidan*, fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini amalga oshirishlari va himoya qilishlarini; *oltinchidan*, boshqalardan, ayniqsa davlat organlari va uning mansabdar shaxslardan qonunlarga rioya etishni talab qilish muhitining vujudga kelishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «har qaysi inson Konstitutsiya va qonunlarga hurmat bilan qaragandagina boshqalardan, davlatdan, davlat idoralaridan, qonunni muhofaza qiladigan, uning ijrosi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlardan ham qonunni so‘zsiz bajarishni talab qilishga haqli. Ana shundagina butun jamiyat tafakkurida qonunga hurmat va itoat bilan qarash hukmron bo‘ladi»¹.

Shuning uchun bugungi kunda har birimiz, birinchi navbatda, qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishga, o‘z huquq va erkinliklari-mizni qonun orqali himoyalashga, o‘z majburiyatlarimizni og‘ishmay bajarishga harakat qilishimiz kerak. Boshqalarning, davlat va jamiyatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini doimo hurmat qilishimiz lozim. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi tantana qilishiga, unga og‘ishmay rioya etish esa har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi bo‘lib qolishiga erishishimiz darkor. Bu esa O‘zbekistondaadolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy shartidir. «...biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo‘li xalqimiz ko‘zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo‘lgan, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar»².

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмок керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.153.

² Qarang: Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.126.

III bob. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

3.1. O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omili

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni ijobjiy va samarali hal qilish birinchi navbatda jamiyatni demokratlashtirishni, oddiyroq qilib aytganda, davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishini yanada kengaytirish va chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning eng muhim hamda murakkab yo‘nalishlaridan biri jamiyatni demokratlashtirishdir. «Demokratlashtirish va turmushimizning barcha sohalarida tub islohotlar o‘tkazish jarayoni, uzoq va uzlusiz davom etadigan jarayon ekanini aniq bilib olishimiz kerak»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, demokratiyani rivojlantirish va demokratik jamiyat qurish sohasida biz Yevropa Ittifoqi andozalarini qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Yevropa Ittifoqiga xos demokratik qadriyatlar, inson tafakkuri, ta’lim tizimi, ijtimoiy kafolatlar, aholining ijtimoiy huquqlari – bularning barchasi biz uchun to‘la mos keladi. Lekin bu tizimni ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bizning o‘z mentalitetimiz, o‘z muammolarimiz bor va biz bu jihatlarni hisobga olishimiz shart².

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida jamiyatni modernizatsiyalash, avvalo, uning yaxlitligini saqlab qolgan holda tarkibiy qismlari, ya’ni joylardagi mahalliy davlat hokimiyati idoralari tizimi, o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari mustaqilligini va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishini yanada kengaytirib borish orqali amalga oshiriladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, «barcha mamlakatlar uchun, ularga xos xususiyat va alomatlarni hisobga olgan holda, birdek mos keladigan yakkayu yagona – universal demokratiya modeli yo‘q va bo‘lishi mumkin emas»³.

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – Б.117.

² Qarang: Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.367.

³ Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. – Т., 2006. – Б.68.

Yurtboshimizning jamiyatni modernizatsiyalash bo‘yicha bildirgan fikr va mulohazalari, g‘oyalari hamda ko‘rsatmalariga asoslangan holda shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda huquqiy demokratik davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida demokratiya-ni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir¹.

Jamiyatni modernizatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarini, ahamiyatidan kelib chiqqan holda, quyida sohalarga ajratib tahlil qilamiz.

1. Jamiyatni modernizatsiyalashning asosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, unga demokratik erkinliklarning mazmun va mohiyatini to‘g‘ri tushunib olish hamda uni amalda qo‘llash imkoniyatlarini yaratib berishdan iboratdir. Hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, siyosiy madaniyat, avvalo fuqarolar, davlat idoralari va uning mansabdar shaxslari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari hamda o‘zini o‘zi boshqarish idoralarining Konstitutsiya va qonunga bo‘ysinishidan boshlanadi. Shuning uchun ham biz o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan adolatli fuqarolik jamiyatida nafaqat aholi siyosiy-huquqiy bilimining oshishi, siyosiy ongingin yuksalishi, balki, birinchi navbatda, barcha darajadagi mustaqil hokimiyat tarmoqlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o‘zini o‘zi boshqarish idoralari faoliyati samaradorligining ortishiga ham alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo‘lidan borayotgan har bir jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati yuksak, erkin fikrlaydigan va sog‘-lom tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashga intiladi. Faqat ana shunday shaxslar yashayotgan jamiyatdagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, haqiqiy ko‘ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi, inson huquq va erkinliklari to‘liq ta’milanadi, insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash prinsipi hayotning asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, uni amalga oshiruvchisi, tarqatuvchisi va rivojlantiruvchisi insondir. Demokratiya xalqning hokimiyatga o‘zi egalik

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.177.

qilishi va uni o‘zi amalga oshirishigina bo‘lib qolmay, ayni paytda jamiyatning har bir a’zosi va butun xalqning o‘z davlati va jamiyatining kelajagi, o‘z taqdiri oldidagi mas’uliyati hamdir. Shuni iftixor bilan qayd etish joizki, «fuqarolarimiz saylovlargacha mamlakatimiz hayotidagi eng muhim, jamiyatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga ta’sir ko‘rsatadigan siyosiy voqeа sifatida yondashdilar. Bu ham bizning jamiyatni demokratlashtirish aholining siyosiy madaniyatini yuksaltirish sohasida erishgan eng katta yutuqlarimizdan biridir»¹.

2. Jamiyatdagi qarama-qarshi kuchlar va harakatlar, turli manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni barqaror ta’minlaydigan mexanizmni barpo etish, siyosiy hayotda haqiqiy ma’nodagi ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish ham jamiyatni modernizatsiyalashning asosiy muammolaridan biridir. Iqtisodiy sohada turli shakllardagi mulklarning vujudga kelayotgani va ularning qonun oldida tengligi hamda davlat tomonidan teng muhofaza qilinishi jamiyatda har xil ijtimoiy qatlam va guruhlarning shakllanishini taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, turli mulk shakllarining vujudga kelishi va ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga muvofiq holda manfaatlari o‘zaro mos kelmaydigan qarama-qarshi kuchlar hamda harakatlarning ham paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda «Adolat» sotsial demokratik, «Milliy tiklanish» demokratik, «Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Liberal-demokratik» va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyalarining faoliyat yuritayotgani ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanganidan dalolatdir. Mamlakatimiz siyosiy maydonida tobora mustahkam o‘rin egallayotgan va xalqimiz o‘rtasida o‘ziga e’tibor tortayotgan, aholimizning ma’lum ijtimoiy guruhlari manfaat va intilishlarini ifoda etishga qodir bo‘lgan partiyalarga davlat rahbari lavozimiga nomzodlarni ko‘rsatish huquqi berilishi, o‘z navbatida, barcha demokratik norma va talablarga to‘liq javob beradi².

Jamiyatda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi, siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, birinchi navbatda, parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarning demokratik qonunlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish jarayonida faol ishtirok etishlari, parlament faoliyatini tashkil etishda, shuningdek vakillik va ijroiya hokimiyat

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи хеч қачон, хеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.176.

² Qarang: Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б.145.

organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishdagi roli kuchay-ganligi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi mexanizmni shakllantiradigan asosiy omillardan biridir.

Har bir siyosiy tashkilot o‘z manfaatlari bilan boshqa siyosiy birlash-malardan farq qiladi. Aynan guruhiy manfaatlar siyosiy partiya maqsadiga asos qilib olinadi. Umumiyligi ijtimoiy manfaatga xizmat qilish siyosiy tash-kilotning guruhiy manfaatga ega ekanligini rad etmaydi. Bu o‘rinda gap siyosiy partianing o‘z guruhiy manfaatini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashirish xususida borishi mumkin. Ammo, ba’zi manbalarda qayd etilganidek, guruhiy manfaatlar o‘z-o‘zidan davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashavermaydi, aks holda siyosiy plyuralizmga o‘rin qolmas edi. Siyosiy guruhlar manfaatining mavjudligini nafaqat tan olish, balki ularning o‘zaro tortishuvlari va bir-birlarini nazorat qilishini qo‘llab-quvvatlash ham zarur. Ijtimoiy bahslar, tortishuv va yondashuvlar ijtimoiy-siyosiy hayotni jonli va jo‘shqin qiladi, eng muhimi, guruhlar o‘rtasida o‘zaro nazoratni yuzaga keltiradi, davlat yakkahokimligiga, amaldorlar-ning o‘z vazifasini suiiste’mol qilishiga yo‘l qo‘ymaydi¹.

Bugungi kunda jamiyatdagi manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish, haqiqiy ko‘ppartiyaviylikni qaror toptirish, mulkdorlar sinfi va o‘rta sinf shakllanishini jadallashtirish, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hamkorlik va sherikchilikni vujudga keltirish, milliy istiqlol g‘oyasini jamiyat ongiga muntazam va bosqichma-bosqich singdirib borish kabi omillar orqali ta’minlanmoqda².

3. Jamiyatda nafaqat barcha darajadagi davlat hokimiyatining hamma tarmoqlari bir-biridan ajralgan holda va mustaqil faoliyat ko‘rsatishi, balki barcha nodavlat tuzilmalari, hukumatga qarashli bo‘limgan jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining Konstitutsiya va qonunlar asosida bir-biridan mustaqil hamda erkin faoliyat olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning faolligini oshirishga yordam ko‘rsatish bugungi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu muammoning hal etilishi jamiyatning demokratik prinsiplariga va amaldagi qonunlariga asoslangan holda, hech bir siyosiy kuchning mafkurasiga qaram bo‘lmasdan erkin faoliyat ko‘rsa-

¹ Qarang: *Мамадалиев Ш.О.* Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б.168–169.

² Qarang: *Эркаев А., Мўминов А., Қаҳрамонов А.* Ўзбекистонда барпо этилаётган жамият. – Т., 2002. – Б.10.

tadigan, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra jamiyatning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladigan illatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga qodir bo‘lgan siyosiy tizimni shakllantirishga imkon beradi.

Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatdan yangilashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri so‘z va matbuot erkinligini, shuningdek oshkorlikni, jamiyatda o‘tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta’minlaydigan demokratik prinsiplarni so‘zda yoki qog‘ozda emas, balki amalda joriy qilishdir. Axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari – matbuot, radio-televiedeniye faoliyatini erkinlashtirish fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi zarur¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da ommaviy axborot vositalarining fuqarolarning axborot olish va tarqatish bo‘yicha qonuniy huquq va erkinliklarini ta’minlash, hokimiyat va jamoatchilik o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, fuqarolik jamiyatni institutlari tizimidagi o‘rni va rolini yanada mustahkamlash hamda qo‘llab-quvvatlash borasida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Respublika ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan sohada izchillik bilan olib borilayotgan siyosat natijasida fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida tobora muhim o‘rin tutib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan gazeta, jurnal, axborotnoma-bulleten, radio, televiedeniye, axborot agentliklari, veb-saytlar kabi jami yetti turdagiligi ommaviy axborot vositalari davlat ro‘yxatiga olingan.

Sohaning davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanishi zamirida mamlakatimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning axborot va so‘z erkinligini ta’minlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan buyuk bunyodkorlik mohiyatini jahon hamjamiyatiga yetkazish kabi ezgu maqsadlar mujassam ekanini alohida qayd etish lozim.

Mustaqillikning ilk yillarda, ya’ni 1991-yilda ommaviy axborot vositalarining umumiy soni 395 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugun ular 1454 tani tashkil etadi. Ular 686 ta gazeta, 302 ta jurnal, 15 ta axborotnoma-bulleten, 4 ta axborot agentligi, 66 ta televiedeniye, 34 ta radio, 350 ta internet nashrlar (veb-saytlar)dir. Ularning 775 tasi, ya’ni 60 foizi nodavlat ommaviy

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.23.

axborot vositalaridir. Hozirda ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 tilida faoliyat olib bormoqda.

Respublika ommaviy axborot vositalarining rivojlanish dinamikasi tahlili milliy axborot makonida xususiy sektor salmog'ining oshib borishini hamda uning axborot va so'z erkinligi, fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda faol ishtirokini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar erkin faoliyat ko'rsatishi uchun qonuniy asos, zarur shart-sharoitlar yaratilgan. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida», «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida», «Reklama to'g'risida» kabi 10 dan ortiq qonun va 30 ga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilingan¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «barcha ommaviy axborot vositalariga, mulk shakli, tiraji, qamrovi hamda mavzu yo'nalishidan qat'i nazar, ularning mamlakatimiz axborot maydonidan halol raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun davlat zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim»².

4. Bugungi kunda jamiyatni modernizatsiyalash, birinchidan, markaziy davlat hokimiyyati idoralarining ma'muriy hududlarni boshqarish bo'yicha vakolatlarining bir qismini mahalliy davlat hokimiyyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish orqali ularning faoliyatini yanada kengaytirish, ikkinchidan, jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda boshqa jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishdir. Bunday jarayonni samarali amalga oshirish, eng avvalo, odamlar siyosiy-huquqiy ongingining oshib borishi, siyosiy-huquqiy madaniyati va faolligining yuksalib borishiga bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida davlat va jamiyatni boshqarish sohasidagi vazifa va funksiyalar uch yo'nalishda qayta taqsimlanib borilmoqda. *Birinchi yo'nalish* – respublika markaziy hokimiyyat idoralarining ayrim vakolatlari bosqichma-bosqich mahalliy davlat hokimiyyati idoralari zimmasiga yuklatilishi. *Ikkinci yo'nalish* – mahalliy davlat hokimiylatlari vakolatlarini, ayniqsa aholini ijtimoiy himoyalash, hududlarda istiqomat qilayotgan aholining urf-odatlari, an'analari, hayot tarzining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

² Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.23–25.

yashashning umumiyligi tartib-qoidalarini belgilash, tartibga solish, nazorat qilish hamda kommunal xizmatga taalluqli masalalarni hal etish bilan bog‘-liq huquq va majburiyatlarni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari zimmasiga o‘tkazib borish. *Uchinchi yo ‘nalish* – davlatning ayrim vakolatlarini Konstitutsiya va qonunlar asosida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tuzilmalari zimmasiga o‘tkazish orqali ularning jamiyatni boshqarishdagi mas’uliyatini oshirib borish.

5. Demokratik huquqiy davlat qurish vaadolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan siyosiy jabhada islohotlarning samarali amalga oshirilishi, eng avvalo, bu jarayonda ishtirok etayotgan turli bo‘g‘indagi kadrlarga, ayniqsa rahbar kadrlarga bog‘liqdir. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «rahbarlarni tanlash va tarbiyalash, kerak bo‘lsa rahbarlik mehnatiga, to‘g‘riroq aytadigan bo‘lsak, rahbarlik san’atiga o‘rgatish masalasi bugungi kunda boshqarish tizimining eng og‘ir muammosi bo‘lib qolmoqda»¹. Islohotlarning muvaffaqiyati kadrlarning malakasiga, ularning tashkilotchilik qobiliyati, yangi davr talablarini nechog‘lik o‘zlashtirib olgani, jonkuyarligi, halol va pokligiga, qolaversa, vatanparvarligiga bog‘liq. Boshqaruv tizimini takomillashtirish bevosita rahbarning ma’naviyati, shaxs sifatidagi kamoloti, yetuk va komil insonligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda². Ilgari bo‘lgani kabi kadrlarni shunchaki tanlab, joy-joyiga qo‘yish bilan ish bitmaydi. Avvalo, odamlarni, birinchi galda barcha darajadagi boshqaruv va ishlab chiqarish rahbarlarini o‘qitish, tarbiyalash kerak³.

Bunday vazifani hal etish har qanday davrda ham osonlikcha hal bo‘lmagan. Chunki bu odamlarning tafakkuri va dunyoqarashini o‘zgartirishni taqozo etadigan, jamiyatdagi mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, loqaydlik, boqimandalik, korrupsiya kabi illatlarni bartaraf etish, kadrlar bilan ishslash, ularni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni talab qiladigan uzoq muddatli jarayondir.

Bugungi kunda iste’dodli, izlanuvchan, chuqur bilim va yuksak malakaga, siyosiy-huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan, Vatanga, ona zaminga sodiq, o‘z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirgan holda faoliyat yurituvchi, Respublika Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «kechayu-kunduz el g‘ami tashvishi bilan yashab, oldida

¹ Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч–қудратимизга, хамжихатлигимиз ва қаттий иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т., 2004. – Б.177.

² Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – Б.204–205.

³ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6.–Т., 1998.–Б.304.

turgan muammolar yechimini topmaguncha, boshlangan ishlarni oxiriga yetkazmaguncha o‘ziga ham, boshqalarga ham tinim bermasdan mehnat qiladigan insonlarga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat davlat idoralarida, balki jamiyat siyosiy tizimining barcha tarkibiy qismlarida ham mavjuddir»¹.

6. Jamiyatning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik va milliy g‘oyaga sodiqlik fazilatlarini shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlar kelgusida siyosiy tizimning barcha tarkibiy qismlarini yuksak ma’naviyat va siyosiy-huquqiy madaniyatga, chuqur bilim va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega kadrlar bilan ta’minalash imkonini beradi. Mamlakatimizning demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tuzumga xos bo‘lgan barcha asosiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi bosqichma-bosqich, izchil harakati hozirgi kunda hech qanday kuch to‘xtata olmaydigan muqarrar, qonuniy jarayonga aylandi².

O‘zbekistonda bilim olish tizimi oila va mакtabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang‘ich, tayanch, o‘rta maktablarda, boshqa ta’lim yurtlari (gimnaziya, litsey va boshqalar)da umumiyligini ta’lim olish bilan, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimi bo‘yicha shakllangan.

Butunjahon banki ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining savodonlik darajasi 99,34 foizga yetgan. Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasbhunarga ega bo‘lgan yoshlarga mamlakatning buyuk kelajagini ta’minalashi mumkin. Yurtboshimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar»³.

Fuqarolik jamiyatining intellektual salohiyatini ta’minalash va muttasil yuksaltirib borishda mакtabning ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga egaligi ta’kidlangan. Bilim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. Mamlakatda ta’lim va tarbiya insonparvar va demokratik xarakter-

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч–қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатый иродамизга боғлиқ. Т.12. – Т., 2004. – Б.177.

² *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.176.

³ *Каримов И.А.* Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010. – Б.95.

ga ega. Istiqlol yillarida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish maqsadida 200 ga yaqin huquqiy hujjat, jumladan 15 dan ortiq qonun, Prezidentimizning 60 dan ortiq farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 100 dan ziyod qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda respublikamiz xalq ta'limi tizimida 9698 ta umumta'lim mакtabida 4,6 million ortiq (4682477 nafar) o'quvchilarning huquqiy ongini yuksaltirish uchun jami 385625 nafar pedagog faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2015-yilda 1-sinfga borgan 631000 nafardan ortiq bolaga 12 nomdagi o'quv quroli va portfellar tekinga berildi. Shuningdek, 492493 nafar ehtiyojmand oila farzandlariga qishki kiyim-bosh to'plami berildi¹.

Yurtimizda ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. 2014-yilda hammasi bo'lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan 380 ta mакtab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'mirlash uchun ajratildi. 2011–2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish das-turi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi². 2015-yilning o'zida 353 ta umumta'lim mакtabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shuningdek, 147 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseyda qariyb 400 milliard so'm hajmidagi kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirildi³. Ta'lim-tarbiya muassasalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bugungi kun talablari asosida jihozlash maqsadida 2015-yilda davlat budgetidan ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz hamda sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflandi⁴. 2020-yilgacha esa 500 ta

¹ Qarang: Ўзбекистонда оила, оналик ва болаликни муҳофаза қилишнинг концептуал масалалари // Республика илмий-амалий конференция материалы тўплами. – Т., 2016. – Б.131.

² Qarang: Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.236–238.

³ Qarang: Каримов И.А. Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошлиган ислоҳотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Т.23. – Т., 2015. – Б.286.

⁴ Qarang: Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.237–238.

umumta'lim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, jumladan 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarni kapital ta'mirlash rejalashtirilmoqda. Tibbiyot sohasida 2015-yilda 98 million dollar hajmidagi mablag‘ hisobidan 83 ta tibbiyot muassasasini, 2020-yilgacha esa 180 million dollardan ziyod mablag‘ evaziga 230 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash nazarda tutilmoqda¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. 2014-yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan 18 ta namunaviy sport obyekti va 73 ta maktab sport zali barpo etilgani, 24 ta obyektda qariyb 100 milliard so‘mlik rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda².

Jumladan, davlat budgetining sotsial sohalarga yo‘naltirilgan yillik xarajatlari izchil oshib borayotganini, birgina 2015-yilda ushbu raqam 60 foizdan ortganini bu boradagi keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy nati-jasi sifatida yosh avlodimizni sog‘lom va barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mohiyatini, xususan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan barcha viloyat, shahar va tumanlarimizda 300 ga yaqin musiqa va san’at maktablari, 1 ming 900 dan ziyod sport inshootlari bunyod etilgani, so‘nggi o‘n yilda bolalar va o‘smirlar o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanish darajasi 30 foizdan 57 foizga, qizlar o‘rtasida 24 foizdan 47 foizga yetdi³.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Эришган марралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислоҳотларимизни янги босқичга кўтариш – бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир. Т.23. – Т., 2015. – Б.286–287.

² Qarang: *Каримов И.А.* Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.238.

³ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 июндаги «Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 25 йиллик байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўtkазиш тўғрисида»ги қарори // <http://www.press-service.uz/uz/document/5257/>

Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari erishayotgan g‘alabalar tobora ko‘payib bormoqda. Barchamizga mammuniyat yetkazadigan tomoni shundaki, iste’dodli o‘g‘il-qizlarimiz xalqaro maydonlarda qo‘lga kiritayotgan katta g‘alabalari bilan O‘zbekiston yoshlari ning hech kimdan kam emasligini takror va takror namoyon qilmoqda. 2015-yili 1 ming 668 nafar sportchilarimiz, jumladan 567 nafar qizlarimiz 165 ta xalqaro musobaqaqada ishtirok etib, 983 ta medalni qo‘lga kiritganini, yosh iqtidorli musiqachi va ijrochilarimiz nufuzli xalqaro tanlovlarda 137 ta sovrinli o‘ringa sazovor bo‘lganini va ularning 76 tasi Gran-pri va birinchi o‘rin ekanini aytish joiz. Sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim va kuchli omili bo‘lib kelmoqda va kelgusida ham shunday bo‘lib qolishi shubhasiz¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 9-fevral qarori asosida «Sog‘lom ona va bola yili» Davlat dasturi qabul qilindi. Qabul qilingan yil dasturiga asosan avvalo aholi turmush darajasini eng yuqori pog‘onalarga ko‘tarish, ona va bola salomatligini ta’minlash, sog‘lom farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida qaratildi. Respublikamizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan zamonaviy maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, bolalar ijodiyoti markazlari, muhtasham sport saroylari, tibbiyot maskanlari bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, bugun bizning demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, zamonaviy iqtisodiyot tizimini barpo etish, dunyoda o‘zimizga munosib o‘rin egallash yo‘lida erishayotgan yutuqlarimizni va barqaror natijalarimizni jahon jamoatchiligi tan olayotgan ekan, «...Buning boisi – avvalo, el-yurtimizning qanday boy tarix va madaniy-ma’naviy merosga ega ekanida, uning intellektual salohiyati va ildizlari naqadar chuqur ekanida, xalqimizning o‘z oldiga qo‘ygan yuksak maqsadlarga erishish yo‘lida qanday buyuk ishlarga qodir ekanidadir. Buning boisi – biz hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaganmiz va ezgu maqsad-muddaomiz bo‘lmish erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo‘lmaymiz»².

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Соғлом халқ, соғлом миллат буюк ишларга қодир бўлади // Халқ сўзи. – 2016. – 11 февраль.

² *Каримов И.А.* Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.170.

3.2. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari hamda ular faoliyatini takomillashtirish

Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda aholining turli ijtimoiy guruhlari va keng qatlamlari manfaatlarini ifoda etadigan mustaqil va barqaror nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi¹.

Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar – nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, jamoat tuzilmalari va harakatlar hozirgi zamон siyosiy jarayonining asosiy ishtirokchilaridir. Bugungi kunda jamiyatning siyosiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning o‘rni va ahamiyati borgan sayin ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar», deb ko‘rsatilgani jamiyatda ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning vujudga kelishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun konstitutsiyaviy asosdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston qonunlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarni ularning maqsadlari va faoliyatining mazmun-mohiyatiga ko‘ra shartli ravishda quyida-gi guruhlarga ajratish mumkin: a) siyosiy partiyalar va harakatlar; b) aholining muayyan toifalari yoki jamiyat ijtimoiy hayotining muayyan sohalari manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tuzilmalari; d) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari.

Biz quyida ularning bugungi kunda O‘zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi faoliyati va o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

Demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish muammolarini siyosiy partiyalar va ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini chuqur o‘rganmay turib ijobiy hal qilib bo‘lmaydi.

Iste’dodli yosh olim A. Yangibayevning fikricha, «zamonaviy demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar faoliyatining eng muhim maqsadi –

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида.* Т.16. – Т., 2008. – Б.42.

jamiyat va davlat o‘rtasida ikki tomonlama aloqani ta’minlash. Bunday o‘zaro aloqa u yoki bu masala, siyosiy harakatlar amaliyoti hamda bir qator muhim jihatlarning mushtarakligiga asoslangan, jamiyat va davlat manfaatlarini ifodalovchi uzoq muddatli siyosiy dasturlarni amalga oshirish yuzasidan yagona nuqtai nazarni yaratishdan iborat. Fuqarolik jamiyatining boshqa subyektlaridan farqli o‘laroq, siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirish, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlariga amalda ega bo‘ladi»¹.

O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»²gi qonunining 1-moddasida: «Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir», deb ko‘rsatilgan. Siyosiy partiyaga qonunda berilgan ushbu ta’rifda quyidagilarni ajratib ko‘rsatish joizdir: siyosiy partiya, *birinchidan*, qarashlari, manfaatlari va maqsadlari bir yoki juda yaqin bo‘lgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi asosida tuziladi; *ikkinchidan*, jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarish maqsadida davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirok etadi; *uchinchidan*, qonunda belgilangan tartibda saylangan vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini boshqarishda qatnashadi. Siyosiy partiyalarning faoliyat yo‘nalishi negizidagi ixtiyoriylik, ko‘ngillilik va ochiqlik ularning O‘zbekistonda barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Professor SH. Mamadaliyev siyosiy partiyalarning vujudga kelishi borasida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Siyosiy partiyalar davlatning yak-kahokimligi va mutlaqligini cheklash maqsadida paydo bo‘ladi. Dastlab ular yashirin holda va hukmdorlarning mustabid tuzumini tanqid qiluvchi kishilarning ixtiyoriy uyushmalari sifatida yuzaga kelgan. Hurfikrlilik, erk va ozodlik uchun kurash g‘oyalarining, ilmu ma’rifatchilik harakatining keng yoyilishi bilan demokratik g‘oyalarni himoya qiluvchi, davlatning

¹ Янгибаев А.К. Ўзбекистон Республикаси сиёсий партияларининг давлат ҳокимияти органларини шакллантиришда иштирокининг конституциявий-хуқуқий асослари. – Т., 2015. – Б.16.

² Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – №2. – 36-м.

yakkahokimligini cheklashga da'vat etuvchi siyosiy birlashmalar, partiyalar ijtimoiy-siyosiy tizimda o'z o'mini topa bordi»¹.

Huquqshunos olim T. Rahmatullayevning fikricha, bugungi kundagi siyosiy partianing o'ziga xos xususiyatini o'z vakolatini hukumatga o'tkazish, davlat hokimiyatini o'z qo'lida saqlab turish hamda unga ta'sir ko'rsatish uchun saylovlarda ishtirok etish tashkil etadi. Partiya o'z maqsadini amalga oshirishi, jamiyatga ta'sir o'tkazishi uchun partiya a'zolari siyosiy tizimda rahbarlik o'rinalarini egallashlari lozim. Shundan ko'rinib turibdiki, hokimiyatga intilish har bir partianing asosiy belgisidir. Jamoatchiligidan orasida aksariyat ushbu haqiqatni yo tushunmaydi, yo tan olgisi kelmaydi, aksincha undan qo'rqadi. Qachonki siyosiy partianing ildizi jamiyat, xalq orasiga kirib borsa, yuqori qismi davlatga yetib boradi. Ya'ni, siyosiy partiya jamiyat ichidan chiqib, uning muammolarini chuqur anglaydi va ularni siyosiy yo'l bilan hal etish uchun o'rtaga tashlaydi. Boshqacha aytganda, partiya muammoni hal etish yo'lida oshkoraliyki ta'minlab, jamoatchilik nazorati o'rnatilishiga olib keladi².

Siyosiy partiyalarning mavjudligi – demokratik tizimlar rivojlanishining zaruriy shart-sharoitlaridan biri. Demokratiya tamoyillari nuqtai nazaridan yondashganda esa, siyosiy partiyalar davlat organlari tizimiga kirmaydi va bevosita davlat ishlarida ishtirok etmaydi. Ammo siyosiy partiyalar bir vaqtning o'zida ham davlat sohasiga, ham fuqarolik jamiyatiga taalluqli institut ekanligi bilan ajralib turadi³.

Siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi, ularning soni, dasturiy yo'l-yo'riqlarining o'ziga xosligi ijtimoiy manfaatlar yig'indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo'l bilan belgilanmog'i kerak. Siyosiy partiyalar mavjud bo'lishining asosiy va birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me'yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo'lmos'humi lozim. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar xalq bilan hokimiyat o'rtaSIDA asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan demokratik institutga tezroq aylanishi g'oyat muhimdir⁴.

Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda siyosiy partiya institutlari orqali ishtirok etishini yanada faollashtirish maqsadida 2004-yil

¹ Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б.163.

² Qarang: Раҳматуллаев Т. Сиёсий партия ва демократик тамойиллар. – Самарқанд, 1989. – Б.12.

³ Qarang: Қирғизбоеев М. Фуқаролик: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т., 2010. – Б.109–110.

⁴ Qarang: Каримов И.А. Ҳавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б.152–153.

30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risida»gi qonuni¹ qabul qilindi. Ushbu qonun siyosiy partiyalarni moliyalashtirish manbalari, uning asosiy prinsiplari, siyosiy partiyalarning davlat tomonidan moliyalashtirish va xayriya yordami berish, mablag‘lardan qonunda belgilangan maqsadlarda foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish tartiblarini belgilab berdi. Qonunning 6-moddasiga asosan, siyosiy partiyalar moliyaviy va boshqa manbalardan, qonunda hamda ustavlarida nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanadi. Bu mablag‘lardan boshqa maqsadlarda foydalanish taqilganadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinishi, *birinchidan*, fuqarolarning siyosiy partiyalarga birlashish faolligini oshirishga; *ikkinchidan*, barcha siyosiy partiyalarga o‘z faoliyatlarini yanada erkin va oshkora olib borishga; *uchinchidan*, ularning o‘z moliyaviy ahvolini mustahkamlashlari uchun bir xil qonuniy imkoniyatlar vujudga keltirishga; *to‘rtinchidan*, barcha partiyalarga, ularning moliyaviy holatidan qat‘i nazar, davlat hokimiyati idoralari tizimini shakllantirishda ishtirok etish uchun bir xil shartsharoitlar yaratishga; *beshinchidan*, siyosiy partiyalarning «kimlarningdir» g‘arazli niyatlarini amalga oshirish quroli sifatida faoliyat olib borishi uchun moliyalashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik va bunday holatlarning oldini olishga qaratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov sobitqadamlik bilan olib borayotgan siyosat va amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma’nodagi ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Siyosiy partiyalar aholi muayyan qatlamlarining, fuqarolar hamda ular uyushmalarining fikrini, nuqtai nazarini ifodalashning muhim demokratik vositasidir². «Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlama tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o‘zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo‘lishi kerak. Unda har qaysi partianing maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o‘z ifodasini topishi lozim. Amalda ko‘ppartiyaviylik – bu har xil qarash va g‘oyalar o‘rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партияларни давлат томонидан молиялаштириш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №5. – 86-м.

² Qarang: Одилқориев X.T. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2002. – Б.89.

maydonidir»¹. Siyosiy partiyalarning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish ularning qonunchilik va davlat boshqaruvi idoralari faoliyatiga, mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga amaliy ta'sirini kuchaytirish yo‘lida yangi-yangi imkoniyatlar ochib bermoqda².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi tartibida kiritgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning qabul qilinishi, hech shubhasiz, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida asosiy va hal etuvchi rol o‘ynadi³.

Ushbu qonunlar siyosiy partiyalarning: *birinchidan*, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida faoliyat olib boruvchi fraksiyalar, shu jumladan rasmiy ravishda faoliyat olib boruvchi muxolifatning huquqiy maqomini; *ikkinchidan*, Qonunchilik palatasida tuzilgan fraksiyalarning vakili Spiker o‘ribbosari lavozimlaridan birini egallashda kafolatli huquqqa ega bo‘lishini; *uchinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini tayinlash va ozod qilishdagi vakolatlari hamda uni amalga oshirish tartibini; *to‘rtinchidan*, viloyatlar, Toshkent shahar hokimini tayinlash va tasdiqlash bo‘yicha vakolatlari hamda uni amalga oshirish tartibini; *beshinchidan*, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini amalga oshirish tartibini aniq belgilab berdi.

Davlat boshqaruvida bunday jarayonlarning huquqiy tartibga solinishi, albatta, huquqiy davlat barpo etish vaadolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi davrini boshlab berdi. Ushbu qonunlarning qabul qilinganligi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning davomi, mamlakatning huquqiy va siyosiy tizimini bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlantirish natijasi, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tashlangan muhim qadam bo‘ldi.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000. – Б.333.

² Qarang: Каримов И.А. Жамиятни эркинлаштириш, ислохотларни чукурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг хаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б.103.

³ Qarang: Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б.38.

Mazkur qonunlarning amalda tatbiq etilishi esa butun siyosiy tizimga, davlat qurilishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar, mamlakatni demokratik jihatdan yangilash jarayonlariga ham chuqur ta'sir o'tkazadi.

2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida»gi qonun¹ bilan amaldagi 13 ta qonun hujjatlariga, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi birinchi qismiga tuzatishlar kirtildi. Unga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat»ligi belgilandi. Bu kiritilgan o‘zgartish va qo‘sishimchalar mamlakatimizning saylov qonunchiligini takomillashtirish va demokratlashtirish yo‘lidagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. Saylov qonunchiliga kiritilgan o‘zgarishlarga muvofiq, 2009-yilda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga o‘tkazilgan saylov natijalarining tahlili siyosiy partiyalar aynan ularning huquqlari va vakolatlari kengayishi hisobiga saylov kampaniyalarida yanada faolroq ishtirok eta boshlaganlarini ko‘rsatdi.

Tahlillar Respublikamizning konstitutsiyaviy-huquqiy tajribasi, siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvi subyekti sifatidagi roli kuchayib bora-yotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»ni e’lon qildi. Ushbu konsepsiya asosida, 2011-yil 18-aprelda «O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) qonun² qabul qilindi. Mazkur o‘zgartishlarga ko‘ra, endilikda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Сайлов тўғрисидаги қонун ҳужжатлари такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонуларига ўзгартериш ва қўшимчалар киритиш хақида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – №52. – 510-м.

² Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2011. – №16. – 159-м.

siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozmiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiyl sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko‘rib chiqish uchun o‘z vakolati davridagi faoliyati dasturini taqdim etadi, O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining asosiy ko‘rsatkichlari va unga kiritiladigan o‘zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ularni mamlakat parlamenti ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Mamlakatimiz saylov qonunchilagini yanada takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan keyingi o‘zgartirish va qo‘srimchalar 2014-yil 20-yanvarda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonun¹ga kiritildi. Unga binoan, siyosiy partiyalar faqat o‘z partiyasi a’zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatadi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari esa, u yoki bu partiyaga mansubligidan qat’iy nazar, shaxslarni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatishga haqlidir. Deputatlikka nomzod etib fuqarolar orasidan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida, tegishli viloyat, tuman shahar iqtisodiyotini rivojlantirishda faol ishtiroy etayotgan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning, fermerlik harakatining samaradorligini oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslar ko‘rsatiladi.

Yuqoridagilarning mantiqiy davomi sifatida saylov islohotlaridagi keyingi qadam 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga) qonun²

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларига сайлов тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – №4. – 45-м.

² Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айrim moddalariga ўзгартиш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида»ги (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-moddalariga) қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – №16. – 176-м.

bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar hokimiyat va boshqaruv tizimini yanada demokratlash-tirish, «kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari» prinsipi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro‘yobga chiqarish borasidagi mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati va parlament nazoratining amalga oshirilishi konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlandi.

2015-yil 29-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun¹ qabul qilindi. Unga asosan, mamlakatimiz qonunlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilib, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatidagi ishtiroki kuchaytirildi. 2016-yil 11-aprelda «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi qonun² qabul qilindi. Ushbu qonunga muvo-fiq, siyosiy partiyalar fraksiyalari parlament nazoratining bevosita subyektlariga aylandi. Parlament nazoratining subyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir va davlat hokimiyati boshqaruvi organlari rahbarlari hamda boshqa ijro hokimiyati tizimi bo‘yicha parlament so‘rovi, deputatlik so‘rovi, hisobotlarni eshitish va parlament tekshiruvlarini amalga oshirishga ega bo‘ldi.

Ko‘rib turganimizdek, O‘zbekiston Respublikasida partiyaviy qurilish jarayoni demokratiya, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati taqdiri uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Parlament faoliyatida ishtirok etish jarayonida O‘zbekiston siyosiy partiyalari katta tajriba to‘pladilar. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlarda ularning roli va ta’siri kuchaydi. Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari fraksiyalararo parlament kurashining real subyektlariga aylandilar. Siyosiy

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2015. – №52. – 645-м.

² Ўзбекистон Республикасининг «Парламент нazorati тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2016. – №15. – 141-м.

partiyalarning parlamentdagi qizg‘in faoliyati qabul qilinayotgan qonunlar sifatiga ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda¹.

Siyosiy hayotning izchil demokratlashuvi, siyosiy partiyalar rolining kuchayishi va vakillik hokimiyati asoslarining mustahkamlanishi davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayoniga ijobjiy ta’sir ko’rsatdi, nafaqat parlamentni, balki davlat ijroiya hokimiyati organlarini ham kuchaytirish imkoniyatini berdi.

Siyosiy partiyalar davlat organlarini shakllantirishda faol ishtirok etadilar. Xalqimiz hokimiyatning egasi sifatida to‘rt marotaba Prezidentlik (1991, 2000, 2007, 2015), besh marotaba parlament (1994, 1999, 2004, 2009, 2014) saylovlarida ishtirok etib, o‘zining hokimiyatga bo‘lgan egalik huquqini namoyon etdi. Xususan, parlament va prezident saylovlar haqiqiy ma’noda ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazildi. Bu fuqarolarning siyosiy jarayonda demokratik ishtirok etishini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi.

Siyosiy partiyalarning faolligini quyidagilarda ko‘ramiz: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlament shakliga o‘tkazilgandan keyin, ilk bor **2004-yil 26-dekabrda** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatimizda amalda faoliyat yuritgan 5 ta siyosiy partiya va fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan nomzodlar taklif etildi. Saylov natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining barcha 120 deputati saylandi va ro‘yxatga olindi. Saylovlarda 489 nafar deputatlikka nomzodlar ko‘rsatilib, shulardan saylovchilar tashabbuskor guruhi nomzodlari sifatida 54 nafar kishi va siyosiy partiyalardan nomzod sifatida 435 nafar kishi ishtirok etdi. Saylov yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi saylovchilari eng ko‘p ovoz oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,2 foizi saylandi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3 foizi saylandi. Shuningdek, Fidokorlar partiyasining 18 nafar a’zosi, «Milliy tikanish» demokratik partiyasining 11 nafar a’zosi, «Adolat» sotsial demokratik partiyasining 10 nafar a’zosi va saylovchilar tashabbuskor guruhlari ning 14 nafar a’zosi Qonunchilik palatasiga saylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylovda bir yuz ellik nafar deputat, shu jumladan uning o‘n besh nafar deputati O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylanishi belgilandi. **2009-yil 27-dekabrda** bo‘lib o‘tgan saylovda 4 ta siyosiy partiya Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarda o‘z nomzodlari bilan ishtirok etishga ruxsat beril-

di. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 135 ta o‘rniga 517 nafar deputatlikka nomzodlar ishtirok etdi. Umumiy saylov natijalariga ko‘ra, tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan – 53, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan – 32, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidan – 31, «Adolat» sotsial demokratik partiyasidan – 19 nafar, O‘zbekiston Ekologik harakatining vakilalaridan 15 nafar deputat saylandi. Saylangan 150 nafar deputatning 33 nafari, ya’ni 22 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyat, tuman va shahar davlat hokimiyati organlariga navbatdagi saylov **2014-yil 21-dekabrda** bo‘lib o‘tdi. Unda 4 ta siyosiy partiya Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinib, saylovda ishtirok etdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha tuzilgan 135 saylov okrugidan 127 tasida deputatlik mandati uchun 4 nafardan nomzod va qolgan 8 tasida 3 nafardan nomzod kurash olib bordi. Saylovchilar ro‘yxatiga mamlakatimiz bo‘yicha 20 million 789 ming 572 nafar fuqaro kiritildi. Shundan 18 million 490 ming 245 nafari yoki 88,94 foizi saylovda qatnashdi. Ilk ovoz berish natijalariga ko‘ra, 113 ta saylov okrugida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylandi. Ularning 47 nafari O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan, 28 nafari O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan, 21 nafari O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan, 17 nafari «Adolat» sotsial demokratik partiyasidan deputat bo‘lib saylandi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, 21 dekabr kuni O‘zbekiston Ekologik harakati konferensiyasida 15 nafar nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib saylandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha 22 ta saylov okrugida nomzodlarning birortasi ham saylanish uchun yetarli bo‘lgan ovozlarni to‘play olmadi. Markaziy saylov komissiyasi qaroriga ko‘ra, 22 ta saylov okrugida takroriy ovoz berish 2015-yilning 4-yanvar kuni o‘tkazildi. Umumiy saylov natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafari, O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 36 nafari, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafari va «Adolat» sotsial demokratik partiyasidan 20 nafari deputat bo‘lib saylandi¹.

¹ Qarang: Янгибаев А.К. Ўзбекистон Республикаси сиёсий партияларининг давлат ҳокимияти органларини шаклантиришда иштирокининг конституцияйи-хуқуқий асослари. – Т., 2015. – Б.32–35.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, oxirgi yillarda deputatlik o‘rnlari uchun siyosiy partiyalar o‘rtasida qizg‘in raqobat kuchayib bormoqda. Hozirgi vaqtda siyosiy partiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydilar, chunki aynan ular saylovda ishtirok etuvchi birdan-bir tashkiliy-jamoaviy subyektlar hisoblanadilar.

Adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri ijtimoiy hayotda, ayniqsa, siyosiy sohada nodavlat notijorat va jamoat tuzilmalarining o‘rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdir. Bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «*Kuchli davlatdan kuchli jamiat sari*» prinsipini amalda hayotga joriy etishdir¹.

Mazkur konseptual g‘oyaning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) unda demokratik islohotlar jarayonini yanada chuqurlashtirish vazifalari o‘z ifodasini topganligida; 2) u mustaqillik yillarida bu sohada amalga oshirilgan islohotlar strategiyasining uzviy qismi bo‘lib, mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichidagi o‘zgarishlar zaruratini o‘zida aks ettirganida; 3) bu jarayon ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlarning bosqichma-bosqich, hech bir ijtimoiy larzalarsiz amalga oshirilishi kerakligida; 4) pirovard maqsadimiz mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyatni qurish ekanini yaqqol ko‘rsatib turganida.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatuvchi nodavlat tashkilotlar va jamoat tuzilmalari Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, davlat idoralariiga ijtimoiy hayot sohalaridagi muammolarni hal etish yuzasidan takliflar kiritish, jamiyatning barcha jahbalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish orqali demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoniga hissa qo‘shib kelmoqda.

Aholining muayyan toifalari yoki jamiyat ijtimoiy hayotining muayyan sohalari manfaatlarini ko‘zlab faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tuzilmalari juda keng tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga demokratik jarayonlarni rivojlantirishning asosiy institutlari bo‘lgan ijtimoiy tashkilotlar, markazlar, jamg‘armalar va harakatlarni oladi.

Ma’lumki, jamiyatning «uchinchchi sektori» – nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda nechog‘li o‘rin tutganiga qarab, har qanday davlatning demokratlashuv darajasi haqida xulosa chiqarish

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.27.

mumkin. «*Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari*» borayotgan O‘zbekistonda ham mazkur sektorni rivojlantirish uchun mustaqillikning ilk yillardanoq mustahkam huquqiy poydevor yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan jamoat birlashmalarining huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi. Jumladan, 1991-yil 15-fevralda «O‘zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi, 1999-yil 14-aprelda «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi va 2007-yil 3-yanvarda «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun¹larda jamoat birlashmalarining huquqlari, ularning maqsadlari, ish faoliyatining shakllari, tuzilish tartibi ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonning «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi 1992-yil 2-iyul qonuniga² muvofiq, kasaba uyushmasi ko‘ngilli jamoat tashkiloti bo‘lib, ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o‘z a’zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun ehtiyojlar umumiyligi bilan bog‘langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1999-yil 14-aprelda qabul qilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonuni³ mazkur toifa jamoat birlashmalarining faoliyati keng huquqiy asosga tayanishi va rivojlanishi uchun yo‘l ochib berdi. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy yoki yuridik shaxslar (yoki ular birgalikda) tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi. Ular jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Istiqlol yillarda mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani bu soha rivojiga bo‘lgan katta e’tiborni ko‘rsatadi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

Mustaqillikning ilk yillarda, ya’ni 1991-yil respublikamizda jami 95 ta jamoat birlashmasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 2585 ta, 2010-yilda 5100 ga yetgan. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatimiz hayotining turli sohalarida 8500 tadan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda. Fuqarolar yig‘inlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, «Sog‘lom avlod uchun», «Nuroniy» jamg‘armalari, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o‘tish mumkin¹.

Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tuzilmalarining mavqeい borgan sayin ortib bormoqda. Ular faqat aholi fikrlarining turli ko‘rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda nodavlat va jamoat tuzilmalari aholining turli manfaatlarga ega qatlamlarini o‘z maqsadlari asosida birlashtirish orqali ularni davlat va jamiyat masalalarini hal qilishga faol ishtirok ettirishga harakat qilmoqda. Aholini uyushtirish esa jamiyatda barqarorlikni ta’minalash va yuksak taraqqiyotga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, aholining davlat va jamiyatni boshqarishdagi ishtirokini yanada faollashtirishni ta’minalash ham nodavlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda «o‘tgan davr mobaynida fuqarolik jamiyatni institutlarini erkin rivojlantirish, fuqarolar manfaatlarni himoya qilish va qondirish, muhim ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni bajarish borasida ularning faoliyati samaradorligini oshirishni ta’minalaydigan zarur me’yoriy-huquqiy baza, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratilgani ham bu sohadagi katta ishlarimizdan desak, yanglishmagan bo‘lamiz»².

Nodavlat va jamoat tashkilotlari xuddi shu xususiyatlari bilan, bir tomonidan, kuchli davlatning shakllanishida yetakchi rol o‘ynasa, ikkinchi tomonidan davlatning ko‘pgina funksiyalarini o‘z zimmasiga olish orqali fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish jarayonining vujudga kelishida, yanada aniqrog‘i, kuchli jamiyatning shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2003. – Б.48.

² Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б.43.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, kuchli davlat deganda, uning zo'rlik ishlatish usullari bilan jamiyatni boshqarishi haqida emas, balki davlatning mustahkam iqtisodiy asosga ega bo'lish, ichki va tashqi siyosatni olib borishda xalq manfaatlarini himoya qila olish, jamiyatda xavfsizlikni, barqarorlikni, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash hamda demokratiyaning umum e'tirof etgan prinsiplarini shakllantira olish kuch-qudratiga egaligi tushuniladi. Aholining nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali hokimiyatni boshqarishda faol ishtirok etish imkoniyatining vujudga kelishi kuchli jamiyat mezoni hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining mohiyat va mazmunini ham xalq tomonidan boshqariladigan sharoit va uning reallikka aylanishi tashkil etadi. Kuchli jamiyat kuchli davlat negizida shakllanadi va hukumatning mamlakat ichkarisidagi ko'pgina faoliyati cheklanib, u fuqarolar qo'liga o'tadi va ularni davlat faoliyatini nazorat qilishi to'liq ta'minlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda «*Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari*» degan prinsipni amalda hayotga joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarini bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi¹. Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institatlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ro'yobga chiqarishda hech bir mubolag'asiz hal qiluvchi omil hisoblanadi.

2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'rzasida: «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»ning e'lon qilinishi esa bu boradagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. «Fuqarolik institatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy mada-niyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda»².

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б.27.

² *Каримов И.А.* Демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2003. – Б.48.

Konsepsiyaning qoidalaridan kelib chiqib, bir qator qonun hujjatlari, jumladan 2013-yil 28-dekabrda «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi, 2014-yil 5-mayda «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi, 2014-yil 25-sentabrda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi, 2016-yil 11-aprelda esa «Parlament nazorati to‘g‘risida»gi qonunlar¹ va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, Konsepsiya belgilangan vazifalar doirasida 2013-yil 12-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martda «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2013-yil 12-dekabr qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori qabul qilinib, «Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi hamda «Nodavlat notijorat tashkilotlarning chet el fuqarolari bo‘lgan xodimlarini, shuningdek ularning qaramog‘idagi oila a’zolarini akkreditasiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizomlar tasdiqlandi. Shuningdek, 2016-yil 25-aprelda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun bilan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. Jumladan, amaldagi 7 ta kodeks va 17 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi².

Mazkur qonun hujjatlari fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishda hal qiluvchi omil sifatida nodavlat notijorat tashkilotlar tizimini keng rivojlantirish, ularni tashkil etish hamda faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy mexanizmlar hamda tartibtaomillarni takomillashtirish va soddalashtirishga qaratilgan qulay shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar shakllanishi uchun muhim zamin yaratdi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati ko'lani kengaytirish va yanada faollashtirishni yangi bosqichga ko'tarib, fuqarolik jamiyati asoslarini bosqichma-bosqich va izchil mustahkamlashni ta'minlamoqda.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning huquqiy asoslari yaratildi. Endilikda ushbu islohotlar jahondagi ilg'or rivojlangan mamlakatlar tajribasi va o'zbek xalqi mentalitetiga xos bo'lgan an'analarni uyg'unlashtirgan holda olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarga jamiyatni demokratlashtirish islohotlari ham uyg'unlashdi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizda fuqarolik jamiyati poydevorining yanada mustahkamlanishiga, yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan «*Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari*» tamoyilini izchillik bilan bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, davlat boshqaruvidan fuqarolik boshqaruviga o'tishda hokimiyat tuzilmalari o'z funksiyalarining bir qismini o'z tashabbusi bilan amalda xalq qo'liga o'tkazib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayon mahalliy davlat hokimiyati funksiyalarini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishda yaqqol sezilmoqda.

Adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishning mazmun-mohiyati davlat-chilik rivojlangan sayin davlat boshqaruving turli vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutini yanada rivojlantirishdir¹. Bugungi kunda siyosiy sohada amalgalayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri boshqaruv vazifalarining asosiy qismi respublika markaziy idoralaridan viloyatlarga, viloyatlardan shahar va tumanlardagi davlat hokimiyati boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlashdir. Bunday jarayon o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik tizimlarida ham asta-sekin, bosqichma-bosqich amalgalayotgan.

Ayni paytda davlatshunoslar o'rtasida ham, siyosatchilar ichida ham mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ommaviy hokimiyatni amalgalayotganida o'rni haqida yagona fikr yo'q. Ularning bir qismi mahalliy o'zini o'zi boshqarishda davlat hokimiyatining quyi organini ko'rishsa

¹ Qarang: Тўлаганов А. Давлат ҳокимиятининг вакиллик ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш. – Т., 2002. – Б.6–7.

(chunki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish jarayoni va ularning huquqiy maqomi, moddiy bazasi davlat tomonidan belgila-nadi), boshqalari esa mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini faqat fuqarolik jamiyatiga sohasiga taalluqli deyishadi¹.

Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, «*Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari*» bosqichma-bosqich o‘tish orqali ro‘y beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolar yig‘inlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi². Ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda 10188 ta fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mayjud bo‘lib, ulardagi 8596 tasi mahalla, 101 tasi shaharcha, 1335 tasi qishloq, 156 tasi ovul fuqarolar yig‘inini tashkil etadi. Fuqarolar yig‘inlari mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, oilalar tinchligini ta’minlash, yosh avlodni milliy mafkura va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida faoliyat olib bormoqdalar³.

O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat organlari tizimiga kirmaydi va fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy hokimiyat tizimida mustaqil bo‘g‘in sifatida joylarda jamiyat hayotiga doir muhim masalalarni hal qiladi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «mahallaning har qanday masalani yechishga qurbi yetadi, nega deganda, eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo‘lishi mumkin. Hech bir korxona, hech bir idora yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi. U yerda hayot tajribasi katta, zaminga yaqin, ko‘pni ko‘rgan, barcha ishni joy-joyiga qo‘yadigan fidoyi odamlar yashaydi va ishlaydi»⁴. Mahalla xalqchil sharqona demokratiya darsxonasidir. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urfatlari va an’analaraiga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajarib keladi. Keksalarning pand-nasihatni, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g‘oyalari singdirib boriladi.

¹ Qarang: *Вииневский А.Ф., Горбаток Н.А., Кучинский В.А.* Общая теория государства и права. – М., 2004. – С.547.

² Qarang: *Каримов И.А.* Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2003. – Б.48.

³ Qarang: Конституциявий ҳуқук: Дарслик / Одилқориев Х.Т., Мухамедов Ў.Х., Сайдов Б.А. ва бошқ.; Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. – Т., 2014. – Б.569.

⁴ *Каримов И.А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т., 1996. – Б.281.

Shuning uchun ham bugungi kunda hayotning o‘zi mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko‘p qirrali islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan huquqshunos olim SH. I. Jalilovning fikricha, bugungi kunda mahallaning mavqeini ko‘tarish, *birinchidan*, o‘zbek xalqining azaliy an’analarini, qadriyatlarini qayta tiklashga va rivojlantirishga; *ikkinchidan*, davlat vazifalarini asta-sekin, bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi boshqarish idoralariga – mahallalarga o‘tkazish bilan jamiyatni demokratlashtirishga yangi va juda katta imkoniyatlar yaratdi¹.

Bugungi kunda mahalla o‘zini o‘zi boshqarish organlarining eng yor-qin ko‘rinishi, ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning betakror o‘ziga xos xususiyati shundaki, mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi 1991-yil 15-fevral, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi 1999-yil 14-aprel, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi 1999-yil 14-aprel, «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari say-lovi to‘g‘risida»gi 2013-yil 22-aprel, «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2016-yil 25-aprel qonunlari, *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla» xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 1992-yil 12-sentabr, «Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida»gi 1994-yil 23-avgust, «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida»gi 1996-yil 10-dekabr, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 1998-yil 23-aprel, «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi 1999-yil 13-yanvar, «O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2004-yil 25-may, «Aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot ishlarining samaradorligi oshirishga doir qo‘srimcha*

¹ Qarang: Жалилов Ш.И. Фуқаролик жамиятининг пойдевори. – Т., 2003. – Б.4.

chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2006-yil 3-aprel farmonlari, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2013-yil 10-oktabr qarori, *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining* Respublika «Mahalla» xayriya jamg‘armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1993-yil 1-dekabr, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2013-yil 10-iyul, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2013-yil 30-sentabr, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 7-oktabr, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to‘g‘risida»gi nizomi tasdiqlash haqida»gi 2013-yil 14-dekabr qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlardir¹.

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavqeini oshirish bo‘yicha izchil olib borilayotgan ishlar, *birinchidan*, o‘zbek xalqining ming yillik tarixidagi eng noyob va aziz qadriyatlar, an’analar va urfatlarni to‘liq tiklash va zamon talablaridan kelib chiqqan holda yanada mustahkamlashni; *ikkinchidan*, mahalliy davlat hokimiyati vakolatlarini bosqichma-bosqich fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazib borish bilan jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishni ta’minlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, xususiy mulkni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minalash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish kabi masalalarni hal qilishda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faol ishtirok etishlari va o‘z hududlarida bu ishlar amalga oshirilishida mas’ul bo‘lishlari kerak. Lekin, shuni alohida qayd etish joizki, ayrim mahalla faollari mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmayaptilar. Buning asosiy sababi mahalla fuqarolar yig‘inining faoliyati shunday katta imkoniyatlар berilgaganiga mos darajada tashkil qilinmaganligi, yig‘inlar raislarining bugungi talab darajasida faoliyat olib bora olmasligidir. Bundan tashqari, «ko‘pgina hollarda mahalliy hokimliklarning mahalla vakillariga boshqaruv vakolatlarini berishga to‘sinqilik qilib kelayotganliklarining ham guvohi bo‘la-

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари миллий базасининг веб-сайти – www.lex.uz.

miz»¹. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatidagi bunday obyektiv va subyektiv xususiyatga ega qiyinchiliklar, to‘silalar va muammolar mavjudligi ko‘pgina izlanishlar jarayonida ham aniqlangan².

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamizning 105-moddasiga muvofiq, «shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organi bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi»³. Ushbu qoidadan kelib chiqib, mamlakatimizda fuqarolar yig‘ini raisi va uning maslahatchilari saylovi o‘tkazib kelinmoqda. Mazkur saylov jarayoni ham yurtimizda shakllangan demokratik saylov tizimining uzviy bir qismi bo‘lib, unda fuqarolar o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning natijasi tufayli, qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasi, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasi, «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida»gi qonunning 8, 10 va 11-moddalariga muvofiq, shuningdek, fuqarolar yig‘inlari raislari va ular maslahatchilarining vakolat muddati 2016-yil may-iyunda tugashi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2016-yil 5-martdagи «Fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari sayloviga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori⁴ga ko‘ra, shu yil may-iyun oylarida mamlakatimizda fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovi o‘tkazildi.

Navbatdagi fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovi jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlari chuqurlashib borayotgan, sifat jihatidan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bo‘lib o‘tdi. Mazkur saylovlarda mamlakatimiz aholisi ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini chuqr

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пиравард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000. – Б.308.

² Qarang: Ҳусанов О.Т. Мустақиллик ва маҳаллий ҳокимият. – Т., 1996. – Б.67; Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б.188–189.

³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015. – Б.58.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг «Фуқаролар йиғинлари raislari (оқсоқоллари) ва ularning maslahatchilari сайловига тайёргарлик кўриш ҳамда уни ўтказиш тўғрисида»ги қарори // <http://www.senat.gov.uz/uz/news/2016/pks-05-03.html>

tushunishlarini hamda ijtimoiy faolligini ko‘rsatib, o‘z mahallasi uchun mas’uliyatini, jamiyatimizdagi demokratik o‘zgarishlarga daxldorligini yaqqol namoyish etdi.

Saylovni yuqori tashkiliy saviyada tashkil etish va o‘tkazish, «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni talablari asosida fuqarolar yig‘inlari organlarini shakllantirishda keng ishtirok etish borasidagi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarish uchun tashkiliy-huquqiy sharoitlarni ta‘minlash maqsadida Oliy Majlis Senati Kengashining 2016-yil 5-martdagi qarori bilan Senat Kengashining fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyasi tuzildi, saylovni tashkil etish hamda o‘tkazishga doir tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu reja asosida aholi o‘rtasida sohaga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish, tushuntirish hamda tegishli hududda doimiy yashaydigan fuqarolarning fikrlarini hisobga olgan holda fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning maslahatchilari lavozimlariga tashkilotchilik qobiliyatiga, davlat organlarida yoki nodavlat notijorat tashkilotlarda yoxud tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati sohasida ish tajribasiga, shuningdek hayotiy tajribaga va aholi o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan eng munosib fuqarolarning saylanishini ta‘minlash bo‘yicha joylardagi davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari sessiyalarida fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini tashkil qilish va o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha komissiyalar, 9764 ta fuqarolar yig‘inida ishchi guruhlar tuzildi.

Oliy Majlis Senati Kengashi komissiyasi tomonidan «Mahalla» xayriya jamoat fondi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda saylovni tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi hududiy, tuman va shaharlar komissiyalari hamda ishchi guruhlari a’zolari uchun sohaga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati hamda saylovni tashkil qilish va o‘tkazish tartibini tushuntirish bo‘yicha 1600 ta seminar va davra suhbatlari o‘tzildi. Saylovni tashkil qilish va o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlari, ko‘maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhlarga uslubiy yordam sifatida Senat Kengashi komissiyasi tomonidan tegishli broshuralar, saylov hujjatlari namunalari, metodik tavsiyalar tayyorlandi va tarqatildi. Mustaqil bosma

ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish fondi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda joylarda mahalliy ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko'rsatayotgan jurnalistlar uchun hududiy seminar-treninglar o'tkazildi.

«Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qoidalarini tushuntirish, shuningdek saylov jarayonlarini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalarida hamda Internet nashrlarida 1880 ta material chop etildi, 2014 ta teleko'rsatuv, 2500 dan ortiq radio eshittirish, 10 ta ijtimoiy rolik tayyorlandi.

Saylov jarayonlarida 9764 nafar fuqarolar yig'inlari raislari va ularning 105 mingdan ortiq maslahatchilari saylandi.

Yangi saylangan raislarning 73,6 foizi oliy ma'lumotli, 82,4 foizi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida va tadbirkorlik sohasida boshqaruvin ish tajribasiga ega bo'lib, ularning 67 foizi ushbu lavozimga birinchi marta saylandi. Raislarning 865 nafari ayollardir. Saylangan fuqarolar yig'inlari raislari maslahatchilarining 51,1 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lib, ularning 25,4 foizini ayollar tashkil qiladi. Maslahatchilarining 53,3 foizi ushbu vazifaga birinchi marta saylandi.

Saylov natijalari tahlili aholining saylov jarayonlarida ijtimoiy faolligi oshganligi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish, mahallalarda ma'naviy muhit barqarorligini hamda millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga va milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlaridagi o'rni va ahamiyati dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Yangi saylangan fuqarolar yig'inlari raislari hamda ularning maslahatchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 25 yillik bayramiga tayyor-garlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarori¹ ijrosiga qaratilgan tashkiliy-amaliy, madaniy-ma'rifiy, axborot-tushuntirish tadbirlari dasturini, shuningdek, «Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishlari lozim².

¹ <http://www.press-service.uz/uz/document/5257/>

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши ахбороти. // <http://www.senat.gov.uz/uz/news/2016/08-07.html>

Mamlakatda o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bo‘lgan saylovlар fuqarolik jamiyatining rivojlanib borayotganligini, joylarda fuqarolarning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda fuqarolar yig‘inlarining o‘rni oshib borayotganligini, aholining bu sohadagi faolligi kuchayganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, saylovlар jarayonlari va ularning natijalari islohotlarni chuqurlashtirishning «*Kuchli davlatdan kuchli jamiyati sari*» prinsipining ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalariga kirib borayotganligining yana bir ifodasi bo‘ldi. Mustaqillik davrida o‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o‘zining samaralarini bera boshladi. Mahallalar mamlakatdagи aholining o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, siyosiy qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e’tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib borish prinsipi asosida rivojlandi.

Bugungi kunda jamiyatda mahalla, avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhit maskani. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla aholining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarni adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma’noda mahallaning demokratiya darsxonasi deb atalishi juda hayotiydir.

Jamoatchilik munosabatlarining oliy nuqtasi bo‘lmish mahalla instituti o‘zbeklar hayotini an’anaviy tashkil qilishning o‘zagi bo‘lgan ijtimoiy tuzilma sifatida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim instituti bo‘lgan mahalla mahalliy hamjamiatlarning o‘ziga xos modeli, turar joydagi milliy o‘zini o‘zi boshqarish bo‘lib, asrlar davomida shakllangan an’analar, urf-odatlarga tayangan holda muhim tashkiliy-iqtisodiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajradi. Mahallada ijtimoiy ong oqsoqollarning hayotiy tajribasi, katta yoshdagilarning shaxsiy namunasi, jamoada o‘zini tutish qoidalari orqali boyib boradi. O‘zaro munosabatlar adolat, bir-birini hurmat qilish, mehr-shafqat, o‘zaro yordam asosiga quriladi. Mahalla, aslida, Sharq demokratiyasining ilk maktabidir¹.

Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlар, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o‘rni beqiyos².

¹ Qarang: Шарифходжасев М. О процессах формирования гражданского общества в Узбекистане // Труд. – 2002. – 11 июнь.

² Qarang: Жалилов Ш.И. Фуқаролик жамиятининг пойдевори. – Т., 2003. – Б.15.

Bugungi kunda har bir inson, har bir oila, har bir mahalla hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida insonlarning boshini birlashtirishda, ma'muriy-hududlarda tartib-intizom, xavfsizlik, barqarorlik va qonuniylikni mustahkamlashda, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish jarayonida o'zini o'zi boshqarish tizimini joriy etishda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyati kun sayin oshib borayotganini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, muvaffaqiyatlarga mahliyo bo'lmasdan, ortiqcha manmanlik va maqtanchoqlikka berilmasdan, o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz bilan bir qatorda yo'l qo'ygan kamchilik va nuqsonlarimiz, boy bergen imkoniyatlarimizni xolisona tan olib, ulardan tegishli saboq va xulosa chiqarib, kelgusi faoliyatimizda bunday holatlarning oldini olish uchun barcha choralarни ko'rishimiz, kerak bo'lsa, oqu qorani, do'sti dushmanni ajratib olishimiz, doimo sezgir va ogoh bo'lishimiz, qisqa qilib aytganda, yon-atrofimizda hali-beri saqlanib qolayotgan xavf-xatarlarga ochiq ko'z bilan qarab, turli tahdidlarga bo'sh kelmasdan, oxir-oqibatda o'zimizning ezgu maqsad-muddaolarimizga erishishimiz shart¹.

3.3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida inson huquqlarining ta'minlashi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan davrda fuqaro va davlat, shaxs va jamiyat munosabatlarining kommunistik mafkuradan, sinfiy aqidaparastlikdan, totalitar ong va tafakkurdan holi bo'lgan, «inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», degan konstitutsiyaviy qoidaga asoslangan yangi konsepsiya yaratildi. O'zbekistonda «Hamma narsa inson uchun, uning kelajagi uchun» degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi².

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida inson huquqlarini ta'minlash bugungi kunda shartli ravishda to'rt yo'nalishda amalga oshirilishini

¹ Qarang: *Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир.* Т.15. – Т., 2007. – Б.248–249.

² Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида.* Т.16. – Т., 2008. – Б.54.

taqozo etadi: 1) inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari Konstitusiyada qay darajada mustahkamlanganligini o'rganish; 2) Konstitutsiyada belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari qanday holatda ekanligini o'rganish; 3) inson va fuqarolarning Konstitutsiya va amaldagi qonunlarda belgilangan huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini amalga oshirishda jamiyatdagi siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiylar faoliyatini o'rganish; 4) jamiyatning har bir a'zosini o'z huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va burchlarini bilishi, uni amalga oshirish imkoniyati va qobiliyatiga, ya'ni huquqiy, siyosiy, ma'naviy ongi va tafakkurining qay darajada ekanligini hamda ularni yuksaltirishni o'rganish.

Jahon taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdaki, «inson huquqini qonunda va amalda ta'minlay olmagan, buning uchun yetarli kafolatlar yaratib bera olmagan jamiyat demokratik jamiyat emas»¹.

Huquq va erkinliklar kafolati – shaxsning konstitutsiya, qonun hujjatlari va joriy qonunchilikda ko'rsatilgan, butun jamiyat tan olgan, rioya qilgan va davlat tomonidan himoya qilingan o'z huquq va manfaatlarini qonun asosida real himoya qila oladigan sharoitni yaratib beruvchi vosita, usul va jarayonlar majmuidir².

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarni to'rt guruhga ajratish mumkin: insonning tabiiy hamda umumiyy huquq va erkinliklari; umumfuqarovi shaxsiy huquq va erkinliklar; siyosiy huquq va erkinliklar; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq hamda erkinliklar. O'zbekiston «Inson huquqlari umumjahon deklarasiya»da sanab o'tilgan barcha inson huquq va erkinliklarni ta'minlashni zimmasiga oldi.

Mazkur siyosiy iroda, qat'iy azm-ixtiyor mamlakatimiz Konstitusiyasida o'z aksini topdi. Konstitutsiyada inson (fuqaro)ning huquq, erkinlik va burchlariga oid umumiyy qoidalar (18–22-moddalar); shaxsiy (shu jumladan insonning tabiiy va ajralmas huquqlari) huquq va erkinliklar (24–31-moddalar); fuqarolarning siyosiy huquqlari (32–35-moddalar); iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari (36–42-moddalar); inson huquqlari va erkinliklarining kafo-

¹ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т., 1996. – Б.110.

² Qarang: Калашников В.С. Система конституционных гарантий обеспечения прав и свобод граждан в условиях формирования в России гражданского общества. // Государство и право. – М., 2002. – №10. – С.18

latlari (43–46-moddalar) mustahkamlangan. Konstitutsiyaning atigi oltita moddasida (47–52-moddalar) fuqarolarning burch hamda majburiyatlari ifodalan-gan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati, falsafasi, g‘oyasiga ko‘ra yangi huj-jatdir. Unda ... jamiki dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i - inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda «fuqaro – jamiyat – davlat» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning huquqiy maqomi: 1) inson va fuqaro huquq, erkinlik va majburiyatlarining tengligi hamda teng huquqliligi; 2) konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlan-ganligi; 3) fuqarolar huquq va erkinliklarining cheklanishiga yo‘l qo‘ymasligi; 4) huquq va majburiyatlar birligi prinsiplariga asoslangan holda mustahkamlangan. Shaxs nafaqat muayyan huquq va erkinliklar egasi, balki majburiyatlar sohibi hamdir. Turli-tuman huquqiy munosabatlar ishtirok-chisi bo‘lmish fuqaro faqat huquq va imtiyozlardan foydalanib qolmasdan, jamiyat, davlat va boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlar ham o‘taydi².

Demokratik jamiyatda har qanday subyektiv huquqning ro‘yobga chiqishi unga mutanosib huquqiy majburiyatning bajarilishini taqozo etadi. Fuqaroning o‘z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning bunga to‘sinqilik yoki qarshilik qilmaslik majburiyati bilan ta’milanishi kerak. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 20-mod-dasida fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart ekanligi mustahkamlab qo‘ylgan.

O‘zbekistonda shaxs huquqiy maqomi xalqaro huquq qoidalariiga asoslangan va umuminsoniy hamda demokratik prinsiplarga to‘liq rioya qilingan holda Konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shuni alohida qayd etish joizki, real hayotda huquq va erkinliklarni samarali amalga oshirish uchun inson va fuqaro huquq va erkinliklari kafolatining davlat ichidagi har xil buzilish va salbiy ta’sirlarga chidamli mexanizmi zarur. Jamiyatda inson huquq va erkinliklari kafolatining umum e’tirof etgan mukammal mexanizmi o‘zaro chambarchas

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.124.

² Qarang: Одилқориев X.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т., 2003. – Б.138–163.

bog‘liq bo‘lgan xalqaro, milliy, mahalliy huquqni himoya qiluvchi darajalarni o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquq va erkinlarini hamda burchlarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini inson va fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari, burchlarini amalga oshirish, buzilgan huquqlarini tiklash yo‘llari, usullari, tartibini belgilab beruvchi, shuningdek bu jarayonni huquqiy tartibga solishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi tashkil etadi. Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlar tizimiga kiruvchi qonunlarni shartli ravishda quyidagi to‘rt guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: a) insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish tartibini belgilovchi va ularning himoya qilinishini ta’minlovchi qonunlar; b) fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirish yo‘llari, usullari va tartibini belgilab beruvchi hamda bu jarayonni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar; d) shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish yo‘llari, usullari va tartibini belgilab beruvchi hamda bu jarayonni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar; e) fuqarolarning burchlari va ularni ado etish tartibini belgilovchi qonunlar.

Bugungi kunda respublikada inson huquqlarini himoya qilish sohasida davlat apparati faoliyatiga ko‘mak berish maqsadida inson huquqlari masalalari bilan shug‘ullanuvchi bir qator institutlar tashkil etildi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: inson huquqlari masalalari bo‘yicha qonunlarga rioya etish samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman); milliy huquq normalarining inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq standartlariga muvofiqligini ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti; inson huquqlariga rioya qilish sohasida muvofiqlashtiruvchi, tahlil va maslahat organi hisoblangan Inson huquqlari milliy markazi; respublikada inson huquqlarini ta’minalashni tahlil qiladigan va sotsiologik tahlillar o‘tkazuvchi, jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi «Ijtimoiy fikr» markazi. Bundan tashqari, hozirgi kunda respublikamizda adliya organlaridan ro‘yxatdan o‘tgan va qonuniy asosda faoliyat yuritayotgan nodavlat va jamoat tuzilmalari hamda xalqaro tashkilotlar tuzilmalari, nohukumat xalqaro tashkilotlar ham inson huquqlarini himoya qilish masalalari bilan shug‘ullanishmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan prezident, parlament, hukumat, ichki idoraviy, prokura-tura, sud, moliya va boshqa turdagи nazoratlar amalga oshirilishiga qaramasdan, afsuski, ular tomonidan inson va fuqarolar huquq va erkinlik-

larining buzilishi hollari uchrab turibdi. Barcha davlat organlari ham inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini ta’minlamaydi.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda eng muhim masalalardan biri boshqaruv va ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratining samarali tizimini o‘rnatishdan iborat¹. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qayerda jamoatchilik nazorati kuchli bo‘lsa, u yerda inson huquq va erkinliklarining buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi va ularning o‘z vaqtida hamda to‘liq amalga oshirilishi ta’minlanadi. Bugungi kunda jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilayotgan va eng samarali yo‘nalish inson huquq va erkinliklari monitoringi tizimini yaratishdir.

Monitoring – barcha davlat organlari, jamoat tuzilmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarga rioya etishi haqidagi ma’lumotlarni uzlucksiz yig‘ish va tahlil qilish. Inson huquqlariga rioya qilish haqidagi ma’lumotlardan inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etishni yaxshilash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, yangi huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, jamoatchilikni respublikaning u yoki bu hududida inson huquqlariga rioya etish sohasidagi vaziyat haqida xabardor qilish uchun foydalanish zarur.

Inson huquq va erkinliklari bo‘yicha monitoring assosan quyidagi uch funksiyani bajaradi: *birinchidan*, inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishi, ularning amalga oshirilishining ta’milanishi hamda himoya qilinishing ahvolini bilish; *ikkinchidan*, inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishini, ularning amalga oshirilishini hamda himoya qilinishingi ta’milanishiga yordam berish; *uchinchidan*, inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish.

Inson huquq va erkinliklari monitoringini uni amalga oshiruvchi subyektlar maqomiga qarab ikkiga, ya’ni inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va milliy davlat monitoringiga ajratish mumkin.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro monitoring BMTning quyidagi organlari tomonidan amalga oshiriladi: 1) Inson huquqlari bo‘yicha komissiya; 2) BMTning inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi; 3) BMTning inson huquq va erkinliklari bo‘yicha konvensial organlari;

¹ Qarang: *Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чукурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг хаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир.* Т.15.–Т., 2007.–Б.105.

4) Monitoringning shartnomadan tashqari mexanizmi¹. Bundan tashqari, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro monitoring belgilangan davlat organlariidan ro‘yxatdan o‘tgan va amaldagi qonunlarga rioya etgan holda faoliyat yurituvchi xalqaro nohukumat tashkilotlari tomonidan ham olib boriladi. Inson huquqlari monitoringi, *birinchidan*, mansabdor shaxslar harakatlari va qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlash; *ikkinchidan*, inson huquqlari buzilishining oldini oluvchi va bar-taraf etuvchi harakatlarni ishlab chiqish uchun bunday holatlarni aniqlash; *uchinchidan*, inson huquqlariga rioya etishni va ularni himoya qilishni ta’minalash sohasida davlat organlari o‘rtasidagi hamda ularning jamoat tuzilmalari bilan hamkorligini tahlil qilish; *to‘rtinchidan*, jamoatchilikni inson huquqlari sohasidagi ahvoldan xabardor qilish kabi *vazifalarni* bajaradi.

Hozirgi kunda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari qo‘pol buzilishlarining asosiy sabablari sifatida quyidagilar namoyon bo‘lmoqda: a) inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish, himoya qilish uchun mas’ul bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ayrim xodimlarining, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, turli tashkilot hamda muassasalar ayrim rahbarlarining kasb malakasi pastligi, dunyoqarashining torligi, huquqni mensimasligi,sovuuqqonligi, to‘rachiligi va javobgarlikni his qilmasligi; b) inson huquq va erkinliklariga rioya qilish ustidan ichki idoraviy, prokuror, sud nazoratining talab darajasida emasligi; d) inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishni, himoya qilishni ta’minalash, buzilgan huquqlarni tiklash sohasida nodavlat notijorat va jamoat tuzilmalari faoliyatining sustligi va ularning bu sohada davlat idoralari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorligining yo‘qligi; e) fuqarolar aksariyat qismining o‘z haq-huquqlarini, ularni amalga oshirish, buzilgan hollarda esa uni tiklash yo‘llari, usullari va tartibini hamda amaldagi qonunlarni bilmasliklari yoki bunday imkoniyatlarga ega emasliklari.

Jamiyatda shakllanib borayotgan ko‘ppartiyaviylik muhiti, fikrlar va mafkuralar xilma-xilligi sharoitida har bir insonning, fuqaroning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qila olishi, huquqiy demokratik davlat qurish vaadolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Agarda jamiyat qurishda fuqarolarning ongi, bilimi, madaniyati, ma’naviyati yuqori bo‘lsa, bunday jamiyat har qanday tobelikdan holi bo‘lgan kishilik jamiyatni bo‘ladi.

¹ Qarang: Сайдов А.Х. Международный мониторинг прав человека: понятие, система и значение // Мониторинг прав человека. – Т., 2003. – Б.75–76.

Yuksak ma'naviyatga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z haq-huquqini biladigan, uni amalga oshirish uchun kerakli siyosiy-huquqiy bilimga va madaniyatga ega bo'lgan, o'z kuchi va qadriyatiga tayanib yashaydigan erkin fuqaro, ozod shaxsning faoliyatisiz tasavvur etib bo'l-maydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Bu o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonni shakllantirishdir»¹.

Ijtimoiy sohaga oid adabiyotlarda ko'rsatilganidek, fuqaro va shaxs erkinligini huquqiy kafolatlashning o'zi hali uning amalda erkin fuqaro yoki ozod shaxs ekanligini to'la anglab yetganligini bildirmaydi. Uning amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liq: 1) fuqaro va shaxs tomonidan erkinlikni, ozodlikni to'la anglab yetish; 2) fuqaro va shaxsning ma'naviy darajasi, ichki ma'naviy dunyosi; 3) o'z haq-huquqlarini bilishi va chuqur anglashi; 4) o'z kuchi va imkoniyatiga tayanishi, o'ziga ishonchi; 5) voqeа va hodisalarga munosabatda o'z fikr va qarashiga egaligi, mustaqil yondashishi; 6) o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat bilan uyg'un holda ko'rishi; 7) har jihatdan barkamol, komil inson bo'lish. O'zini erkin, ozod fuqaro yoki shaxs sifatida anglab, haqiqiy ozodligini, erkinligini chuqur idrok etgan har bir kishi Vatan oldidagi o'z burchini to'laroq idrok etadi. Unda erkinlik va ozodlikni anglash o'zaro uyg'unlashadi².

Erkin, ozod fuqaro va shaxsni shakllantirish, *birinchidan*, jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasi, uning imkoniyatlariga; *ikkinchidan*, har bir insonning ma'naviy dunyosi, tafakkuri bilan uzviydir. Shuni ta'kidlash joizki, jamiyatning ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning a'zolari ozod va erkin bo'ladi. Ozodlik va erkinlik uchun kurashadigan, uni to'liq idrok etadigan va qadriga yeta oladigan insonlar va fuqarolar jamiyati doimoadolatli, kuchli hamda mustahkam bo'lib boradi. Bugungi kunda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Bu, avvalo, fuqarolarda erkinlik, ozodlikning qaramlikdan afzalligini anglashga qodir bo'lgan ong va tafakkurni shakllantirishdir.

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999. – Б.381.

² Эргашев И., Шарипов Б., Жакбаров М. Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият. – Т., 2002. – Б.13.

Bugun odamlarning o‘zligini namoyon etishda fikr erkinligiga, ya’ni o‘z fikrini, qarashini o‘zi o‘ylagan, tushungan tarzda aytal olishishlariga erishish muhim. «Eng muhimi tarixan qisqa vaqt ichida, aholining ongu tafakkurida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so‘z bilan aytganda, odamlarning o‘zi o‘zgardi»¹. Lekin ayrim odamlar o‘z fikrini erkin aytal olish darajasida emas. Unga xalaqit beradigan quyidagi jihatlar hayotda kuzatilmoqda: a) odamlarda qo‘rquv, ichki nazorat kuchli bo‘lib, fikrni erkin ifodalashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda; b) ayrim odamlarning ichki ma’naviy dunyosining yuqori emasligi ham fikr erkinligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda; d) mavjud siyosiy kuchlar, jamoat tashkilotlari tomonidan o‘zlarining himoya qilinishiga bo‘lgan kafolatga ishonchining yuqori emasligi, ayrim shaxslar tomonidanadolatsiz ta’qib va tazyiq ko‘rsatish holatlari mavjud².

Mustaqil fikrlash, uni erkin aytishga harakat qilish va aytal olish erkin va ozod fuqaroga, shaxsga xos bo‘lgan xususiyatdir. Ozod shaxs va fuqaro, inson tushunchalari ularning jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga, mavjud muammolarga nisbatan o‘zining shaxsiy munosabatini mustaqil, hech bir tazyiqsiz erkin bildirishi bilan bog‘liqdir. Chunki, «fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ko‘ra dahshatliroqdir»³.

Bizda kishilar dunyoqarashini boshqarish emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma’no va mazmun bilan to‘ldirish asosiy maqsaddir. Bugun fuqarolarga juda keng huquq va erkinliklar berilgan. Ammo ularning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini juda faol deb bo‘lmaydi⁴.

Mamlakatning fuqarosi ekanligini his qilgan, huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo‘lgan, demokratik qadriyatlarni asrab, himoya qilgan insonlarni haqiqiy ma’noda ozod va erkin, deb hisoblash mumkin. Mamlakat shunday odamlarga tayanadi va doimo ehtiyoj sezadi. Shuning uchun

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётизмни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б.35.

² Qarang: *Эргашев И., Шарипов Б., Жакбаров М.* Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият. – Т., 2002. – Б.14.

³ *Каримов И.А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. – Т., 1999. – Б.85.

⁴ Qarang: *Эргашев И., Шарипов Б., Жакбаров М.* Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият. – Т., 2002. – Б.16.

ham barchamizning asosiy vazifamiz – yoshlarimizga mustaqil fikri va dunyoqarashiga shakllantirishda ko‘maklashish, hayotda o‘z pozitsiyasi va yondashuvini qat’iy belgilab olishiga yordamlashish, ularni ongli va bilimli qilib tarbiyalash, yon-atrofdagi voqealarga beparvo bo‘lmaslik, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga o‘rgatishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi shaxsning huquqiy mavqeini belgilashda, *birinchidan*, inson, uning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquq va erkinliklari oliy qadriyat bo‘lib, jamiyatda, ularning ustuvorligi; *ikkinchidan*, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi; *uchinchidan*, davlat bilan fuqaroning o‘zaro siyosiy-huquqiy aloqadorligi va mas’ulligi; *to‘rtinchidan*, Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsiplariga asoslangan butunlay yangi konsepsiyaga tayangan.

Muxtasar qilib aytganda, faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo‘li xalqimiz ko‘zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo‘lgan, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar.

XULOSA

Yer yuzida insoniyat yaratilganidan boshlab hayotiy va insoniy qulayliklarga ega bo‘lgan adolatli jamiyat qurishga intilishlar ham shakllandi. Insoniyat tarixining ilk davridanoq adolatli jamiyat qurishda jamiyat bar-qarorligini saqlashning bebahomili sifatida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratdi. Jamiyatda inson huquq va erkinliklarini, jamoat tartibi va xavfsizligini, millatlar, dinlar o‘rtasidagi totuvlikni to‘liq ta’minalash qobiliyatiga, erkin fikrlaydigan komil insonni tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitlarga ega bo‘lgan adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish O‘zbekiston xalqi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston xalqi XXI asrga yuksak insoniy maqsadlar bilan, barqaror taraqqiyot, mustahkam tinchlik va farovon hayotga erishish, adolat hamda erkinlik tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyat qurish niyatida qadam qo‘ydi. Komil ishonch bilan ta’kidlash lozimki, yurtimiz dunyo ham-jamiyatining barcha ma’rifiy davlatlari singari umumbashariy qadriyatlarnar topadigan, inson qadri va huquqlari e’zozlanadigan hamda bezavoltaminanadigan, davlat idoralari va mansabdor shaxslar xalq manfaatlariaga sadoqat bilan xizmat qiladigan, demokratiya tom ma’noda tantana qiladigan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan bormoqda.

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun jamiyatda adolatli, insonparvar, demokratik qonunlar qabul qilinishi va ular hayotda tantana qilishi shart. Konstitusiya va qonunlarning ustuvorligi demokratik huquqiy davlat va erkin adolatli fuqarolik jamiyatini hayotining muqaddas prinsipidir. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida uning asosiy prinsipi bo‘lgan «Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi»: sudlarning mustaqilligini qonunda va amalda joriy etishni; advokatura tizimining rolini kuchaytirishni; huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini erkinlashtirishni; davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni; jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda fuqarolik jamiyatni barpo etish islohotlari bir tomonidan, jamiyatni o‘zini takomillashtirish sohasini qamrab olgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat hokimiyatini organlarini nomarkazlashtirish, hokimiyat organlari vakolatlarini bir qismini fuqarolik jamiyatni institutlariga berish, nodavlat notijorat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga davlat organlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Chunki, fuqarolik jamiyatni faqat huquqiy davlatni amal qilishi sharoitidagina yashay oladi, o‘z o‘rnida, huquqiy davlatning o‘zi ham fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllanib borishi barobarida qad ko‘tarib boradi.

Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash zarurati, turli yo‘nalishlardagi nodavlat notijorat tashkilotlarning bu boradagi faolligiga erishish hamda ularning rivojlanishini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy erkinlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan jamiyatning o‘rtaligi qatlarni shakllantirish vazifasi aynan shu institutlar ishtirokida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu, jamiyat tomonidan islohotlar jarayonining qo‘llab-quvvatlanishi imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Vatanimizda tub siyosiy-huquqiy islohotlarni jamiyat hayotini keng ko‘lamli erkinlashtirishini og‘ishmay amalga oshirish qonun ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishning zarur shartlaridan biridir. Ushbu demokratik o‘zgarishlar qonuniylikka asoslangan ijtimoiy adolatli, pirovard natijada, jamiyat hayotining asosiy mezoni va qoidasiga aylantirishga qaratilishi lozim. Bu borada aksariyat fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyati yuqori darajada bo‘lishi ham hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bunga erishishning eng maqbul yo‘llaridan biri nodavlat notijorat tashkilotlar va ijtimoiy-siyosiy institutlarning faoliyatini yanada erkinlashtirish, ularning davlat organlari va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarida hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

Hozir mamlakatda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni barpo etishning «O‘zbek modeli»ga xos bo‘lgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatni sari» tamoyili asosidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Islohotlarning bu bosqichida insonni o‘zini yangi jamiyat qurish jarayonlariga jalb etish, inson manfaatlarini islohotlar nati-

jalari bilan uyg‘unlashtirish, insonni ma’naviy qarashlarini yuksaltirish barobarida uning yaratuvchilik salohiyatini yuzaga chiqarish, yangi jamiyat qurishning inson erkinligi va farovonligini ta’minlashning asosiy kafolati ekanligiga muhim e’tibor berish, umuman olganda, bu maqsad-larni amalga oshirish uchun insonni o‘zini ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish mamlakat rivojlanish strategiyasining uzviy bir qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Zero, mamlakatda fuqarolik jamiyatni barpo etish zaminida davlatimizni jahon hamjamiatida o‘ziga munosib o‘rinni egallashi, rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan iqtisodiy salohiyatiga erishish yo‘llari intilishlari mujassamlashgan.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatini barpo etish o‘ta murakkab va uzoq muddatli, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan muammo hamda ziddiyatlarga boy jarayondir. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini barpo etish bar-chamizning pirovard maqsadimiz bo‘lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyat, an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma’naviy-axloqiy kamol topishini ta’minlaydi.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
------------------------	----------

I bob. FUQAROLIK JAMIYATINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

1.1. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va uning mohiyati	6
1.2. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi asosiy siyosiy-huquqiy ta’limotlar	15
1.3. Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos belgilari va xususiyatlari	32

II bob. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNI HUQUQIY TA’MINLASH

2.1. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy poydevori	40
2.2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish	53
2.3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari	67

III bob. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

3.1. O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omili	77
3.2. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari hamda ular faoliyatini takomillashtirish	88
3.3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida inson huquqlarining ta’minlashi	111
XULOSA.....	120

Umid Erkinovich FOZILOV,

yuridik fanlar nomzodi

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA
HUQUQIY ASOSLARI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir B. A. Yarov

Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 26.08.2016. Nashriyot hisob tabag‘i 8,0.
Adadi 20 nusxa. Buyurtma № Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.